

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI 10

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
10-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2023

UO'K 341.23(075.3)
KBK 67.400ya72
D 14

Davlat va huquq asoslari [Matn]: 10-sinf uchun darslik / H. Tuychiyeva, A. Hakimov,
O. Abdug'aniyev, O. Shernayev, M. Ahmedova.
Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023. – 128 b.

TAQRIZCHILAR:

Sh. A. Saydullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ommaviy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor.

B. I. Ismailov – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor.

N. F. Saydalixodjayeva – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

S. Z. Tilavova – Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR



Siz bilib olasiz



Yodda tuting



Savol va topshiriqlar



Mustaqil ish uchun topshiriq



Tarixga nazar

Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.

MUNDARIJA

I BOB. JAMIYAT VA INSON HUQUQLARI

1–2-dars. Jamiyatda inson huquqlarining oʻrni.....	6
3–4-dars. Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi	14
5-dars. Inson huquqlari va huquq ustuvorligi	21
6-dars. Inson huquqlari va ijtimoiy himoya.....	26
7-dars. Inson huquqlari boʻyicha milliy qonunchilik.....	30
8-dars. Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar.....	34
9-dars. Ijodiy faoliyat.....	38

II BOB. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

10-dars. Jamiyatda oilaning oʻrni	41
11–12-dars. Nikoh, uni tuzish va tugatish asoslari	46
13-dars. Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi.....	51
14-dars. Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari.....	56
15-dars. Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari.....	59
16-dars. Ijodiy faoliyat.....	63

III BOB. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR

17-dars. Fuqarolik huquqi asoslari.....	67
18–19-dars. Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari	70
20-dars. Mulkiy va nomulkiy munosabatlar	74
21-dars. Majburiyatlar	77
22-dars. Majburiyatlarning turlari	79
23-dars. Isteʼmolchilar huquqlari.....	82
24-dars. Intellektual mulk.....	86
25-dars. Vorislik	89
26-dars. Ijodiy faoliyat.....	92

IV BOB. OʻZBEKISTON VA XALQARO HAMJAMIYAT

27-dars. Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi	95
28-dars. Xalqaro huquq.....	99
29-dars. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik.....	104
30-dars. Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari	107
31-dars. Oʻzbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi oʻrni.....	112
32-dars. Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligi	115
33-dars. Oʻzbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar	119
34-dars. Ijodiy faoliyat.....	123



AZIZ O'QUVCHI!

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish dolzarb masaladir. Chunki yoshlarning huquqiy bilimlari, qonunlarga amal qilishi va ulardan o'z manfaatlarini himoya qilishda foydalana olishi jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi. Qonun ustuvorligi ta'minlanishi va qonuniylik mustahkamlanishi barcha sohalarda o'sish, rivojlanish bo'lishiga turtki beradi.

Qo'lingizdagi darslik umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi asosida hozirgi zamon talablarini inobatga olgan holda, an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda ilg'or xorijiy tajriba asosida tayyorlandi. Ushbu darslik sizni kundalik hayotda huquqiy vaziyatlarni hal qila olishga, huquq normalarini hayotda mustaqil qo'llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o'rgatadi. Shuningdek, 8–9-sinflarda olgan bilim, ko'nikmalaringizga suyangan holda ijtimoiy-huquqiy faolligingizni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslikda mavzular mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilgan bo'lib, unda o'rganiladigan mavzular sizning yoshingizni inobatga olgan holda yoritildi.

Aziz o'quvchi! Bugun huquq qoidalarini bilib olmasangiz, o'z huquqlaringizni himoya qilolmaysiz va burch, majburiyatlaringizni anglashingiz qiyin bo'ladi. Hayotda uchraydigan ayrim holatlarga duch kelganda ushbu darslikda berilgan savol va topshiriqlar, mulohaza qilish uchun huquqiy masalalar, atamalarning izohi sizga yordam beradi. Darslikdagi ijodiy va mustaqil faoliyatga undaydigan topshiriqlar esa mavzuni to'liq tushunishga, huquqiy bilimlaringizni yanada boyitishga ko'maklashadi. Siz mazkur darslik bilan bir qatorda mustaqil o'qish, izlanish, tarixiy, ma'naviy, huquqiy manbalarni o'rganish asosida to'laqonli bilim va tasavvurlarga ega bo'lasiz.

Darslikdagi mazkur tizim sizni kelajakda oliy ta'lim muassasasida modul kredit asosida ta'lim olishingizda ko'mak beradi. Chunki siz darslik yordamida dastlab nazariy bilimlarga ega bo'lasiz, keyin mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalaringiz shakllanadi, so'ngra ijodiy faoliyatga doir savol va topshiriqlarni bajarib, fan bo'yicha belgilangan kompetensiyangiz rivojlanadi.

Yakuniy bosqichda esa nazorat ishi topshirasiz va har bir modul bo'yicha olgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakangiz baholanadi.

Ushbu darslik huquqiy bilimlaringizni mustahkamlashga, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo'lishingizga, o'zingiz yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o'z o'rningizni topishingizga ko'maklashadi.

Mualliflar jamoasi

I BOB. JAMIYAT VA INSON HUQUQLARI





1–2-DARS. JAMIYATDA INSON HUQUQLARINING O‘RNI

*Odamlarning inson huquqlarini rad etish
ularning insoniyligiga qarshi chiqishdir.*

Nelson Mandela



Siz bilib olasiz

“Jamiyat”, “shaxs” va “inson huquqlari” tushunchasi.
Inson manfaati va jamiyat manfaatining uyg‘unligi.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – inson huquqlari kafolati.

“JAMIYAT”, “SHAXS” VA “INSON HUQUQLARI” TUSHUNCHASI

Kundalik turmushda “jamiyatimizda ro‘y berayotgan voqealar”, “farovon jamiyat qurish”, “jamiyatimizning ma‘naviy ahvoli” kabi jummalarni juda ko‘p eshitgansiz. Xo‘sh, jamiyat nima o‘zi va uning mazkur bobdagi inson huquqlariga qanday aloqasi bor? “Jamiyat” tushunchasiga juda ko‘plab ta‘riflar berilgan. Chunki u juda ham keng va mavhum tushuncha. Shunday bo‘lsa-da, hozircha jamiyat deganda “ma‘lum bir hududda yashovchi, qadriyatlari, ular amal qiladigan qoidalar va an‘analari o‘xshash bo‘lgan hamda o‘zaro ehtiyoj va manfaatlari yo‘lida birlashgan insonlar guruhi” tushunilishini yodingizda saqlab qoling. Demak, ta‘rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, “jamiyat” tushunchasini tushunishda ikkita muhim belgini esdan chiqarmasligimiz lozim ekan. Birinchisi – unda “ko‘plab insonlarning mavjud bo‘lishi” va ikkinchisi – “insonlarning ma‘lum bir umumiy xususiyatga asoslanib birlashgani va yashayotgani”. Mana shu ikki belgi jamiyat ta‘rifining asosini tashkil qiladi. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, jamiyat shunchaki insonlar guruhi emas. Masalan, sizning oilangiz va yoningizdagi qo‘shningiz birgalikda jamiyat bo‘lib qolmay sizlar.



Yodda tuting

“Jamiyat” tushunchasi: ma‘lum bir hududda yashovchi, qadriyatlari, ular amal qiladigan qoidalar va an‘analari o‘xshash bo‘lgan hamda o‘zaro ehtiyoj va manfaatlari yo‘lida birlashgan insonlar guruhi.


“Jamiyat” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi: arabcha so‘z bo‘lib, *jamo*a, *jamlangan*, *birlashgan* degan ma‘nolarni anglatadi.

Yuqoridagi ta‘rifdan ham ko‘rinib turibdiki, jamiyat insonlarning katta bir guruhi ekan. Demak, jamiyatni kimlar tashkil etadi, deyilsa, albatta, insonlar, deb javob beriladi. Mana shu insonlar, ya‘ni jamiyatdagi shaxslar o‘zlari yashayotgan hududda turli vazifalarni bajaradilar. Masalan, kimdir shifokor, yana kimdir harbiy va yana kimdir dehqon sifatida mana shu jamiyatda o‘z funksiyasini bajaradi. Ammo shaxslarning nafaqat bajaradigan vazifalari, balki ularning tana tuzilishlari, qarashlari, tillari, malaka hamda bilimlari, dinlari va boshqa xususiyatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, O‘zbekistonda ham turli din



vakillari, turli tillarda soʻzlashuvchi millatlar va turli bilim hamda malakaga ega boʻlgan shaxslar istiqomat qiladilar. Mana shu kichik guruhlar birgalikda yirik bir jamiyatni tashkil etadi. Bu bugun siz va biz yashab turgan jamiyat boʻlib, unda barchamiz bir-birimizga turli xildagi xizmatlarni koʻrsatamiz va birgalikda farovon jamiyat qurish uchun intilamiz.

Jamiyatning qanday boʻlishi oʻsha jamiyatda yashovchi insonlarga bogʻliq (Quyidagi suratlardan ham xulosa chiqarib olishingiz mumkin)



Biroq biz erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda yashar ekanmiz, bir insonlar guruhining boshqalaridan turli jabhalarda ustun boʻlib ketishi ehtimoli ham yoʻq emas. Natijada ular tomonidan boshqa insonlar turli xil qiynoqlarga solinishi yoki ularning huquqlari toptalishi mumkin. Bu oʻz-oʻzidan jamiyatni tashkil etuvchi shaxslarning oʻzlari yashayotgan jamiyatda emin-erkin yashashdan mahrum boʻlishiga olib keladi. Bu kabi notenglik hamda insonlarning ijtimoiy hayotiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi holatlarning oldini olish davlatning zimmasidadir. Bunday davlat “ijtimoiy davlat” deb ataladi. Oʻzbekiston ham aynan ijtimoiy davlatlar qatoriga kiradi. Mazkur asosiy va oʻzgarmas tamoyil Konstitutsiyamizning 1-moddasida oʻz aksini topgan.

Ijtimoiy davlat deganda insonlarning farovon hayot kechirishlari uchun turmush sharoitlaridagi tabaqalanib ketishning oldini olishni maqsad qiladigan, bu yoʻlda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini turli sohalarda oʻz himoyasiga oladigan insonparvar davlat tushuniladi.

Bundan tashqari, baʼzan davlat yoki undagi hukumat oʻz fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklariga xiyonat qiladi. Tarixdan olgan bilimlaringizdan ham maʼlum, Gitler va uning tarafdorlari oʻzlarining jamiyatdagi ustun mavqeyidan foydalanib fashizmga asoslangan qarashlari bilan kam sonli millatlarni yoki aholining jismonan va aqlan kuchsiz boʻlgan juda katta qismini qirib yuborgan, ularning mulklarini tortib olgan edi.

Mana shu kabi holatlar yuzaga kelmasligi va jamiyatda insonlar emin-erkin yashay



olishlari uchun inson huquqlari ta'minlanishi lozim bo'ladi. Inson huquqlari muhim ekanligi haqidagi qarashlar qadimdan mavjud bo'lgan bo'lsa-da, biz yashab turgan zamonaviy davrda qaror topgan inson huquqlari asosan Ikkinchi jahon urushidan keyin shakllandi, deb aytishimiz mumkin. Xususan, 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi bunga yaqqol misoldir. Aynan mana shu deklaratsiya inson huquqlariga oid keyinchalik qabul qilingan ko'plab xalqaro shartnomalar, mintaqaviy shartnomalar hamda mamlakatlarining ichki qonunchiliklari uchun tamal toshini qo'yib berdi, deyish mumkin.

Xo'sh, inson huquqlari deganda nimani tushunish kerak? Yaxshilab o'ylab qaralsa, har qanday huquq insonga tegishli bo'ladi, shuning uchun barcha huquqlarni inson huquqlari deb atayveramizmi? Inson huquqlari deganda avvalo barcha insonlarning qadr-qimmatini tan oladigan va himoya qiladigan standartlar (mezonlar) tushuniladi. Inson huquqlari

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumidan lavha (2018-yil)



Yodda tuting

Inson huquqlari – bu barcha insonlarning qadr-qimmatini tan oladigan va himoya qiladigan standartlar (mezonlar) hisoblanadi. Inson huquqlari insonlarning jamiyatda va bir-biri bilan qanday yashashini, shuningdek, ularning davlat bilan munosabatlarini va davlatning ular oldidagi majburiyatlarini tartibga soladi.

insonlarning jamiyatda va bir-biri bilan qanday yashashini, shuningdek, ularning davlat bilan munosabatlarini va davlatning ular oldidagi majburiyatlarini tartibga soladi. Inson huquqlari insonlarning irqi, jinsi, millati, tili, dini yoki boshqa har qanday maqomidan qat'i nazar, barcha insonlarga tegishli bo'lgan huquqlardir.

Ammo, yuqorida aytib o'tganimizdek, jamiyat ma'lum bir o'xshash qadriyat, qoida va an'analar ostida birlashgan insonlar guruhidan tashkil topadi. Shuning uchun bir jamiyatda yuqori o'ringa qo'yiladigan qadriyat yana bir jamiyatda umuman qadrlanmasligi ham mumkin. Bu jamiyatlar bir-biridan farq qilar ekan,

demak, ularda himoya qilinadigan inson huquqlari ham bir-biridan farq qilishi mumkin. Ammo bu yerda bir masalani yaxshilab farqlab olish zarur. Davlat tomonidan beriladigan insonlarning asosiy huquq va erkinliklari hamda butun dunyodagi insonlarga bir xilda amal qiladigan inson huquqlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, inson huquqlari mutlaq hisoblanib, butun dunyoga bir xilda xalqaro huquq tomonidan taqdim etilsa, ma'lum bir davlat fuqarolariga tegishli bo'lgan insonlarning asosiy huquq va erkinliklari asosan o'sha davlatning konstitutsiyasiga asoslanadi hamda ular ma'lum bir cheklovlardan xoli emas.



Inson huquqlari



- Yer yuzidagi butun insoniyat uchun bir xilda amal qiladi.
- Xalqaro huquqdan kelib chiqadi va u tomonidan himoya qilinadi.
- Cheklanmaydi.

Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari



- Ma'lum bir davlat fuqarolariga ushbu davlat tomonidan taqdim etiladi.
- Asosan shu davlatning konstitutsiyasidan kelib chiqadi.
- Davlat xavfsizligi, favqulodda holatlar va boshqa shu kabi qoidalar bilan cheklovlarga uchraydi.

INSON MANFAATI VA JAMIYAT MANFAATINING UYG'UNLIGI

Ushbu bobdagi inson huquqlarini o'rganishda "inson manfaati" hamda "jamiyat manfaati" tushunchalarini anglab olish juda ham muhim. Chunki inson jamiyatdan alohida hayot kechira olmaydi. U doim biron-bir jamiyatning a'zosi bo'ladi. Ammo jamiyat a'zosi bo'lgan shaxsning manfaatlari ba'zida jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lsa, ba'zida bir-biriga zid kelib qoladi. Ya'ni biz faqat ma'lum bir shaxsning manfaatiga o'ylasak, jamiyatdagi boshqa insonlarning manfaatlariga putur yetib qolishi mumkin. Ammo faqatgina jamiyat manfaatini (ommaviy manfaatni) hisobga oladigan bo'lsak, ma'lum bir insonlarning manfaatlarini oyoqosti bo'lishi ehtimoli bor. Bu ularning inson huquqlari yoki davlat tomonidan ta'minlangan asosiy huquq va erkinliklari buzilishi mumkin deganidir.

Yolg'izlik halokatga olib keladi. Inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi. Jamoa a'zolarining barchasi uchun majburiy-huquqiy qonunlar zarur bo'ladi. Zero, inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin.

Abu Ali ibn Sino

Albatta, kelgusi hayotingizda siz ham o'z manfaatlaringiz jamiyat manfaatlariga zid kelib qoladigan holatlarga duch kelishingiz mumkin. Jamiyat manfaatlarini bu ommaning manfaatlarini deganidir. Keling, bunga bir qancha misollarni ko'rib chiqamiz. Masalan, bir kishi tamakini xohlagan joyida chekishni, yana boshqa bir kishi esa avtomobil xavfsizlik kamarini umuman taqmaslikni hamda avtomobilda o'tirgan boshqa yo'lovchilar ham buni so'ramasliklarini xohlashi mumkin. Bir qarashda "tamaki ham, avtomobil ham o'sha insonlarning mulki, ulardan qanday xohlasa, shunday foydalanaversin, ularda inson huquqlaridan biri bo'lmish mulkka bo'lgan huquq bor" deb o'ylashingiz mumkin. Ammo bu jamiyat manfaatlariga zid hisoblanadi va atrofdagilarga zarari tegishi mumkin. Shu sababli



davlat mazkur holatda jamiyat manfaatlari insonning shaxsiy manfaatlaridan ustun ekanini tan oladi. Konstitutsiyaning 66-moddasida ham “Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak” degan qoida bejiz oʻrnatilmagan. Yana boshqa bir misol sifatida koronavirus tarqashi natijasida yuzaga kelgan pandemiya davridagi holatni keltirishimiz mumkin. Pandemiya davrida barcha insonlardan tibbiy niqob taqish talab etildi. Ammo insonlarda jamiyatda erkin yashash huquqi bor. Buni bahona qilgan baʼzi insonlar pandemiya payti boʻlishiga qaramay, “meni tibbiy niqob taqishga majbur qilish – inson huquqlarining buzilishi”, degan gaplarni ham aytdi. Ammo pandemiya davrida tibbiy niqob taqishning talab qilinishi ham aslida jamiyat, yaʼni omma manfaatini oʻylab amalga oshirilganini inobatga oladigan boʻlsak, bu holatda ham jamiyat manfaatlari va baʼzi insonlarning shaxsiy manfaatlar oʻrtasida ziddiyat yuzaga kelganini hamda jamiyat manfaatlari ustun koʻrilganini kuzatishimiz mumkin.

Chekish mumkin boʻlmagan joylarda chekish jamiyat manfaatlariga zid.	Xavfsizlik kamaridan foydalanish ham siz uchun, ham atrofingizdagilar uchun foydali.	Pandemiya davrida niqob taqish sizga yoqmasa-da, jamiyat manfaatlari uchun muhim va foydali.
		

Jamiyat manfaati, ommaning manfaati deb inson huquqlarini cheklayverish ham yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Masalan, natsist Germaniyasi fashistik qarashlarini oʻtkazishda aynan “jamiyat manfaatlari va uning farovonligi insonlarning shaxsiy manfaatlaridan har doim ustun turadi” degan tushunchadan foydalangan va natijada koʻplab insonlarning huquq va manfaatlar toptalganiga tarix guvoh. Shu oʻrinda “Insonlarning shaxsiy manfaatlar jamiyat yoki jamoa manfaatlaridan ustun keladigan holatlar ham bormi?” degan savol tugʻilishi tabiiy. Masalan, kamsitish bilan bogʻliq holatlarda hech qanday jamiyat yoki jamoat manfaati degan masalaga oʻrin yoʻq. Yaʼni biror shaxsning tana rangi boshqacha boʻlsa yoki millati boshqa boʻlsa, bu jamoamizning, jamiyatimizning yoki biz yashayotgan hududning anʼanalariga, manfaatlariga zid deb kamsitishga aslo yoʻl qoʻyilmaydi. Quyida inson manfaati jamiyat manfaatidan yuqori oʻringa qoʻyilgan Germaniyada yuz bergan ishni eʼtiboringizga havola etamiz. Oʻqing va xulosa chiqaring.

Germaniya Frankfurt ishi

2001-yil 11-sentyabrda AQSHda mudhish terrorchilik harakati sodir etildi. Keyinchalik Germaniyada ham deyarli shunga oʻxshash qoʻporuvchilik harakati sodir etilishi xavfi yuzaga keldi. 2003-yil 5-yanvarda havo kemasi Frankfurtdagi binoga urilishi mumkin



bo'lgan hodisa ko'plab nemislarni xavotirga solib qo'ydi. Ushbu hodisa AQSHdagi kabi talafotlar keltirib chiqara olmadi. Biroq Germaniyada mazkur voqea "Havo kemalari bo'yicha xavfsizlik to'g'risida"gi qonunni qabul qilish bo'yicha harakatlarga turtki berdi. Mazkur qonunga ko'ra, Germaniya qurolli kuchlari terroristlar tomonidan qo'lga olingan (o'g'irlangan) deya ishonilgan har qanday fuqaro aviatsiyasini (siz bilgan fuqarolar-



2001-yil 11-sentyabr kuni terroristlar qo'lga olgan samolyotlar kelib urilishi natijasida portlagan Jahon savdo markazining egizak binolari

ga xizmat ko'rsatuvchi havo kemasi nazarda tutilmoqda), uning ichida qanday va qancha odam bo'lishidan qat'i nazar, urib tushirish huquqiga ega edi. Masalan, birorta fuqaro aviatsiyasi terrorchilar tomonidan egallanib, Germaniyadagi biror katta binoga borib urilsa, havo kemasining ichidagilar ham, binodagilar ham halok bo'ladi. Bu ko'pchilikning hayotini saqlab qolish uchun ba'zi odamlarni qurbon qilish mumkin degan mantiqqa asoslangan qonun edi. Bir qancha keskin tortishuvlardan so'ng Germaniya parlamenti mazkur qonunni tasdiqladi

(2004-yil 24-sentyabr). Ammo bu qonunga qarshi bo'lgan bir qancha siyosatchilar hamda inson huquqlari jonkuyarlari, uchuvchilar uyushmalari mazkur qonunning konstitutsiyaga zidligini ta'kidlab, Germaniya Federativ Respublikasi konstitutsiyaviy sudiga da'vo bilan chiqdilar. Konstitutsiyaviy sud ushbu qonun konstitutsiyaga zid bo'lgani bois bekor qilinishi zarurligi to'g'risida qaror chiqardi. Chunki konstitutsiyada "Har bir shaxs yashash huquqiga ega" degan qoida mavjud edi. Shu sababli sud "Ko'pchilikning hayotini saqlab qolish uchun kamchilikni qurbon qilish kerak" degan mazmundagi qonun normasini konstitutsiyaga mos emas deb hisobladi.

Germaniya konstitutsiyaviy sudi raisi: "Har bir insonning insoniy qadr-qimmatiga bo'lgan huquqi mustahkam tarzda himoya qilinadi va uning buzilishiga yo'l qo'yilmaydi", deya ta'kidladi.

Aziz o'quvchilar, Germaniya konstitutsiyaviy sudi chiqargan qaror haqida qanday fikrdasizlar?





Demak, baʼzida insonlarning shaxsiy manfaatlari, baʼzida esa omma hamda jamiyat manfaatlari biri ikkinchisidan yuqori oʻringa qoʻyilar ekan. Ular oʻrtasida ziddiyatlar yuzaga kelganda esa uni adolat bilan hal etishgina bizni farovon jamiyat sari yetaklashi mumkin. Ha, aynan adolat bilan hal etilgandagina biz inson manfaatlari hamda jamiyat manfaatlarining uygʻunlashuviga erishamiz. Shuning uchun ham konstitutsiyamiz muqaddimasida har birimiz adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak masʼuliyatni anglashimiz muhimligi taʼkidlangan.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – INSON HUQUQLARI KAFOLATI

Zamonaviy davlatlarning deyarli barchasida inson huquqlari konstitutsiyaning yuragini tashkil etadi, deb ayta olamiz. Zamonaviy konstitutsiyalarning asosiy vazifalaridan biri ham aynan inson huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasining bosh qomusi hisoblanmish konstitutsiyamiz ham xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan inson huquqlarini oʻzida aks ettiradi va ularni juda ham yuqori darajada himoya qiladi.

Konstitutsiyaning butun boshli II boʻlimi aynan inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgani ham bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Ushbu bobda faqatgina eng asosiy moddalargagina toʻxtalib oʻtamiz. Avvalo, Konstitutsiyaning 19-moddasida Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekani, shuningdek, ular jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qatʼi nazar, qonun oldida teng ekani taʼkidlanadi. Bu bilan Konstitutsiyamiz asosiy inson huquqlaridan biri boʻlgan tenglik va kamsitilmaslik huquqini himoya qiladi.

Inson huquqlariga doir yana bir eng muhim modda 25-modda boʻlib, unda insonning yashash huquqi haqida soʻz ketadi. Yashash huquqi insonning dunyoga kelgandan toʻvafot etgunga qadar ajralmas huquqi boʻlib, undan mahrum qilishga hech kimning haqqi yoʻq. Konstitutsiya insonning hayotiga suiqasd qilishni eng ogʻir jinoyat deb baholashi bilan mazkur huquqning naqadar muhim ekaniga urgʻu beradi.

Konstitutsiyaning 33-moddasi dunyo miqyosida alohida eʼtirof etiladigan va koʻplab muhokamalarga sabab boʻladigan fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligi huquqini belgilab beradi. Konstitutsiya bu bilan bizga oʻz fikrlarimizni hech qanday majburlorlar yoki cheklovlarisiz erkin ifoda etishimiz mumkinligini koʻrsatadi. Bu huquqlar bizning hayotimizda naqadar



2023-yil 30-apreldagi Oʻzbekiston Respublikasi referendumi arafasida oʻtkazilgan “Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya oʻzimizniki” shiori ostidagi targʻibot tadbiridan lavha.



muhim ekanini ular mavjud bo'lmagan holatni tasavvur qilib ko'rib, yanada yaxshiroq tushunib yetamiz. Faraz qiling, siz o'z uyingiz atrofidagi daraxtlarning ko'p kesilayotgani haqida gapirmoqchi bo'lsangiz va buning noto'g'riligini aytmoqchi bo'lsangiz-u, kimdir kelib: "Men falon joyda ishlayman, bu haqida gapirishing, fikr bildirishing mumkin emas" desa. Yoki sizni kimdir yoniga chaqirib: "Men falon mansabda ishlayman, sen mana bu ishni qilasan!" deb majburlasa. Qanday holatga tushasiz? Mana shu kabi razil holatlarning ro'y bermasligini aynan ushbu huquq ta'minlaydi. Lekin mazkur huquqqa oid ba'zi istisno holatlarni ham esdan chiqarmasligimiz lozim. Ya'ni gapirish ekan deb mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi bo'lmag'ur gaplarni aytish, diniy adovat qo'zg'atuvchi so'zlarni aytish, davlat sirlarini oshkor qilish mumkin emas. Chunki bu kabi harakatlar bilan siz mamlakatimizga va uning tinchligiga raxna solib qo'yishingiz mumkin.

Yana bir qancha inson huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlangan. Mazkur huquqlar buziladigan bo'lsa, davlat o'zining turli funksiyalarini ishga solgan holda ularni himoya qiladi. Xususan, konstitutsiyamizda ham "Davlat fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" degan qoida mavjud. Bu inson huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi deganidir. Xo'sh, bu qanday amalga oshirilishi mumkin? Bunga klassik misol – sudlar orqali. Ya'ni inson huquqlari buzilganda siz mamlakatimizdagi vakolatli sudga murojaat qilishingiz va sudlar orqali adolat o'rnatilishini talab qilishingiz mumkin bo'ladi. Masalan, A ismli yigit B ismli yigitni qattiq urishi natijasida B ismli yigitning ko'ziga shikast yetib, u ko'rmay qoldi deb faraz qilaylik. Ushbu holatda B ismli yigit A ismli yigitning ustidan Jinoyat ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishi mumkin. Yoki D ismli ayol istiqomat qilayotgan turarjoy hokimiyat tomonidan olib qo'yilsa, u Ma'muriy sudga shikoyat qilishi mumkin bo'ladi. Sud esa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llagan holda adolatni qaror toptirish vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, yana bir qancha usullar orqali davlat konstitutsiyada belgilangan inson huquqlarini himoya qiladi. Bu haqida batafsil keyingi darslarimizda to'xtalib o'tamiz.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, konstitutsiyada inson huquqlari yuqori darajada himoya qilingan va bu huquqlarni ta'minlashni davlat o'z zimmasiga olgan jamiyatda yashayotgan ekanmiz, jamiyatimizda inson huquqlarining o'rni yuqori darajada bo'lib, ularni barcha birdek, ya'ni qanday mansabda ishlashi, boy yoki kambag'alligidan qat'i nazar, hurmat qilishi lozim.



Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, inson jamiyatdan ajralgan holda yashay oladimi?
2. Inson huquqlari deganda qanday huquqlarni tushunasiz?
3. Biror shaxsning manfaati hamda jamiyat (omma) manfaati bir-biriga zid kelib qolganda nima qilish kerak deb hisoblaysiz?
4. Har doim jamiyatning umumiy manfaatlari insonlarning shaxsiy manfaatlaridan ustun turishi kerak degan fikrdamisiz yoki buning aksimi?
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqlari qanday asosiy qoidalar bilan mustahkamlab qo'yilgan?
5. Har bir shaxs boshqa kishilarning huquqlarini nima uchun hurmat qilishi kerak?



3–4-DARS. JAMIYATDA SHAXSNING HUQUQIY MAQOMI

Hayotning yagona mazmuni insoniyatga xizmat qilishdir.

Lev Tolstoy



Siz bilib olasiz

Shaxsning huquqiy maqomi (holati).

Tenghuquqlik.

Gender tenglik.

Zo'ravonlikning oldini olish.

SHAXSNING HUQUQIY MAQOMI (HOLATI)

Oldingi darsda insonning jamiyatdagi o'rnini va uning asosiy huquqlari haqida so'z yuritdik. Ushbu darsimizda esa avvalgi darsdagi ba'zi muhim masalalarga chuqurroq kirib, ularni anglab olishga harakat qilamiz. Ushbu darsda shaxsning huquqiy maqomi haqida so'z yuritiladi. Shaxsning huquqiy maqomi masalasi bugun har bir mamlakatning konstitutsiyasidan muhim o'rin egallagan va inson huquqlari bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu darsda asosan "shaxs" so'zi ishlatilsa-da, uni inson degan ma'noda tushunsangiz bo'ladi.

Shaxsning jamiyatdagi huquqiy maqomi unga taqdim etilgan huquq va erkinliklar hamda uning burchlari yig'indisi hisoblanadi. Xo'sh, ushbu shaxsning huquqiy maqomini bilish bizga nima uchun kerak? Biz shaxsning huquqiy maqomini bilish orqali uning qanday huquqlarga ega va yana qanday huquqlarga ega emasligini bilib olishimiz mumkin bo'ladi.

Shaxsning huquqiy maqomi deganda shaxsning huquqlari, erkinliklari, burchlari yig'indisi tushuniladi.

O. T. Husanov

O'zbekiston fan arbobi, yuridik fanlari doktori, professor

Konstitutsiyamizning shaxsning huquqiy maqomiga oid eng muhim moddasi – 19-moddasida, avvalgi darsimizda ham aytib o'tganimizdek, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekani, ular jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekani ta'kidlanadi. Bu yerda bir narsaga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu moddadagi "fuqarolar" so'zini tor doirada tushunib qolmaslik lozim. Ushbu holatda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet elliklar ham nazarda tutilmoqda. Demak, bu moddadan barchamiz mamlakatimizdagi qonunlar oldida teng ekanimizni anglab olishimiz kerak. Ya'ni siz turkman bo'lasizmi, o'zbekmi, rusmi, qoraqalpoqmi, qozoqmi, tojikmi yoki boshqa millat vakilimi – farqi yo'q. O'zbekistonlikmisiz, demak, bir xil huquqlarga egasiz, deyilmoqda. Ammo ushbu moddaning istisno bandi ham mavjud bo'lib, u ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslangan holda imtiyozlar berilishini aytadi. Ammo bu ham ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslanilgani bois kimgadir uning tili yoki dini kabilarga qarab emas, balki iqtisodiy jihatdan zaif ekani yoki jismoniy hamda ruhiy holatlari hisobga olingan holda imtiyoz taqdim etilishi mumkin. Shu sababli, masalan, nogironligi bo'lgan qo'shningiz siz to'layotgan biror soliqni to'lamayotgan va unga davlat imtiyoz


A line of Russian soldiers in ceremonial uniforms, including fur hats and long dark coats with yellow braiding, standing at attention in a formation.




1960-yillarda AQSHdagi notenglikka bir misol.

1960-yil Italiyada o'tkazilgan Rim olimpiadasida chempionlikni qo'lga kiritgan va AQSH bayrog'ini dunyo bo'ylab yuqoriga ko'targan mashhur bokschi Muhammad Ali chempionlikdan keyin AQSHdagi yaxshi bir restoranga tamaddi qilish uchun kiradi. Ammo restoran xodimlari oq tanli bo'lmagani uchun unga xizmat ko'rsatishdan bosh tortishadi.

Bu haqda bokschining o'zi intervyularidan birida eslab o'tgan.



Mamlakatimizda, bundan avvalgi darsimizda ham aytib o'tganimizdek, tenghuquqlik konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Tenghuquqlik ijtimoiy hayotimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Oilaviy hayotda, ta'limda, ish faoliyatida tenghuquqlikka amal qilib kelinmoqda.



Yodda tuting

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt

2-modda. Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o'z hududida turgan va o'z yurisdiksiyasi ostida bo'lgan barcha shaxslarning ushbu Paktda e'tirof etilgan huquqlarini hech bir ayirmachiliksiz, jumladan, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodidan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki o'zga holatidan qat'i nazar, hurmat qilish va ta'minlash majburiyatini oladi.


Tenghuquqlikni tushunishda "tenglik" so'zini asos qilib olish lozim. Chunki konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanadigan huquqlar va imkoniyatlar teng taqdim etilishi kerak. Masalan, saylov huquqiga ko'ra, har bir fuqaro bitta ovozga ega bo'ladi. Kimningdir ijtimoiy kelib chiqishiga qarab unga ko'proq imtiyoz berilmaydi.

Shu yerda "adolat" tushunchasiga ham oydinlik kiritib o'tishimiz lozim. Chunki ko'pchilik "tenglik" tushunchasini "adolat" tushunchasi bilan chalkashtirib yuboradi. Biroq ular bir-biridan birmuncha farq qiluvchi tushunchalardir. Masalan, tenglik har bir shaxs o'z hayotini qurishi va o'z qobiliyatlaridan maksimal darajada foydalanishi uchun unga teng imkoniyatlar hamda huquqlar berilishini anglatadi. Adolat esa ijtimoiy-falsafiy va axloqqa oid tushuncha bo'lib, biror masalaga nisbatan insonning har tomonlama odilona munosabatda bo'lishidir.



Hamma masalalarda tenglikka amal qilinsa va adolat unutib qo'yilsa, natija salbiy bo'lishi mumkin. Masalan, davlat tomonidan qurilayotgan yangi uy-joylarni berishda iqtisodiy jihatdan qiynalgan oilalarga alohida e'tibor qaratilmasa, daromadi yuqori bo'lgan qatlam 2–3 tadan qilib barcha uylarni sotib olishi va natijada aholining iqtisodiy zaif qatlami uysiz qolib ketishi mumkin. Yoki daromad solig'ini undirishda “oylik maoshi qancha bo'lishidan qat'i nazar, barcha 1.000.000 so'mdan soliq to'lasin, shunda tenglik bo'ladi” deyish juda ham noto'g'ri. Ushbu holatda ham tenglik mavjud bo'lsa-da, adolat mavjud emas. Bu aholining daromadi yuqori bo'lgan qatlami boyigan sari boyib, oylik maoshi kam bo'lganlar esa yanada kambag'allashib borishiga olib keladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda daromadi yuqori bo'lganlar ko'proq daromad solig'i, daromadi kam bo'lgan insonlar esa kamroq daromad solig'i to'laydilar va bu adolatdandir.

Keling, oddiy maktab hayotidan misol olaylik. 10-sinf o'quvchilari 11 kishidan bo'lib ikki jamoaga bo'linishdi. Ammo barcha futbolni yaxshi o'ynaydigan va kuchli o'quvchilar bir jamoa bo'lib olishdi. Bu yerda o'quvchilarning soni teng, yoshi teng, ammo o'yin adolatli bo'lmasligi aniq. Shu sababli tenghuquqlik haqida gap ketganda faqatgina tenglikning o'zigagina emas, balki adolatga ham asoslanish lozim. Zero, tenglik va adolat bir-biri bilan chambarchaslikda bo'lmas ekan, erishiladigan natija insonlar uchun foydali bo'lmasligi ehtimoli yuqori.



GENDER TENGLIK

Darsimizning avvalgi qismida tenghuquqlik hamda uning asosida yotuvchi tenglik g'oyasi haqida tushuntirib o'tgan edik. Ushbu qismda mamlakatimizda katta e'tibor qaratilayotgan tenglikning eng asosiy turi – gender tenglik haqida so'z yuritamiz. Gender tenglik deganda insonlarga jinsidan qat'i nazar, bir xil huquq, erkinlik va imkoniyatlarning taqdim etilishi, iqtisodiy faoliyatda hamda qarorlar qabul qilishda tenglikning yaratilishi kabilar tushuniladi. Bir so'z bilan aytganda, jamiyatda erkaklar hamda ayollarning teng bo'lishidir.

“Gender tenglik masalasiga alohida e'tibor qaratishning nima keragi bor?” degan savol paydo bo'lishi mumkin. Bugungi bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda gender tenglikka alohida e'tibor qaratilmasa, bundan yarim asr avval bozor iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlardagi ba'zi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, o'tgan asrda G'arb mamlakatlarida ishga olishda ayol kishining iste'dodi yuqori bo'lsa-da, erkaklarni ustun ko'rish yoki ular bir xil soat ishlasalar ham, erkaklarga ko'proq maosh to'lash hollari mavjud bo'lgan. Shuning uchun ham nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda ayollar va erkaklarning tenghuquqliligi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.



Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar” deb belgilangani bunga yaqqol misoldir. Demak, insonlar qaysi jinsda tug'ilishidan qat'i nazar, teng bo'lib tug'iladilar, shuning uchun ularga teng huquq va imkoniyatlar berilishi lozim.

Mamlakatimiz konstitutsiyasining 58-moddasida ham gender tenglik mustahkamlangan. Bundan tashqari, Oila kodeksi va “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonun kabilarda ham erkak va ayollarning tenghuquqligi, ushbu tenghuquqlik oilaviy munosabatlarda ham, ijtimoiy hayotda ham ta'minlanishi nazarda tutilgan. Ammo gender tenglik ham jamiyat va davlatlardagi urf-odatlar hamda qadriyatlarga qarab mazmunan farq qiladi. Ya'ni bu qoidaning ham o'ziga xos istisnolari mavjud. Ba'zi masalalar borki, unda ayollarning jismoniy holati va boshqa jihatlar hisobga olinishi kerak bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda muddatli harbiy xizmatni o'tash, xotin-qizlar va erkaklar mehnatini muhofaza qilish yoki xotin-qizlar reproduktiv salomatligini saqlash kabi masalalarda notenglik mavjudga o'xshab ko'rinsa-da, aslida bu erkaklar va ayollarning jismoniy holatlariga qarab amalga kiritilgan tizimlardir. Bu kabilarning mavjud bo'lishi bizning jamiyatimizda notenglik, ya'ni kamsitish (diskriminatsiya) hisoblanmaydi. Ammo boshqa mamlakatlarda, masalan, Norvegiya va Isroilda ayollar ham muddatli harbiy xizmatni o'tashga majbur. Chunki ushbu davlatlardagi jamiyatlarda muddatli harbiy xizmatni ayollar ham, erkaklar ham o'tashi gender tenglikning bir qismi sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gender tenglik inson huquqlarining erkaklar va ayollarga teng imkoniyatlar beruvchi, jamiyatda ulardan birining kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlovchi hamda jamiyatlardagi urf-odat, qadriyatlarga qarab mazmunan farq qiluvchi ajralmas tamoyili ekan.

ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISH

Birinchi va ikkinchi darslarimizda guvohi bo'ldikki, inson huquqlari va uning tarkibiga kiruvchi tenghuquqlik, gender tenglik kabi tamoyillar xalqaro miqyosda ham, mamlakatimizda ham yuqori darajada hurmat qilinadi va davlat tomonidan himoyasi ta'minlangan ekan. Shunga qaramasdan, jamiyatimizda “zo'ravonlik” deya atalmish illat hali-hanuzgacha ko'zga tashlanib turibdi. Bu illatni biz oilalarda, maktablarda va ko'cha-ko'ya tez-tez uchratishimiz mumkin. Xo'sh, zo'ravonlik o'zi nima va u inson huquqlariga qanchalik yomon ta'sir qiladi? Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti zo'ravonlik jismoniy kuch ishlatish yoki tahdid qilish orqali amalga oshirilishi va buning natijasida shaxs o'ziga yoki boshqalarga ham jismoniy, ham ruhiy zarar yetkazishi mumkinligini aytadi. Demak, u biz



Zo'rvonlik shaxs o'ziga, boshqa shaxsga yoki biror guruh yoxud jamoaga nisbatan qasddan jismoniy kuch ishlatish yoki qo'rqitishdan foydalanishidir. Uning jismoniy hamda ruhiy jarohatlar, o'lim, ruhiy rivojlanishning buzilishi kabi holatlarga olib kelish ehtimoli yuqori.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti

inson huquqlari sifatida hurmat qiladigan yashash huquqidan yoki erkin hayot kechirish kabi bir qancha huquqlardan insonlarni mahrum qilishi mumkin.

Shunday qilib, zo'rvonlikni inson o'ziga, boshqa insonga yoki jamoalarga nisbatan amalga oshirishi mumkin ekan. Insonning o'ziga nisbatan amalga oshiradigan zo'rvonligi, biroz g'alati eshitilsa-da, bu u o'zini tinmay ayblashi, har narsaga aybdorman, deb qarashida namoyon bo'ladi. Bu ham juda yomon oqibatlarga olib keladi. Xususan, Yaponiyada aynan mana shu kabi sabablarga ko'ra o'z joniga qasd qilish hollari ko'p uchraydi va bu muammo jamiyatni o'ylantirib kelmoqda. Boshqa insonga nisbatan zo'rvonlikka misol qilib maktablarda uchrab turadigan yoki oilalardagi er-xotinlarning o'zaro bir-birlariga nisbatan zo'rvonliklarini keltirishimiz mumkin. Masalan, o'quvchilarning jismoniy jihatdan kuchsizroq o'quvchiga jismoniy kuch ishlatishi yoki uni turli xil so'zlar bilan kalaka qilishi, ya'ni ruhiy jihatdan zo'rvonlik qilishidir. Har bir bola hech qanday qo'rquvsiz va emin-erkin maktabga borish hamda ta'lim olish huquqiga ega ekanini hisobga olsak, bu kabi zo'rvonlikka qo'l uradigan o'quvchilar inson huquqlari, insoniylik, qadriyat hamda etikani oyoqosti qiluvchi kimsalardir. Shuningdek, ular qanday kiyimda bo'lmasin, o'zini qanday tutmasin, boshqa o'quvchilarga nisbatan zo'rvonlik qilyaptimi, demak, ularda na madaniyat va na oliyanoblik xislati mavjud.


Bir shaxsning boshqa shaxsga nisbatan zo'rvonlik qilishiga er-xotinning bir-biriga zo'rvonlik qilishini ham misol keltirishimiz mumkin. Jamiyatimizda erkaklarning ayollarga zo'rvonligi tez-tez uchrab turadi. Ba'zi boshqa jamiyatlarda esa buning teskarisiga guvoh bo'lish mumkin. Ammo har qaysisi ham jamiyatning asosiy ildizi hisoblanmish oilaga nisbatan jiddiy zarar yetkazishi aniq.

Zo'rvonlikka uchraganda yoki unga guvoh bo'lganda jamiyatning a'zosi va mamlakat fuqarosi sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish eng ma'qul yo'ldir. Ushbu yo'l eng madaniy va sivilizatsiyalashgan jamiyatning a'zosi tanlaydigan usuldir. Ba'zilar mana shu kabi holatlarda barcha narsani o'zi hal qilishga urinadi. Albatta, ba'zida bu samara berishi ham mumkin, ammo muammoni yanada kattalashtirib yuborish ehtimoli ham yuqori. Shuning uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish ham samarali, ham davlat idoralari xizmatidan yetarli darajada foydalanish madaniyatini oshiradi. Zero, "xalq davlat idoralarga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi zarur"ligini mamlakatimiz Prezidenti ham bot-bot ta'kidlab kelmoqdalar. Demak, zo'rvonlik holatlarini bartaraf etish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar madadiga tayanish eng oqilona qaror bo'lar ekan.



Davlat idoralarining xalqqa xizmat qilishi ortida yotuvchi mantiq

Ushbu mantiq juda ham oddiy. Davlat byudjeti asosan xalq tomonidan to'lanadigan soliqlar hisobiga shakllanadi. Ana o'sha shakllangan byudjetdan davlat xizmatchilariga maosh tayinlanadi. Demak, davlat xizmatchilari olayotgan maoshning manbasi xalq to'lagan soliqlar ekan. Bundan kelib chiqadiki, davlat xizmatchilari mana shu xalq uchun beminnat va sifatli xizmatni ko'rsatishlari kerak.



Savol va topshiriqlar

1. Shaxsning jamiyatdagi huquqiy maqomi uning hayotiga qanday ta'sir etadi?
2. "Tenglik" va "adolat" tushunchalarining o'xshash va bir-biridan farq qiluvchi jihatlari haqida fikr yuriting.
3. Zamonaviy jamiyatdagi gender tengligi fuqarolar ijtimoiy farovonligining asosi hisoblanadi. Fikringizni asoslang, misollar keltiring va umumlashtiring.
4. Xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini mustahkamlashga doir olib borilayotgan ishlar haqida nimalarni bilasiz?
5. Siz zo'ravonlik qurboniga aylanmasligingiz uchun nimalarni bilishingiz kerak?



5-DARS. INSON HUQUQLARI VA HUQUQ USTUVORLIGI

*Haqiqat havoga o'xshaydi. Rangini ko'rmaysiz.
Ovozini eshitmaysiz. Hidini bilmaysiz...
Ammo bir lahza havosiz qolsangiz, bo'g'ilib ketasiz.
Jaloliddin Rumi*



Siz bilib olasiz

“Huquq ustuvorligi” tushunchasi.

Huquq ustuvorligi – inson huquqlarini ta'minlashning garovi.

Inson huquqlari madaniyati.

“HUQUQ USTUVORLIGI” TUSHUNCHASI

Mamlakat taraqqiyoti va aholi farovonligining muhim kafolatlaridan biri jamiyatda huquq ustuvorligining ta'minlangani hisoblanadi. Shu o'rinda “huquq ustuvorligi” va “qonun ustuvorligi” tushunchalarining mazmunini aniqlashtirib olishimiz lozim.

Qonun ustuvorligi deganda barcha qonunosti va huquqni qo'llash hujjatlari qonunga muvofiq bo'lishi va unga zid bo'lmasligi nazarda tutiladi. Masalan, tuman yoki viloyat hokimi chiqargan qaror mamlakat konstitutsiyasi va qonunlari talablariga zid bo'lmasligi lozimligi qonunning ustuvorligini namoyon qiladi. Huquq ustuvorligi esa barcha normativ-huquqiy hujjatlar (shu jumladan, konstitutsiya va qonunlar) va davlat hokimiyatining (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) barcha faoliyati inson huquqlari, uning qadr-qimmati va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi lozimligini talab qiladi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, qonun ustuvorligi huquq ustuvorligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Qonun ustuvorligi haqida mulohaza yuritganda davlat har qanday qonunni qabul qilishi mumkinligini e'tiborga olish kerak. Ba'zida bunday qonunlar osonlik bilan o'zgartirilishi, ba'zida esa mazkur qonunlarning normalari bir-biriga zid kelib qolishi mumkin. Huquq ustuvorligi esa qonundan ustun bo'lgan tamoyillarning amalda bo'lishini talab qiladi va davlat organlari yoki mansabdor shaxslarining o'zboshimchaligidan insonlarni himoya qilgan holda davlatning irodasini cheklashi mumkin.

Bugungi kunda huquq ustuvorligi g'oyasi alohida bir davlat organi yoki mansabdor shaxs qonundan ustun bo'lmasligini, nihoyatda keng vakolatlarga ega bo'lmasligini va o'zboshimchalikka yo'l qo'yilmasligini nazarda tutadi. Huquq ustuvorligi mamlakatda qabul qilinayotgan qonun-qoidalar rasman e'lon qilinishini va qo'llashda barqaror bo'lishini, shuningdek, sud tizimining ochiqqligini hamda sudyalarning o'z qarorlarini faqat dalillar va qonunga asoslanib chiqarishi uchun qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatidan mustaqil bo'lishini talab qiladi. Yana bir muhim jihati, jamiyat a'zolari o'zlarining xatti-harakatlarini tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqish va ularga o'zgartirish kiritishda ishtirok etish imkoniga ega bo'lishi lozim.



Yodda tuting

Huquq ustuvorligi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini qo'llab-quvvatlaydigan, davlat boshqaruvi o'zboshimchalik bilan amalga oshirilmasligini kafolatlaydigan, umuman olganda, hokimiyatdan o'zboshimchalik bilan foydalanilishining oldini oluvchi mexanizm, jarayon, institut, amaliyot yoki norma hisoblanadi.



BMT Bosh kotibining 2004-yilgi ma’ruzasida huquq ustuvorligiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Huquq ustuvorligi boshqaruvning shunday tamoyiligi, unga ko’ra barcha shaxslar, muassasalar va tuzilmalar (davlatga tegishli va xususiy), shu jumladan, davlatning o’zi ham ommaviy ravishda qabul qilingan, teng darajada ijro qilinadigan, sud organlari tomonidan mustaqil amalga oshiriladigan va inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalar va standartlarga muvofiq bo’lgan qonunlarga bo’ysungan holda harakat qiladi”.

Huquq ustuvorligi qonunlarning yaratilishi, ularning qo’llanishi va huquqiy normalar o’rtasidagi munosabatlarning o’zi ham qonun bilan tartibga solinar ekan, demak, hech kim, shu jumladan, eng yuqori mansabdagi shaxs ham qonundan ustun bo’lmasligi lozimligini nazarda tutadi.

Hukmdorlikning yuridik jihatdan cheklanishi shuni anglatadiki, hukumat oddiy fuqarolar singari amaldagi qonunlarga bo’ysunadi. Shunday qilib, qonun oldidagi tenglik g’oyasiga ko’ra, hech bir shaxs – u xoh davlat rahbari, xoh yuqori mansabdagi shaxs bo’lsin – mutlaq daxlsizlik va imtiyozlardan foydalanmasligi hamda sodir etgan xatti-harakatlari uchun huquqiy sanksiyalar (javobgarlik)dan ozod qilinmasligi kerak.

Shuningdek, turli mansabdor shaxslar tomonidan huquqiy normalarning qo’llanishi va ko’rib chiqilishi nizo tomonlarining darajasi, mavqeyi yoki hokimiyat vakolatlariga egaligidan qat’i nazar, xolis va izchil bo’lishi shart.

Huquq ustuvorligi qonunlarning qabul qilinishi, qo’llanishi, jamiyatda qanday amalda bo’lishi kabi muhim talablardan tashqari qonunning o’zi ham ma’lum sifatlariga, mazmunga va xususiyatlarga ega bo’lishini nazarda tutadi. Xususan, qonunlar ochiq e’lon qilinishi, aniq, bir xilda tushunilishi, qo’llashda barcha uchun bir xil va tushunarli bo’lishi lozim.

HUQUQ USTUVORLIGI

Barcha odamlar quyidagi tamoyillarga rioya qilgan holda adolatli qonunlar bilan boshqarilishi kerak:



Huquq ustuvorligini xabardor va faol fuqarolar qo'llab-quvvatlashi kerak.



HUQUQ USTUVORLIGI – INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING GAROVI


Jamiyatda inson huquqlarining himoyasi ta'minlanmasa, huquq ustuvorligini ta'minlash imkonsiz, inson huquqlarini samarali himoya qilishni huquq ustuvorligisiz ta'minlab bo'lmaydi. Huquq ustuvorligi inson huquqlari tamoyilini hayotga joriy qilishga ko'maklashuvchi mexanizmdir. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat. Huquq ustuvorligini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni milliy konstitutsiyalar, qonunlar va qoidalarda mustahkamlash bo'yicha ishlarning ajralmas elementi hisoblanadi. Agar huquqlar qonun bilan muhofaza qilinsa yoki boshqa huquqiy himoya vositalari bilan ta'minlansa, huquq ustuvorligi bunday huquqlarga rioya qilinmayotgan hollarda huquqiy yordam vositalarini taqdim qiladi.

Huquq ustuvorligi va inson huquqlari insonning munosib sharoitlarda yashash erkinligi tamoyilining ikki jihatini aks ettiradi. Shunga ko'ra, huquq ustuvorligi va inson huquqlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bunday bog'liqlik davlatlar tomonidan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinayotgandayoq tan olingan bo'lib, mazkur hujjatda "inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur" ekanligi qayd etilgan.

O'zbekistonda huquq ustuvorligini ta'minlash, xususan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, davlat xizmatlaridan foydalanish sifatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimidagi o'zgarishlar birinchi navbatda inson huquqlarini himoya qilishda sifat o'zgarishlariga erishishga yo'naltirilgandir.

Jahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project) e'lon qilgan Huquq ustuvorligi indeksining 2021-yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekiston ushbu indeksda 14 pog'onaga ko'tarilib, eng yaxshi natija ko'rsatgan mamlakatdan biriga aylandi.

2015–2022-yillarda huquq ustuvorligi bo'yicha foizlardagi o'zgarishlar





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida huquq ustuvorligini ta'minlash holatini aniqlashning samarali mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4951-son qarori bilan hududlarning huquq ustuvorligi indeksi aniqlanishi belgilandi.

Hududlarning huquq ustuvorligi indeksi aniqlanadigan asosiy yo'nalishlar



INSON HUQUQLARI MADANIYATI

Mamlakatda qabul qilinadigan qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda insonning turli tuman huquqlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab qoidalarining mustahkamlab qo'yilishi har doim ham uni kafolatli ta'minlash garovi bo'lolmaydi. Huquqiy qoidalarining samarali ijro qilinishi avvalambor har bir shaxsning mazkur qoidalar mazmunini bilishi, jamiyatlardagi boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishi, shuningdek, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida ko'nikma va tajribaga ega bo'lishiga bog'liqdir.

Insonning o'z huquq va majburiyatlarini bilishi, shubhasiz, inson huquqlari madaniyatining muhim elementi hisoblanadi. Ammo mamlakat qonunchiligi va xalqaro hujjatlar mazmunini bilishning o'zi yetarli emas.



Shaxsning o'zining buzilgan huquq va erkinliklarini himoya qilish va tiklash borasidagi bilimi va ko'nikmalari ham inson huquqlari madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shubhasiz, faqat inson huquqlari borasida yetarli bilim va ko'nikmalarga, ya'ni inson huquqlari madaniyatiga ega shaxsgina o'zining, shuningdek, boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va tiklashda amaldagi huquqni himoya qilish mexanizmlaridan samarali foydalana oladi. Demak, inson huquqlari madaniyati shaxsdan ham o'zining huquqlarini bilishni, ham ularni amalda qo'llay olishni talab qilar ekan.

Inson huquqlari madaniyatining yuqori darajasini shakllantirish har doim uzoq davom etadigan va murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda aholini, birinchi navbatda yoshlarni bag'rikenglik, inson huquqlari va uning qadr-qimmatini hurmat qilish ruhida tarbiyalash hamda bu borada zarur bilimlarni berish katta ahamiyatga egadir.



Yodda tuting

Inson huquqlari madaniyati – inson sha'ni, uning huquq va erkinliklarini tan olish va hurmat qilishga qaratilgan bilimlar, shuningdek ularni amalga oshirish va himoya qilish bo'yicha amaliy ko'nikma va tajribalarni nazarda tutuvchi madaniyatning tarkibiy qismidir.



Savol va topshiriqlar

1. "Huquq ustuvorligi" va "qonun ustuvorligi" tushunchalarining o'xshash va farqli jihatlarini tushuntiring.
2. Mamlakatda huquq ustuvorligini ta'minlash uchun nafaqat qonunlarga rioya qilish, balki ularning adolatli bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega degan fikrni izohlang. Fikringizni misollar bilan asoslashga harakat qiling!
3. O'zbekistonda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va davlat xizmatlari sifatini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Jamiyatda inson huquqlari madaniyatini oshirish uchun qanday ustuvor vazifalarni bajarish zarur deb hisoblaysiz?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Jahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project)ning internetdagi rasmiy sahifasi orqali Global huquq ustuvorligi indeksidan O'zbekistonga oid ma'lumotlarni o'rganing va 2019–2021-yillar davomida qaysi omillar bo'yicha mamlakat ko'rsatkichlari o'sishga erishganini hamda qaysi omillar bo'yicha pasayish kuzatilganini tahlil qiling.





6-DARS. INSON HUQUQLARI VA IJTIMOY HIMOYA

*Bu dunyoda abadiy qolmoq mumkin emas,
biroq yaxshi nom qoldirmoq katta saodatdir.*

Alisher Navoiy



Siz bilib olasiz

“Ijtimoiy himoya” tushunchasi.

Aholini ijtimoiy himoyalash.


Ijtimoiy himoyalashda insonparvarlik tamoyilining o‘rni.

“IJTIMOIY HIMOYA” TUSHUNCHASI

Kishilarning butun hayoti davomida daromadga ega bo‘lishini kafolatlash va asosiy tibbiy xizmatlar bilan ta‘minlash orqali ijtimoiy himoya qilish mamlakatda kambag‘allik darajasini kamaytirish va uning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Davlatlar inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy jipslikni kuchaytirish, mehnat resurslari sonini oshirish va iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish maqsadida ijtimoiy himoyaga mablag‘ ajratadi.

Ijtimoiy himoya insonning ijtimoiy ta‘minot olish huquqi asosida yotadigan eng muhim huquqlardan biri bo‘lib, mazkur huquq inson huquqlari sohasiga oid asosiy xalqaro shartnomalarda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil), Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966-yil)da mustahkamlangan va munosib turmushni kafolatlash uchun muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida ham mazkur huquq kafolatlangan.

Ijtimoiy himoya ko‘rsatiladigan **asosiy yo‘nalishlar** quyidagilar hisoblanadi:





Xususan, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy himoya insonning bir qator boshqa huquqlari, xususan, munosib turmush darajasiga ega bo'lish, ta'lim olish va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish kabi huquqlarni amalga oshirishga ham ko'maklashadi.

Xo'sh, ijtimoiy himoyaning o'zi nima, degan savolga qisqacha javob bersak.



Ijtimoiy himoya kishilarni butun hayoti davomida turli xil ijtimoiy xatarlardan himoyalash, ular uchun munosib turmush sharoitiga erishish yoki uni saqlab qolishga qaratilgan choralardan va dasturlar majmui hisoblanadi.

AHOLINI IJTIMOY HIMOYALASH



Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi bunday himoyani ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordamning uyg'unlikdagi ko'magida ta'minlaydi.

Ijtimoiy sug'urta – mehnat qobiliyatini va daromadlarni yo'qotish bilan bog'liq ijtimoiy xatarlarning oqibatlaridan aholini kompensatsiyalash tizimi.

U ish beruvchilar va xodimlarning sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi hisobidan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish, bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar, yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik

pensiyalari to'lov bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy yordam – aholining yordamga muhtoj qatlamining minimal ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya turi.

Ijtimoiy yordam manzilli va maqsadli xususiyatga ega bo'lib, ijtimoiy sug'urtadan farqli ravishda sug'urta badallarini to'lash-to'lamaslikdan qat'i nazar, pul ko'rinishida yoki natural shaklda (oziq-ovqat, dori vositalari bilan ta'minlash kabi) taqdim etiladi.


Shaxs ijtimoiy sug'urtalanmagan bo'lsa, daromadi vaqtinchalik kam bo'lgan taqdirda davlat uni ijtimoiy yordam orqali himoya qiladi.

Ijtimoiy himoya inson kapitaliga kiritiladigan sarmoya ham bo'lib, iqtisodiy o'sishning



omillaridan biri hisoblanadi, chunki muvaffaqiyatli iqtisodiyot ishchi kuchining sifatiga bog'liqdir. Ijtimoiy himoya ishchi-xodimlarning salomatligi yaxshilanishini qo'llab-quvvatlaydi, u o'z navbatida ishlab chiqarish quvvati oshishiga, daromad olish uchun imkoniyatlarning kengayishiga va iqtisodiyotga mablag'larni jalb qilishga olib keladi.

Ijtimoiy himoya



Davlatlar mehnat bozorida munosib o'rnini egallash, kasbga tayyorlash bilan bog'liq tadbirlar doirasida bolalar va yoshlarning qobiliyatlari hamda ko'nikmalarini rivojlantirishga yetarlicha sarmoya kiritishi lozim.

IJTIMOY HIMOYALASHDA INSONPARVARLIK TAMOYILINING O'RNINI

Huquqshunoslik olamida insonparvarlik tamoyili ko'pincha jinoyat huquqi sohasida tilga olinsa-da, aholini ijtimoiy himoya qilishda, ayniqsa, aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamini himoyalashda va moddiy boyliklarning adolatli taqsimotida uning o'rnini beqiyosdir. Ushbu tamoyil shaxsning qadr-qimmati, obro'si, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini uning ijtimoiy, moddiy va boshqa holatidan qat'i nazar hurmat qilishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida ham insonning hayoti, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekani mustahkamlangan. Shu sababli O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlari insonparvarlik, ijtimoiy adolat, manzillilik, profilaktik yo'naltirilganlik kabi muhim tamoyillarga asoslanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Konstitutsiyada o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilar ekan, insonparvarlik tamoyili davlat siyosatining asosiy ustuniga aylanadi. Bugun mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan,



Yodda tuting

Insonparvarlik "insonni sevish" degan ma'noni bildirib, insonga oliy qadriyat sifatida yondashishni anglatadi.



“Ayollar daftari”, “Temir daftar” kabi tizimlar orqali aholining ehtiyojmand qatlamini qo'llab-quvvatlash ortida ham aynan insonparvarlik tamoyili yotadi.

Insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasi sifatida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlanadigan va ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar hamda yordamlarni keltirish mumkin. Masalan, 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola 3 yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam uchun har oylik pulli kompensatsiyani tayinlash ushbu tizim orqali aniqlanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Hech o'ylab ko'rganmisiz, aholini ijtimoiy himoyalash nima uchun davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi?
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har kim o'z ijtimoiy himoyasi borasida o'zi qayg'urishi kerak degan fikrga qanday qaraysiz?
3. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun kam ta'minlangan oilalarga oylik moddiy yordam tayinlash va uning miqdorini belgilash qarori mahalla fuqarolari vakillarining yig'ilishida qabul qilinadi?
4. Aholining yana qanday qatlamini ijtimoiy himoyalash kerak deb hisoblaysiz? Fikringizni asoslang, misollar keltiring va umumlashtiring.



Mustaqil ish uchun topshiriq

Amir Temur davrida katta-katta yerlarni masjid, madrasa va mozorlarga vaqf qilib berish keng tarqalgan edi. O'sha davr odatiga ko'ra, yer va suvdan tashqari do'konlar, tegirmonlar, ustaxonalar, bozor, objuvoz va karvonsaroylar ham vaqf qilib berilgan. Vaqf mulkidan tushgan daromadlar masjid, maqbara, madrasalar, musofirxona va bemorxonalar ehtiyoji uchun sarflangan.

Topshiriq:

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va tarix fanidan egallagan bilimlaringiz asosida buyuk davlat arbobi Amir Temurning o'z davrida olib borgan ijtimoiy himoya borasidagi faoliyati xususida loyiha ishi tayyorlang.





7-DARS. INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK

*Inson huquqlari hech qaysi madaniyatga begona emas
va barcha xalqlarga tegishlidir.*

*Inson huquqlari umuminsoniy qadriyat hisoblanadi.
Kofi Annan, BMT Bosh kotibi (1997–2006-yillar)*



Siz bilib olasiz

Milliy qonunchilik tizimi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro mezonlarning milliy qonunchilikda aks etishi.
Axborot davrida inson huquqlari himoyasi.

MILLIY QONUNCHILIK TIZIMI

Dunyodagi har bir davlat o'zining inson huquqlariga oid qonunchilik tizimiga ega bo'lib, uning negizini mamlakat konstitutsiyasi, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar tashkil qiladi. Konstitutsiyalarda inson huquq va erkinliklari, fuqarolarning burchlariga oid eng muhim qoidalar mustahkamlangan bo'lib, mazkur qoidalar alohida qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarida yanada aniqlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- **Shaxsiy huquqlarga oid** – yashash huquqi, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, turarjoy daxlsizligi huquqi va boshqa huquqlarni ta'minlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari (masalan, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun).
- **Siyosiy huquqlarga oid** – saylash va saylanish huquqi, turli jamoat birlashmalariga uyushish huquqi, davlat organlariga murojaat qilish huquqiga oid qonunchilik hujjatlari (masalan, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun).
- **Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarga oid** – mulk huquqi, erkin kasb tanlash va mehnat qilish huquqi, ta'lim olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi va boshqa huquqlarga oid qonunchilik hujjatlari (masalan, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun).
- **Madaniy huquqlar** – ijodiy faoliyat erkinligi, madaniy meros boyliklarini himoya qilishga oid qonunchilik hujjatlari (masalan, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun).
- **Ekologik huquqlar** – qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq, atrof-muhitning holati haqida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi, ekologik huquqbuzarlik natijasida shaxsning salomatligiga yetkazilgan zararni undirish huquqi va atrof-muhitni asrash bilan bog'liq boshqa qonunchilik hujjatlari (masalan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun).
- **Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar** – O'zbekiston Respublikasining inson huquqlariga oid ikki va ko'p tomonlama shartnomalari.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO MEZONLARNING MILLIY QONUNCHILIKDA AKS ETISHI

Yuqorida ta'kidlanganidek, milliy qonunchilik jahon hamjamiyati tomonidan ishlab chiqilgan va davlatlar tomonidan tan olingan xalqaro huquqiy standartlarga asoslanadi.




Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar (mezonlar) xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan va inson huquqlariga oid minimal talablarni ko'zda tutuvchi qoidalar bo'lib, davlatlar ushbu qoidalarni implementatsiya qilish orqali milliy huquq tizimining tarkibiy qismiga aylantiradi.

Agar xalqaro huquqiy majburiyatlar davlat miqyosida milliy qonunchilikka tatbiq etilmasa, tegishli shartnomalar qoidalari falaj holatda qolib, ularni hayotga joriy qilish imkonsiz va samarasiz bo'lib qolaveradi.

Har bir davlatning milliy qonunchilik tizimi mamlakatda shakllangan an'anaviy huquqiy qoidalar bilan birgalikda xalqaro huquqiy standartlar talablari bilan uyg'unlashsagina, samarali, adolatli va insonparvar xususiyat kasb etishi mumkin.

Masalan, Xalqaro mehnat tashkilotining Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi 138-son konvensiyasida bolalarning mehnat qilishi yoki yollanib ishlashiga ruxsat etilgan eng kichik yosh majburiy maktab ta'limini tugallash uchun zarur bo'lgan yoshdan kam bo'lmasligi kerakligi va har qanday holda o'n besh yoshdan kichik bo'lmasligi zarurligi belgilangan. O'zbekiston ushbu Konvensiyani 2008-yilda ratifikatsiya qilgan. Ushbu xalqaro majburiyat O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining qoidalarida o'z aksini topgan va hozirgi vaqtda ishga qabul qilish uchun o'n olti yoshdan (ayrim talablarga rioya qilingan holda o'n besh yoshga to'lgandan keyin) ruxsat berilishi belgilangan.

Mazkur holatda ham mamlakatimiz xalqaro hujjatlarga asosan olgan majburiyatidan kelib chiqib, shuningdek, bolaning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan shartlar asosida adolatli va insonparvar qoidalarni joriy qilgan.



Hozir O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 7 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan.



Mazkur xalqaro shartnomlar normalari O'zbekiston Respublikasining ko'plab qonunchilik hujjatlari qoidalarida o'z aksini topgan va mamlakat qonunchilik tizimining tarkibiy qismiga aylangan.

AXBOROT DAVRIDA INSON HUQUQLARI HIMOYASI

Raqamli texnologiyalar insoniyatning taraqqiyotida muhim vosita bo'lib, inson huquqlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilishda o'zining munosib hissasini qo'shishi mumkin.

Zamonaviy ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining muhim xususiyati ularning jadallik bilan raqamlashib borayotganidir. Bu esa raqamli axborotni yaratish, olish va undan foydalanish huquqi, aloqa va axborot tarmoqlari (jumladan, internet)dan foydalanish huquqi, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligiga bo'lgan huquq, shaxsiy axborot makonining daxlsizligi huquqi kabi inson huquqlarining yangi turlari paydo bo'lishiga olib keldi.

BMT Inson huquqlari kengashi shaxsning internetdan foydalanish huquqini insonning ajralmas huquqlaridan biri sifatida tan oldi. Shunga ko'ra, ma'lum bir hududlarning butunjahon internet tarmog'idan uzilishi inson huquqlarining buzilishi hisoblanadi. Internet tarmog'ida axborotni tarqatish maksimal darajada erkin bo'lishi lozimligi, uni faqat biror-bir shaxsning huquqlari buzilishiga olib kelgandagina cheklash mumkinligi belgilandi. Bunga misol sifatida kiber hujumlar natijasida ma'lumotlarning sizib chiqishi va tarqalib ketishi mumkinligi holatini keltirib o'tish mumkin. Konstitutsiyamizning 33-moddasida ham bugungi davr internet bilan nechog'lik aloqador ekani hisobga olinib, davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilab qo'yilgan.

Agar samarali kafolatlar mavjud bo'lmasa, bunday texnologiyalarni joriy qilish insonning qadr-qimmati, shaxsiy hayoti daxlsizligi va mustaqilligiga, umuman olganda, inson huquqlarini ta'minlashga jiddiy xavf tug'dirishi ham mumkin. Xususan, BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi bu borada xatarlar mavjudligini e'tirof etib, raqamli qurilmalardan foydalanish bolalarga zarar yetkazmasligi, bolalar va ota-onalar o'rtasidagi muloqot o'rnini egallamasligi lozimligini qayd etadi.

Axborot texnologiyalaridan hayotning barcha sohalarida foydalanish insonning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashga salbiy ta'sir qiladi. Mazkur huquqni himoya qilish qamrovi shaxsning turarjoyi, avtomashinasi, yozishmalari kabi shaxsiy muhiti bilan cheklanmasdan, bozor, aeroport, vokzal, ta'lim muassasalari binolari kabi jamoat joylari va bu makonlarda to'planadigan ochiq ma'lumotlarga ham taalluqli bo'ladi. Masalan, ta'lim muassasasi binosidagi kuzatuv vositalarida yozib olingan videomateriallardan ta'lim oluvchilar yoki o'qituvchilarning shaxsiy hayoti daxlsizligiga zid ravishda, ularni obro'sizlantirish maqsadida foydalanish taqiqlanadi.

Axborot texnologiyalari vositasida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining buzilishi mamlakatimizda ma'muriy va jinoyat javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Masalan, fuqarolarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning roziligisiz, qonunga xilof ravishda yig'ish, tarqatish, oshkor qilish harakatlari uchun tegishli javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, axborot texnologiyalari va aloqa vositalaridan foydalangan holda o'zgar-



Yodda tuting

Shaxsga doir ma'lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot.



ning mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish, firibgarlik harakatlarini sodir etganlik uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan.



Yodda tuting

Kartangizning amal qilish muddatini ko'rsatish va SMS orqali kelgan tasdiqlash kodini yuborish haqidagi so'rov shubha uyg'otish uchun asos bo'ladi. Plastik kartangizda pul bo'lmasa ham, maxfiy ma'lumotlarni kiritish firibgarlarga kelajakda kartangizdan g'arazli niyatlarda foydalanib, hisobingizdagi barcha pullarni yechib olish imkonini beradi. Internet tarmog'i orqali sizga kelayotgan har qanday xabarlardan ogoh bo'ling!



Savol va topshiriqlar

1. Agar mamlakat qonunchilik tizimi faqat ushbu mamlakatda shakllangan axloqiy qarashlar, urf-odatlarga asoslanib rivojlansa, bunday qonunchilik mamlakatda inson huquqlarini ta'minlashda qanchalik samarali bo'lishi mumkinligi haqida fikr yuriting. Ushbu holatning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qiling.
2. Sizningcha, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning shakllanishida milliy huquqiy tizimlarning roli va ahamiyati qanday bo'lgan?
3. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi insonning shaxsiy daxlsizlik huquqi buzilishi holatlarining ko'payishiga olib keladi degan farazga qanday munosabat bildirasiz?
4. Sizningcha, internet aloqasidan foydalanishning, masalan, qimor va tavakkalchilikka asoslangan (totalizator) o'yinlarni o'ynashning cheklanishi shaxsning internetdan foydalanish huquqini buzish hisoblanadimi? Bunday huquqning buzilishini misollar keltirgan holda tushuntiring.



Mustaqil ish uchun topshiriq

1. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish samaradorligiga erishish va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish uchun ta'lim muassasalarida (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim) mobil telefonlardan foydalanish cheklangan. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2012-yildagi 139-son qarori mavjud bo'lib, unga "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom" ilova qilingan. Mazkur Nizom bilan tanishib chiqing va unda belgilangan qoidalarni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
2. 10-sinf o'quvchilari K. va S. sinfxonada, dars jarayonida bildirmasdan o'qituvchilari va sinfdosh qizlarini rasmga olib, telegram guruhlarida masxaralab tarqatishdi. Bu vaziyatda o'qituvchi va o'quvchi qizlarning qanday huquqlari poymol etildi? K. va S.ning bu harakatlarini huquqbuzarlik sifatida baholash mumkinmi? Ularga qanday chora ko'riladi? K. va S.ning bu qilmishiga kim javobgar? Ushbu savollarga yuqoridagi Nizomga asoslangan holda javob bering.



8-DARS. INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI ORGANLAR

*Xalq davlat idoralariga emas,
davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak.*
Shavkat Mirziyoyev



Siz bilib olasiz

Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat organlari tizimi.
Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning ahamiyati.
Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o'ri.

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA DAVLAT ORGANLARI TIZIMI

Mamlakatimizda inson huquqlarining himoyasi bilan shug'ullanuvchi davlat organlari, milliy institutlar va nodavlat tashkilotlardan iborat tizim shakllangan. Ayrim adabiyotlarda ular "inson huquqlari bo'yicha sudlov va nosudlov organlari" deb ham ataladi.

Inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat organlari tizimida sud, prokuratura, ichki ishlar, adliya organlari muhim o'ringa ega.

Sud organlari inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmining eng muhim qismi hisoblanadi. Chunki aynan sudlov tizimi shaxsning buzilgan huquqlarini tiklagan holda jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlaydi.



Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ularning mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 55-modda

Prokuratura organlarining asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Prokuratura organlari fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat faoliyatini olib borib, fuqaroning huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi arizalar, shikoyatlar hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi, huquq va erkinliklarini himoya qilish tartibini tushuntiradi, fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda yetkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'radi.

Ichki ishlar organlari ham inson huquqlarini himoya qilishni o'zining asosiy maqsadi etib belgilaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2016-yilda qabul qilingan "Ich-



ki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilish **ichki ishlar organlarining** asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Adliya organlarining asosiy vazifalari qatorida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarni amalga oshirish muhim o'ringa ega. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirish davomida adliya organlari davlat organlari va davlat ishtirokidagi tashkilotlar tomonidan inson huquqlari sohasidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, fuqarolarning davlat organlari va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha choralarni ko'radi.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY INSTITUTLARNING AHAMIYATI

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning milliy tizimida muhim ahamiyat kasb etib, ularning faoliyati nosudlov xususiyatga ega.



O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimiga Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (bolalar ombudsmani), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (biznes-ombudsman) kiradi.



Yodda tuting

Inson huquqlari bo'yicha milliy institut – inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, qo'llab-quvvatlash va ularga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida konstitutsiya yoki qonun bilan ta'sis etiladigan mustaqil organ.



Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar

Biznes-ombudsman



Inson huquqlari
bo'yicha O'zbekiston
Respublikasi milliy
markazi



Bolalar
ombudsmani



O'zbekiston
Respublikasi Oliy
Majlisining Inson
huquqlari bo'yicha
vakili (ombudsman)



Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vazifasini amalga oshiradi. Ombudsman fuqarolarning ariza, taklif va shikoyat tarzidagi murojaatlarini ko'rib chiqadi va tekshiradi, bu boradagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganda ularni bartaraf etish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlar rahbarlariga taqdimnomalar, shuningdek, inson huquqlarining jiddiy buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan tegishli organlarga iltimosnomalar kiritadi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning o'zaro hamkorligini, milliy ma'ruzalar tayyorlanishini, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta'minlovchi davlat organi hisoblanadi.

Bolalar ombudsmani bola huquqlariga oid qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi, bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini o'rganadi, bolalar va ularning qonuniy vakillari o'rtasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tushuntiradi, imkoniyati cheklangan, shuningdek, yetim va otana qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashadi.

Biznes-ombudsmanning asosiy vazifasi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mazkur huquqlar va qonuniy manfaatlarga davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishini ta'minlashdan iborat.

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA NODAVLAT TASHKILOTLARNING O'RNI

Inson huquqlarini himoya qilish tizimida davlat organlari, milliy institutlar bilan birga nodavlat tashkilotlarning ahamiyati ham oshib bormoqda. Hozir mamlakatimizda 9 800 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar, 10 mingga yaqin mahallalar faoliyat yuritadi.



Kasaba uyushmalari, fuqarolar yig'inlari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari, turli xayriya va jamoat fondlarini, aholining turli qatlamlari (bolalar, yoshlar, nogironlar, ayollar) huquqlarini himoya qilish, ularga ijtimoiy ko'mak ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan ko'plab jamoat tashkilotlarini nodavlat tashkilotlar sirasiga kiritish mumkin.

Nodavlat tashkilotlar inson huquqlarini ta'minlash, shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga ko'maklashish, inson huquqlarini targ'ib qilish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin. Davlat organlari ijtimoiy sheriklik asosida jamiyatdagi ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Mamlakatimizda nafaqat mahalliy, balki chet el nodavlat notijorat tashkilotlari ham faoliyat yuritishi mumkin. Barcha shu kabi tashkilotlarning faoliyati "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.



Yodda tuting

Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromatlarni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.



Savol va topshiriqlar

1. Inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat organlari tizimini tavsiflab bering.
2. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning asosiy vazifalari mazmunini tushuntiring.
3. Inson huquqlarini ta'minlashda prokuratura va ichki ishlar organlarining vakolatlaridagi asosiy farqli jihatlar nimalardan iborat.
4. Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) tomonidan davlat organlari va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga taqdimnomalar nima maqsadda kiritiladi?
5. Ombudsman tomonidan kiritiladigan taqdimnoma bilan iltimosnomaning farqi nimada?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Fuqaro A. ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan uning huquqlari buzilganligi yuzasidan Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) nomiga shikoyat bilan murojaat qildi. Ombudsman kotibiyati xodimi mazkur shikoyatni qabul qila olmasligini, sababi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati yuzasidan murojaatlarni ko'rib chiqish ombudsmanning vakolatlariga kirmasligini ma'lum qildi.

Ushbu vaziyatni tahlil qiling va ombudsman kotibiyati xodimining harakatlariga huquqiy baho bering.



9-DARS. IJODIY FAOLIYAT

Muvaffaqiyatsizlikka uchrash og'ir, biroq eng yomoni muvaffaqiyatga erishish uchun sira harakat qilmaslikdir.
Teodor Ruzvelt

IJODIY FAOLIYAT UCHUN

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida insonning asosiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan normalar bilan o'xshash bo'lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarining solishtirma qiyosiy jadvalini tuzing. Masalan, Deklaratsiyaning 3-moddasida "Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir", deyilgan. Shunga o'xshash qoida Konstitutsiyamizning 25-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unda "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir", deb belgilangan.

Solishtirma jadvalingizda taqdim etilgan o'xshash normalarning farqli jihatlarini tushuntiring.

T/r	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		

2. Bugun O'zbekistonda gender tenglik eng muhim masalalardan hisoblanadi. Tasavvur qiling, mana shu muhim masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasining "Gender tenglik to'g'risida"gi qonuni loyihasi tayyorlanmoqda. O'zbekiston fuqarosi sifatida sizning fikringiz juda ham muhim. Quyidagi jadvalga o'zingizning gender tenglik borasidagi tushunchalaringizga asoslangan holda mazkur qonun loyihasida aks ettirish lozim deb hisoblagan qoidalaringsizni kiriting.

T/r	Siz taklif etayotgan qoida	Nega bunday qoidani taklif etayotganingiz sababi
1.		
2.		
3.		



NAZORAT ISHI

Aql tarozisida tortib ko'rilgan har qanday bilim asossizdir.

Abu Ibn Sino

Jadvalli test

Atamalarga mos ta'riflarni belgilang

1	Tenghuquqlik	A	Ma'lum bir hududda yashovchi, qadriyatlari, ular amal qiladigan qoidalar va an'analari o'xshash bo'lgan hamda o'zaro ehtiyoj va manfaatlari yo'lida birlashgan insonlar guruhi.
2	Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar	B	Barcha insonlarning qadr-qimmatini tan oladigan va himoya qiladigan standartlar (mezonlar) hisoblanadi.
3	Insonparvarlik	D	Shaxsning huquqlari, erkinliklari, burchlari yig'indisi.
4	Huquq ustuvorligi	E	Insonlar o'zlarining irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodidan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi yoki o'zga holatidan qat'i nazar, bir xil huquqlarga ega bo'lishi.
5	Shaxsning huquqiy maqomi	F	Insonlarning jinsidan qat'i nazar, ularga bir xil huquq, erkinlik va imkoniyatlarning taqdim etilishi, iqtisodiy faoliyatda hamda qarorlarni qabul qilishda tenglikning yaratilishi.
6	Gender tenglik	G	"Insonni sevis" degan ma'noni bildirib, insonga oliy qadriyat sifatida yondashishni anglatadi.
7	Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar	H	Faqatgina bir davlatning fuqaroligiga ega bo'lish hisoblanib, bugungi kunda ko'plab davlatlar aynan mazkur tamoyilga amal qiladi.
8	Ombudsman	I	Shaxsning buzilgan huquqlarini tiklagan holda jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlovchi davlat organi.
9	Ijtimoiy himoya	J	Xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan va inson huquqlariga oid minimal talablarni ko'zda tutuvchi qoidalar.
10	Jamiyat	K	Mehnat qobiliyatini va daromadlarni yo'qotish bilan bog'liq ijtimoiy xatarlarning oqibatlaridan aholini kompensatsiyalash tizimi.
11	Sud	L	Tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vazifasini amalga oshiruvchi vakil.
12	Yagona fuqarolik	M	O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan va o'zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo'lmagan shaxs.

II BOB. OILAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR



10-DARS. JAMIYATDA OILANING O'RNİ

*Agar oilaning baxtini boylik belgilaganda edi,
bironta boy xonadonda oilaviy janjal ko'tarilmas edi.*

Tohir Malik



Siz bilib olasiz

Oila – jamiyat tayanchi.
Jamiyatda oilaviy munosabatlarni tartibga solish.
Oilaning davlat tomonidan muhofaza qilinishi.

OILA – JAMIYAT TAYANCHI



Inson dunyoga kelib, oila degan jamoada yashaydi. U ota-ona, buvi va bobo, aka va opa, amaki va xola, tog'a va amma kabi qon-qarindoshlar qurshovida bo'ladi va kamol topadi. Ana shu qarindoshlik rishtasi asosida oila a'zolari o'zaro bir-birlariga yordam beradilar. Oiladagi ushbu rishtalar esa hurmat, sadoqat, g'amxo'rlik, insonparvarlik kabi insoniy fazilatlar hisoblanib, ular tarbiyaviy, diniy, ma'naviy, ma'rifiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy asoslarni

keltirib chiqaradi. Aynan shu xususiyatlar oilaning mustahkam bo'lishiga olib keladi.

Har bir oila urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va milliy qadriyatlarga ega. Ana shu urf-odat, rasm-rusum, an'analar va milliy qadriyatlar asosida oila o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va oila a'zolari o'zaro inoqlikda, bir-biriga ishonchda, sadoqat va hurmatda bo'ladilar. Oilada ijobiy muhitning barqarorligi jamiyatning tinch va xotirjam ekanligidan dalolat beradi.

Oilaning mustahkamligi jamiyatda hayotning, tiriklikning abadiyligini ta'minlaydi, farzandlar avlodni davom ettiradi. Shuningdek, oila kelajakda farzandlar qanday inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadigan, ularni tarbiya qiladigan maskan vazifasini bajaradi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar oilalarni qo'llab-quvvatlash, farzandlarni jismonan sog'lom, aqlan yetuk qilib dunyoga keltirish, kam ta'minlangan oilalarga ko'mak berish maqsadini ko'zlaydi.



Yodda tuting

Oila qon-qarindoshlik, birga istiqomat qilish orqali bog'langan, bir-biriga nisbatan vujudga keladigan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir.





Jamiyat oilaning tinchligi, osoyishtaligi, bolalarning sog'lomligidan manfaatdor. Jamiyat va davlat oilaning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va or-nomusini himoya qiladi, oila uchun kerakli sharoitlarni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir" degan me'yorning belgilanishi oila jamiyat bilan uzviy bog'liq ekanidan dalolat beradi. Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam bo'ladi, jamiyat mustahkam ekan – mamlakatimizda tinchlik, farovonlik, to'kinlik barqarordir. Chunki oila butun bir jamiyatning kichik ko'rinishidir. Jamiyat esa oilalar birlashuvidan tashkil topadi.

Oilada muayyan turmush tarzi shakllanib, hayotiy tajriba orttirilib borishi, farzandlarning odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksa avlod vakillari hamda ota-onaning roli katta. Chunki katta avlod vakillari bo'lgan buvi va bobolar o'zlarining o'g'itlari, nasihatlari asosida kichik avlodga umuminsoniy qadriyatlarni singdirib, ularni jamiyat uchun barkamol inson qilib yetkazadi. Oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud qoidalar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi.

Oila nafaqat davlat tomonidan, balki xalqaro miqyosda ham muhofaza qilinadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 15-mayni Xalqaro oila kuni (International Day of Families) deb belgilagan. 1994-yilning 15-mayidan butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham Xalqaro oila kuni keng nishonlab kelinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, farovon va barqaror oilalarning hayotiy tajribalarini ommalashtirish maqsadida oilani mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan oilalarga beriladigan "Ibratli oila" ko'krak nishoni ta'sis etilishi va uni 15-may – Xalqaro oila kunida topshirish tartibi belgilandi.

JAMIYATDA OILAVIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH



Jamiyatda oila, nikoh kabi tushunchalar mavjud. Oila nikohga qaraganda ko'proq kishilarni o'z ichiga oladi. Oilaviy munosabatlar qarindoshlik aloqalarining keng ko'lamida namoyon bo'ladi. Oila nikoh singari qat'iy ravishda tuzilish va tugatilish sanasiga ega emas. Oila a'zolarining soni ko'payishi yoki kamayishi sababli uning tarkibi o'zgarishi mumkin.

Oiladagi barcha munosabatlar axloq qoidalari va huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Masalan, oiladagi salom-alik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzatda bo'lish, mehr-oqibat, e'tibor, oila a'zolariga "siz" yoki "sen" deb murojaat qilish, bir-birlariga yordam berish, yolg'on gapirmaslik, yuklatilgan yumushlarni bajarish kabi xatti-harakatlar axloq va urf-odat qoidalari bilan tartibga solinadi.

Nikohni rasmiylashtirish, er-xotinning shaxsiy, mulkiy huquq va majburiyatlari, farzandlarning huquq va erkinliklari kabi munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Oilada odob-axloq qoidalariga rioya etilmaganda buvi yoki buva, ota-ona yoki oilaning katta a'zolari tomonidan koyish, tanbeh beriladi, huquq qoidalari buzilganda esa huquqiy javobgarlikka tortiladi.



Yodda tuting

Huquq qoidalarini bilan tartibga solinadigan oilaviy munosabatlar “oiladagi huquqiy munosabatlar” deb ataladi.

Odob-axloq qoidalarini bilan tartibga solinadigan oilaviy munosabatlar oiladagi axloqiy munosabatlar hisoblanadi, huquq qoidalarini bilan tartibga solinadigan oilaviy munosabatlar esa oiladagi huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Oiladagi huquqiy munosabatlar nikoh, uni tuzish, nikoh asosida vujudga kelgan er-xotin, ota-ona va farzandlarning huquq va erkinliklari, majburiyatlariga asoslanadi.

Nikoh tuzish yoshi, nikohni qayd etish tartibi, ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi, kelin-kuyov, er-xotin, ota-ona, farzandlarning huquqiy maqomi kabi holatlar tegishli huquq normalari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan qonunchilik tizimi yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va tegishli boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan asosiy manbalar hisoblanadi. Shuningdek, oilaviy huquqiy munosabatlar xalqaro normalar bilan ham tartibga solinadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoshlar” bobida oila jamiyat va davlat muhofazasida ekani, davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi, oila a‘zolarining huquq va majburiyatlari mavjudligi umumiy asosda belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (1998-yil 30-aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1-sentyabrdan kuchga kirgan) oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga soladi va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish asosida qurishni ta‘minlash, oila a‘zolarining mas’ulligini belgilash hamda oila a‘zolarining huquqlarini himoya qilish qoidalarini belgilab beradi. Ushbu kodeks 8 ta bo‘lim, 238 ta moddadan iborat.

Oila kodeksida nikohni tuzish tartibi va shartlari, er-xotinning shaxsiy, mulkiy huquq va majburiyatlari, mol-mulkning shartnomaviy tartibi, nikohning tugatilishi kabi me‘yorlar belgilangan. Shuningdek, qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari, ularning aliment majburiyatlari, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni himoyalash, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartibi hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish me‘yorlari belgilangan.

OILANING DAVLAT TOMONIDAN MUHOFAZA QILINISHI

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oila davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilangan bo‘lib, davlat oilani mustahkamlashga, oila a‘zolarining mas’ulligini oshirishga katta e‘tibor qaratadi. Bugun oilani mustahkamlash maqsadida “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” g‘oyasi asosida islohotlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda oilalarga, ayollarga, ko‘p bolali va kam ta‘minlangan oilalarga, maktab o‘quvchilariga va talabalarga berilayotgan imtiyozlar, moddiy va ma‘naviy ko‘maklar oilaviy muhitni yaxshilash, sog‘lom avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutmoqda.



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nikoh oilaviy qadriyatlarga asoslanishi, u erkak va ayolning ixtiyoriy roziligi asosida tuzilishi, ularning tenghuquqliligi, oilada bolalarni tarbiyalash va ularga g'amxo'rlik qilish kabi tamoyillar belgilab berilgan.


2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadida yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash 71-maqsadida oila, ta'lim muassasalari va mahallada tarbiyaning uzviyligini ta'minlash kabi vazifalar belgilab qo'yilgan.

Oilaning jamiyat taraqqiyotdagi o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida ko'plab qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinmoqda.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi farmonida mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, xotin-qizlarning sog'lig'ini saqlash, ularni kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash kabi masalalarni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek, oila, onalik, otalik va bolalik ham davlat himoyasidadir. Zero, onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlar asosida ota-onani hurmat qilish, ularga mehr-oqibatli, g'amxo'r bo'lish kabi fazilatlar har bir insonning oldida turgan majburiyat hisoblanadi. Ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog'lig'ini saqlash, mehnat jarayonida ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'li bilan ta'minlanadi.

Davlat ko'p bolali oilalarga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar beradi. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan "Ayollar daftari" bilan ishlash elektron tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim yordamida ijtimoiy-himoyaga muhtoj xotin-qizning "Ayollar daftari"ga kiritish haqidagi murojaati qabul qilinadi va ushbu murojaatni ko'rib chiqish natijalari beriladi. Shuningdek, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga ko'rsatiladigan yordam turlari hamda "Ayollar daftari" orqali yordam ko'rsatilayotgan xotin-qizlar ro'yxatga olinadi.



Yodda tuting

To'rt nafar va undan ortiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila ko'p bolali oiladir. Bunda agar to'rt nafar va undan ortiq bolalardan bir nafari yoki undan ko'prog'i ta'limning kunduzgi shaklida (o'rta maxsus va professional, oliy ta'lim) ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan hamda yigirma ikki yoshga to'lmagan bo'lsa, bu oila ham ko'p bolali oila deb hisoblanadi. Davlat ko'p bolali oilalarga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar berilishini ta'minlaydi.

**O'zbekiston Respublikasining
Oila kodeksi, 4'-modda.**

OILA



76-modda

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir.



78-modda

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.



77-modda

Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.



80-modda

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.



Savol va topshiriqlar

1. Oila deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun oila jamiyatning tayanchi hisoblanadi?
3. Jamiyatda oiladagi munosabatlar qanday tartibga solinadi?
4. Odob-axloq qoidalari bilan tartibga solinadigan oilaviy munosabatlarga misollar keltiring.
5. Oiladagi huquqiy munosabatlar qanday manbalar bilan tartibga solinadi?



Mustaqil ish uchun topshiriq

1. Oiladagi axloqiy va huquqiy munosabatlarga misollar keltirib, jadvalni to'ldiring.

Axloqiy munosabatlar	Huquqiy munosabatlar

2. Axloqiy va huquqiy munosabatlar qanday me'yorlar bilan tartibga solinadi?
3. Oilalar ahilligi va mustahkamligiga erishish uchun qonunchilikka qanday yangiliklar va oilangizga qanday qoidalar kiritgan bo'lardingiz?

11–12-DARS. NIKOH, UNI TUZISH VA TUGATISH ASOSLARI

*Baxtli oila qurishning ikki sharti bordir:
yaxshi turmush o'rtoqni tanlay bilmoq va
yaxshi turmush o'rtoq bo'lmoq.*
Jaloliddin Rumi



Siz bilib olasiz

“Nikoh” tushunchasi va uning huquqiy asoslari.
Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi, nikoh tuzish tartibi.
Nikohni tuzishga monelik qiladigan holatlar.
Nikoh tugatilishining oqibatlari.

“NIKOH” TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI



Yodda tuting

Nikoh (arabchadan olingan bo'lib, *birlashish, kelishish, ittifoq* degan ma'noni anglatadi) – erkak va ayolning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladigan, o'zaro hurmat, muhabbat va ishonchga asoslangan ixtiyoriy kelishuvidir.

Avvalgi mavzuda ta'kidlaganimizdek, nikohni rasmiylashtirish, er-xotinning shaxsiy, mulkiy huquq va majburiyatlari, aliment majburiyatlari, bola huquqi, farzandlarning huquq va erkinliklari kabi munosabatlar huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra, nikoh tuzishda nikohlanuvchilarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyiga qarab ularning huquqlari cheklanmaydi. Oilada oilaviy munosabatlar qan-

chalik to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, u shunchalik mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ham davlatimiz nikoh, uni tuzish tartibi va shartlari, nikohdan ajralish, nikohni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq munosabatlarga befarq bo'lmay, ularni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni belgilab qo'ygan.

Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo'lgani bois u axloq normalari bilan birga davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Bu esa oila davlat himoyasida bo'lishini huquqiy ta'minlaydi. Nikoh ota-onadan zurriyot qolishi, naslning davom etishi mezonini hisoblanadi. Nikoh erkak va ayolga mas'uliyat yuklaydi.



Yodda tuting

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 13-modda.



NIKOH TUZISHNING IXTIYORIYLIGI. NIKOH TUZISH TARTIBI

Oilaviy huquqiy munosabatlar nikohni rasmiylashtirishdan boshlanadi. Nikoh ikki jins vakili, ya'ni erkak va ayolning roziligi va tenghuquqliligi asosida tuzilgan ittifoqdir. Agar erkak yoki ayoldan biri nikoh tuzishga rozi bo'lmasa, nikoh tuzilmaydi. Demak, qiz bolalarni majburlab turmushga berish va yigitlarni majburlab uylantirish qonunga zid hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasiga ko'ra, ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish jinoyat hisoblanib, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDY) organlarida tuziladi. Nikoh nikohlanuvchilar FHDY organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, erkak va ayol ishtirokida tuziladi.

Nikohlanuvchilar FHDY organlariga ariza topshirganidan so'ng beriladigan bir oy muddat nikohdan o'tuvchilar bir-birlari bilan yaxshi tanishib olishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa yoshlarning yengiltaklik qilib, shoshma-shosharlik bilan nikohdan o'tishlarining oldini oladi. Bir oylik muddatda nikohga kiruvchilar nikoh tuzishga bo'lgan o'z xohishlarini yana tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



Nikohni tuzish to'g'risidagi ariza belgilangan shaklga ega. Ariza nikohlanuvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asosida to'ldirilib, barcha savollarga aniq javob beriladi. Ariza aniq, tushunarli yozuvda to'ldiriladi. Nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan kam bo'lmasligi kerak. Nikohlanuvchilarning istaklariga binoan nikoh ularning qarindoshlari, tanishlari va guvohlar ishtirokida qayd etiladi.

Nikoh tuzilgandan keyin yagona nusxada guvohnoma beriladi.

Nikohlanuvchi shaxslar qonun doirasida belgilangan yoshga yetgan bo'lishlari shart. Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilangan.

Ariza berilgandan so'ng nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning maqsadi sog'lom oilani shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, irsiyat bilan bog'liq va



tugʻma kasalliklarga chalingan bolalar tugʻilishining oldini olishdan iborat.

Nikohlanuvchi shaxslar psixik, narkologik, tanosil kasalliklari, sil kasalligi va OIV/OITS boʻyicha tibbiy koʻrikdan oʻtadi. Tibbiy koʻrikdan oʻtkazish uchun yoʻllanmalar FHDY organlarida beriladi. Bu esa nikoh tuzish toʻgʻrisidagi arizalarni roʻyxatdan oʻtkazish daftarida qayd etiladi. Nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy koʻrigi ularning yashash joyidagi psixiatr vrachlar, narkologlar, teri-tanosil

kasalliklari vrachlari, ftiziatrlar (dispanser va tuman kabinetlari) tomonidan bepul oʻtkaziladi. Tibbiy koʻrikdan oʻtish ikki haftadan oshmasligi kerak. Tibbiy koʻrik natijalari tibbiyot kartasida toʻliq aks ettiriladi.

NIKOHNI TUZISHGA MONELIK QILADIGAN HOLATLAR

Yuqorida biz siz bilan nikoh, uni tuzish tartibi haqidagi masalalarni koʻrib chiqdik. Endi nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarni koʻrib chiqamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar belgilangan. Jumladan, nikoh tuzilayotganda nikohlanuvchilar boshqa nikohda turgan boʻlishi mumkin emas. Boshqa nikohda turgan shaxslar oʻrtasida nikoh tuzishga yoʻl qoʻyilmaydi. Bundan tashqari, nasl-nasab shajarasi toʻgʻri tutashgan qarindoshlar, tugʻishgan va oʻgay aka-ukalar bilan opa-singillar oʻrtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar oʻrtasida ham nikoh tuzishga yoʻl qoʻyilmaydi. Yaʼni Oila kodeksining 57-moddasida belgilangan meʼyor asosida bolalar ota-onasiga nisbatan toʻgʻri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan – ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan – uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.



Loaqal bittasi roʻyxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar oʻrtasida nikoh tuzish man etiladi

Loaqal bittasi ruhiyat buzillishi sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar oʻrtasida nikoh tuzish man etiladi

Nasl-nasab shajarasi boʻyicha toʻgʻri tutashgan qarindoshlar oʻrtasida, tugʻishgan va oʻgay aka-ukalar bilan opa-singillar oʻrtasida, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar oʻrtasida nikoh tuzish man etiladi



Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari hamda ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi. Bundan tashqari, nikohlanuvchilarning loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, bunday shaxslar o'rtasida ham nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

NIKOH TUGATILISHINING OQIBATLARI


Jamiyatda ayrim holatlarda turli sabablarga ko'ra nikoh tugatilishi holatlari uchraydi. Qonunchilikka ko'ra, nikohni tugatish va nikohdan ajratish degan tushunchalar mavjud. Nikohni tugatish deganda, masalan, er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida nikohning bekor bo'lishi tushuniladi. Nikohdan ajratish deganda er-xotindan biri yoki ikkalasining arizasiga binoan nikohni sud tomonidan ajratish tushuniladi. Nikohdan ajratish sud tartibida va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (qayd etish) organlarida amalga oshiriladi.

Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi.

Agar bolalar borasida, er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo'lish borasida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash borasida nizo mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi.

Agar er-xotinning voyaga yetmagan bolalari bo'lmasa, er-xotin nikohdan ajrashishga o'zaro rozi bo'lsalar va o'rtada mulkiy nizo bo'lmasa, nikoh FHDY organida ajratiladi.

Sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlaydi. Sud er-xotinga yarashish uchun muhlat tayinlab, ishning ko'rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun xabardor qiladi.





Xotining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotining rozilgisiz nikohdan ajratish to'g'risida da'vo qilolmaydi.

Arizada nikohdan ajralish uchun nima sabab bo'lganini asoslab ko'rsatish kerak. Sud organi nikohdan ajralish ishlarini ko'rishda e'tiborni er-xotinni yarashtirishga, oilaviy vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratadi va ularga yarashish uchun muddat beradi.

Nikoh ajratilayotganda sud organlari voyaga yetmagan bolalar kim bilan yashashi, ularga ota-ona tomonidan ta'minot berilishi, mulkiy masalalarni hal etadi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganida to'yni o'tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi.



Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksidan nikohni rasmiylashtirishga oid huquqiy me'yorlarni toping va mazmunini bayon eting.
2. Nikohni tuzishga qanday holatlar monelik qilishi mumkin?
3. "Nikoh ixtiyoriy asosda va tenghuquqlikda tuziladi" degan qoidani siz qanday tushunasiz?
4. Nikohning tugatilishi qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?



Mustaqil ish uchun topshiriq

1. FHDY organi xodimi ariza bergan kelin bo'lajak kuyovning jiyani ekanini bilib qolgach, nikohni rasmiylashtirishga e'tiroz bildirdi. Ushbu vaziyatda FHDY xodimining e'tirozi to'g'ri deb o'ylaysizmi? Sizningcha, nikohlanuvchilar qanday yo'l tutishlari lozim?

2. FHDY organida nikohdan o'tishda **S.** soxta hujjatlardan foydalangan holda boshqa nikohdaligi va bolasi borligini bo'lajak xotini **M.**dan yashirgan edi. Bu nikoh qonuniy deb hisoblanadimi? Agar qonuniy kuchga ega bo'lmasa, **M.** sudga murojaat qilish huquqiga egami?

3. Nikohni rasmiylashtirishdan oldin nega tibbiy ko'rikdan o'tiladi? Uning huquqiy asosini toping.





13-DARS. OILADA ER-XOTIN VA OTA-ONANING HUQUQIY MAQOMI

Oilada ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim.

Mirzo Ulug'bek



Siz bilib olasiz

Er-xotin huquqiy maqomining vujudga kelishi.

Er-xotinning huquq va majburiyatlari.

Oilada ota-onaning huquq va majburiyatlari.

ER-XOTIN HUQUQIY MAQOMINING VUJUDGA KELISHI

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim jihati oilani har tomonlama rivojlantirishdir. Davlat onalik, otalik va bolalikni muhofaza qilish, har bir oilani, undagi sog'lom ma'naviy muhitni asrab-avaylash, er-xotin, ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi mehr-oqibat hissini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratar ekan, bolalar hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Nikoh rasmiylashtirilishi bilan er-xotinning huquqiy maqomi vujudga keladi. Lekin oilalarda ayrim sabablarga ko'ra tinchlik, totuvlik buzilishi hollari uchrab turadi. Ayrim hollarda er va xotinning shoshqaloqligi, jahlning tez chiqishi, qanoatsizlik, manmanlik ularning munosabatlariga putur yetkazadi. Ma'naviy jihatdan bir-biriga sabr qilish lozim bo'lganiday, moddiy jihatdan ham qanoatli va sabrli bo'lish juda muhimdir.

Abdurauf Fitrat oila to'g'risida shunday degan edi: "Har bir oilaning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millatlar ham shuncha kuchli bo'ladi. Agar bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi".

O'zbekistonda xalqaro standartlarga mos ravishda oilani mustahkamlash, unda er-xotin, ota-ona va farzandlar haq-huquqlarini himoya qilishga oid yangicha boshqaruv tizimi yaratildi. Bolaning ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, kamol topishi, jismonan va ma'nan sog'lom ulg'ayishi mustaqil hayotga to'la layoqatli bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oilaviy tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biri – bola tarbiyasiga oid me'yorlarni belgilab bergan. Bunda er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzgan erkak va ayol er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

Er-xotinning huquq va majburiyatlari 2 ga bo'linadi:

- 1) shaxsiy huquq va majburiyatlar.
- 2) mulkiy huquq va majburiyatlar.

Er-xotinning o'z huquq va majburiyatlarini bajarishi oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak.



ER-XOTINNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari deganda er-xotin sifatida hayot kechirish, bir-biriga bo'lgan mas'uliyatini belgilovchi huquqiy maqomi tushuniladi. Ya'ni er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari mulk bilan bog'liq bo'lmaydi. Bu huquq va majburiyatlar birovga o'tkazilishi mumkin emas.

Er-xotin O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan har bir inson va fuqaroga tegishli huquq va erkinliklar hamda burchlar bilan bir qatorda oila sharoitida, bola tarbiyasida er-xotinlik huquq va majburiyatlariga ham ega bo'ladilar. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlarini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi bilan tartibga solinadi.

Unga ko'ra, er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga ega bo'ladilar. Masalan, er va xotinning familiya tanlash huquqi, er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilish huquqi, er va xotinning mashg'ulot turi tanlash, kasb tanlash va turarjoy tanlash huquqlari, er-xotinning bir-biriga ta'minot berish majburiyatlari shular jumlasidandir.

Nikoh tuzish vaqtida er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotinining familiyasini umumiy familiya qilib tanlashi mumkin. Shuningdek, ularning har biri nikohgacha bo'lgan o'z familiyasida qolishi ham mumkin.



ER-XOTINNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

HUQUQLARI

- Mashg'ulotlar turini erkin tanlash
- Nikoh shartnomasini tuzish
- Turarjoyi tanlash
- Nikoh tuzish yoki ajrashish vaqtida familiya tanlash
- Mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish
- Kasb tanlash

MAJBURIYATLARI

- Oiladagi munosabatlarni o'zaro yordam asosida qurish
- Farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi borasida g'amxo'rlik qilish
- O'z farzandlarining farovonligi va kelajagi haqida qayg'urish
- Oilaning farovon va mustahkam bo'lishiga harakat qilish
- Voyaga yetmagan farzandlari yetkazgan zararni qoplash



Er-xotin bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini birgalikda hal qilish huquqiga ega. Ya'ni er-xotin bolalari qaysi bog'chaga, maktabga, to'garaklarga borishi, sportning qaysi turi bilan shug'ullanishi kabi masalalarni birgalikda hal qiladilar. Ichki oilaviy masalalar er-xotinning o'zaro kelishuvi bilan hal qilinadi.

Er va xotin konstitutsiyaviy huquq hisoblangan erkin kasb tanlash huquqidan teng foydalanadilar. Ular xohlagan kasb turini tanlashlari mumkin. Kasbni egallash uchun ular bilim olish huquqiga ham ega. Er-xotinning har biri mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashda ham teng huquqqa ega.

Er-xotin shaxsiy huquqlar bilan birga majburiyatlarga ham egadirlar. Er-xotin farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur. Oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti borasida g'amxo'rlik qilish ham shular jumlasidandir. Bola tarbiyasida er-xotin birday majburiyatni bajaradi. Bolaning erishgan yutuqlari er-xotinning birgalikda olib borgan faoliyati natijasidir, bolaning nojo'ya ishlari yoki qilmishlari esa er-xotinning tarbiyadagi salbiy jihatlari hisoblanadi.



Er-xotinlarning mulkiy huquq va majburiyatlari shaxsiy huquq va majburiyatlari bilan bir vaqtning o'zida vujudga keladi. Er-xotinning nikohgacha mavjud bo'lgan mulki ularning shaxsiy mulki, nikoh davrida orttirilgan mulklari esa umumiy mulki hisoblanadi.

Jumladan, er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. Masalan, nikoh rasmiylashtirilguncha ahdlashgan bo'lajak er-xotin birga biror-bir buyum sotib olgan bo'lsa, bu mulk ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.



Ayrim oilalarda ayol uy-ro'zg'or ishlarini yuritib, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'ladi va mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmaydi. Shunday paytlarda xotin erining daromadiga nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi. Shuningdek, er va xotin birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga ega bo'ladilar.


Nikohgacha er va xotinning o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, nikoh davomida hadya yoki meros tariqasida olgan mol-mulki ularning o'z mulki hisoblanadi.

Nikohlanuvchi shaxslarning, shuningdek, er va xotinning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi ham bo'lishi mumkin. Bu kelishuv "nikoh shartnomasi" deb ataladi. Nikoh shartnomasi nikoh rasmiylashtirilguncha yoki nikoh davrida ham tuzilishi mumkin. Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanadi.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro mod-



diy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab oladi. Shuningdek, nikoh shartnomasi nikoh tugatilganda er va xotindan har biriga beriladigan mulk aniqlab olinadi. Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi mumkin. Shuni ham esda tutish kerakki, er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib qo'yuvchi holatlarda nikoh shartnomasi haqiqiy emas deb topilishi mumkin.



OILADA OTA-ONANING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Oilada farzand dunyoga kelgandan so'ng er-xotin "ota-ona" degan maqomga ega bo'ladi. Bu maqom ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Uning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksida o'z aksini topgan.

Jumladan, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlirlar, degan huquqiy me'yor konstitutsiyaviy asosga ega.

Har bir ota-ona farzandini boqib, tarbiyalab, odob-axloqli, iqtidorli, jamiyat uchun foydali shaxs etib kamolga yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Chunki Abdulla Avloniy bobomiz aytib o'tganlaridek, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Farzandga to'g'ri tarbiya berish esa oiladan boshlanadi. Bunday mas'uliyat ota-ona zimmasida bo'ladi.

Darhaqiqat, bola shaxsining mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor berish, bolaning izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlashda ota-onaning o'rni kattadir. Chunki ular bola tarbiyasi uchun javobgardir.





Ota-ona bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti borasida g'amxo'rlik qiladi. Farzand tarbiyasida boshqa shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega. Ota-ona bolalarining ta'lim olishini ta'minlaydi. Farzandlari voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalash majburiyati bilan birga ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish ham ota-onaning zimmasiga yuklatilgan.

Ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanib, ular o'z farzandlarining huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari sifatida har qanday jismoniy va yuridik shaxs bilan munosabatlarda, sudda ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari deganda nima tushuniladi?
2. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlarini qanday tushunasiz?
3. Er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi qanday vujudga keladi? Ularning farqi nimada?
4. Ota-onaning huquq va majburiyatlari deganda nima tushuniladi?
5. Ota-ona farzandining huquq va manfaatlarini qanday himoya qiladi? Uning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksidan toping.



Mustaqil ish uchun topshiriq

1. A. to'rt yil S. bilan er-xotin bo'lib yashadi. Birgalikda turarjoy olishdi. A. uyni S.ning nomiga rasmiylashtirdi. A. ajralish maqsadida sudga murojaat qilib, turarjoyini bo'lib berishni so'radi. S. esa A.ning da'volarini rad etib, turarjoy faqat unga tegishli ekanligini aytdi.

Savol.

S.ning xatti-harakati to'g'rimi? Sizningcha, sud qanday qaror qabul qiladi? Javobingizni Oila kodeksidagi me'yorlar bilan asoslab bering.

2. Oila tarqalib ketdi, ota kasalmand bolali onaga yordam berishdan bosh tortdi. Ayol bir necha marta iltimos qilishiga qaramay, ota bunga e'tibor bermadi, ba'zida hatto qo'pollik bilan: "Menga sen ham, bola ham kerak emas!" deb javob berdi.

Savol. Ona va farzand huquqlarini himoya qilishning qanday huquqiy me'yorlari mavjud?



14-DARS. OILADA BOLALARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

*Odamlar! Eng avvalo ezgu axloqqa ega bo'lishga harakat qiling,
zero, axloq qonunning asosidir.*

Pifagor



Siz bilib olasiz

Bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi.
Bola huquqlari va uning kafolatlari.
Farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyatlari.

BOLALARNING OILADA YASHASH VA TARBIYALANISH HUQUQI

Farzand dunyoga kelgach, ota-ona oldida juda katta mas'uliyat vujudga keladi. Avvalo, "farzand" va "bola" tushunchalariga e'tibor qaratsak. Farzandni "oilaning chirog'i, suyanchig'i, kelajagi" kabi iboralar bilan ta'riflash mumkin.

BMTning 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida "bola" tushunchasi huquq subyekti sifatida tan olingan.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunida "bola" tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Bola – o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar bo'lgan shaxs"dir. Demak, 18 yoshga to'lmagan, voyaga yetmagan shaxslar bola hisoblanar ekan.

Farzandlarga tegishli huquqlar "bola huquqi" tushunchasiga taalluqli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga ko'ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bolani o'z ota-onasi tarbiyalaydi. Bola o'z manfaatlarining ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.



Shuningdek, bola ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish, o'zini himoya qilish, o'z fikrini erkin ifoda etish, ism, otasim va familiya olish huquqlariga ham ega. Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi.



BOLA HUQUQLARI VA UNING KAFOLATLARI

Mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli farmoniga ko'ra, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili – Bolalar ombudsmani instituti ta'sis etildi. Endi bolalar bilan bog'liq barcha masalalar vakil ishtirokida amalga oshiriladi. Jumladan, bolalar ombudsmani Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini bajarish strategiyasini va

bola huquqlari masalalari bo'yicha boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi.

Bolalar hamda ularning qonuniy vakillarining bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishi to'g'risidagi murojaatlarini ko'rib chiqish orqali bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko'ra, bola



– bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlari bilan ko'rishib turish huquqiga, voyaga yetmagan bola ota-onadan ta'minot olish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko'ra, bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, oilada o'zining manfaatlariga taalluqli masala hal qilinayotganda o'z fikrini ifoda etish, ism, otasim va familiya olish huquqiga ega. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi.

FARZANDLARNING OTA-ONA OLDIDAGI MAJBURIYATLARI

Bola yuqoridagi huquq va erkinliklar bilan bir qatorda farzand sifatida muayyan majburiyatlarga ham ega. Darhaqiqat, har bir farzand zimmasiga o'z ota-onalariga nisbatan behisob burch va vazifalar yuklanadi. Bu esa farzandlarning ota-onalari gaplariga quloq tutishlari, ota-onalar buyurgan uy yumushlarini bajarishlari asosida amalga oshiriladi. Chunki ota-onalar farzandlarini mehr-muhabbat va shafqat, kuch-g'ayrat va mablag'larini ayamay kamolga yetkazadilar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onasiga ta'minot berishlari va ularga g'amxo'rlik qilishlari shart.

Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-onaga g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onasining kasalligiga va boshqa uzrli sabablarga ko'ra qilinadigan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok



etishlari shart. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar tomonidan qo'shimcha xarajatlar ixtiyoriy ravishda qoplanmasa, talab qilinayotgan summa sud tartibida undiriladi. Ota-onasiga moddiy yordam berish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarorlarini bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Har bir farzand ota-onasining ko'nglini olish, duolariga sazovor bo'lish, xizmatlarida kamarbasta turish, yaxshi ishlari va hadyalari bilan ularni xursand qilish harakatida bo'lishi lozim.



Yodda tuting

Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi, 78-modda.**



Savol va topshiriqlar

1. Oilada bola qanday huquqlardan foydalanadi?
2. Bolaning tarbiyalanish huquqi deganda nima tushuniladi?
3. O'zbekiston Respublikasida bola huquqlarining kafolatlariga oid qanday me'yorlar o'rnatilgan?
4. Farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlariga nimalar kiradi, ularning qisqacha mazmunini bayon eting.
5. Siz bola huquqlariga yana qanday huquqlarni kiritgan bo'lar edingiz?



Mustaqil ish uchun topshiriq

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni-ning 10-moddasida belgilangan quyidagi huquq me'yorlaridan kundalik hayotda foydalanyapsizmi? Asoslab bering.

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, turarjoy daxlsizligi va xat-xabarlarini sir tutish huquqiga ega.

Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalani huquqiga ega. Bola qonunga asoslan-magan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi mumkin emas...



15-DARS. OTA-ONA HAMDA BOLALARNING ALIMENT HUQUQI VA MAJBURIYATLARI

Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi.
Abdurauf Fitrat



Siz bilib olasiz

“Aliment” tushunchasi.

Aliment turlari.

Bolalarga va ota-onalarga beriladigan ta'minot.

“ALIMENT” TUSHUNCHASI

Oiladagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda oila a'zolarini moddiy ta'minlash uchun ularga to'lanadigan nafaqa sifatida aliment joriy qilingan. Bu oila a'zolariga g'amxo'rlik qilishning yana bir shakli hisoblanadi.

“Aliment” tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin. Aliment (lot. *alumentum* – qaramog'idagi, boqimidagi) bir shaxsning boshqa shaxsga majburan yoki ixtiyoriy ravishda to'laydigan nafaqasi hisoblanadi. Aliment majburiyati nikoh, qarindoshlik, ota-ona, farzandlik, farzandlikka olish, bolalarni tarbiyaga olish natijasida kelib chiqadi. Alimentlar har oyda to'lab boriladi.

Alimentni to'lash ota-onaning o'zaro kelishuvi bilan ixtiyoriy to'lanishi mumkin. Buning uchun aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuziladi.

Bu kelishuv aliment to'laydigan shaxs bilan aliment oluvchi shaxs o'rtasida yozma shaklda tuziladi, notariusda tasdiqlanadi. Ushbu kelishuv aliment to'laydigan shaxs bilan aliment oluvchi shaxsning o'zaro roziligi bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Ota-ona o'rtasidagi kelishuv bolaning manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak.

Agar ota-onaning kelishuvi bo'lmasa, aliment ixtiyoriy to'lanmasa, bu masala sud tomonidan hal qilinadi. Buning uchun sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilinadi. Aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab undiriladi.

Alimentlarning miqdori aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvda va sud tomonidan belgilanadi. Aliment miqdorini belgilashda taraflarning, ya'ni aliment to'laydigan shaxs bilan aliment oluvchi shaxsning moddiy va oilaviy sharoitlari e'tiborga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga ko'ra, aliment bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lganda qarzdorlik to'liq bartaraf etilguniga qadar qarzdorning transport vositasini boshqarish huquqi vaqtincha cheklanadi, aliment bo'yicha qarzdorlik mavjudligi nikoh tuzishga monelik qiladigan holat sifatida belgilanadi.

Shuningdek, “Aliment to'lovlari” jamg'armasi tashkil etiladi. Aliment to'laydigan shaxs alimentni uch oy ichida to'lay olmagan hollarda ushbu jamg'armadan qarzdorlik to'lanadi va keyinchalik aliment to'lash majburiyati yuklatilgan qarzdordan majburiy tartibda undirib olinadi.

ALIMENT TURLARI

Aliment turli shakllarda to'lanadi. Oila kodeksida buning huquqiy asoslari belgilab berilgan. Voyaga yetmagan bolalar va mehnatga layoqatsiz hamda yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetgan bolalar aliment olish huquqiga egadirlar. Bundan tashqari, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin ham bunday alimentni sud tartibida olish huquqiga ega.



Agar voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmasa, ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilmasa, vasiylik va homiylik organlari aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'ata oladi.

Er-xotin o'rtasida aliment to'lash to'g'risida kelishuv bo'lmasa, er yoki xotinga sud tomonidan beriladigan aliment miqdori har oyda pul bilan to'lanadigan summada belgilanadi.

Er-xotinning bir-biriga ta'minot berish majburiyati qonuniy nikohdan o'tgan shaxslarga yuklatiladi.


Er-xotinning bir-biridan ta'minot olish huquqi nikohdan ajralgan, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin yangi nikohga kirganda tugaydi. Voyaga yetmagan, shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj shaxslarga ta'minot berish majburiyati sud tomonidan ularning qarindoshlari: bobo, buvi, nevara, aka-uka, opa-singil, shuningdek, o'gay ota va o'gay ona, o'gay o'g'il va o'gay qizlari zimmasiga yuklatilishi mumkin.



Aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotganida qonunga muvofiq o'zi ta'minot berishi lozim bo'lgan aliment oluvchilar bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishi shart.



BOLALARGA VA OTA-ONALARGA BERILADIGAN TA'MINOT




Yuqorida aliment bir necha turlarga bo'linishini ta'kidlab o'tdik. Endi ushbu aliment turlaridan bolalarga beriladigan aliment va ota-onalarga beriladigan moddiy ta'minotga to'xtalamiz. Yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan barkamol inson qilib voyaga yetkazish muhim hisoblanadi. Oila kodeksiga ko'ra, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart deb belgilangan. Bunda ota-onaning aliment to'lash majburiyatlari teng bo'ladi.

Ota-ona alimentni ixtiyoriy yoki majburiy to'laydi. Ixtiyoriy aliment to'lash deganda ota-onaning o'zaro kelishuvi asosida to'lanadigan aliment tushuniladi. Majburiy aliment to'lash deganda ota-ona alimentni ixtiyoriy to'lamaganda sud tomonidan majburiy belgilangan va to'lash talab etiladigan aliment tushuniladi. Aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadi hisobidan to'lanadi.

Aliment bir bola uchun – to'rtidan bir qismi; ikki bola uchun – uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun – yarmi miqdorida undiriladi. Aliment undirishda bolaning ota-onasi o'zaro nikohda ekani yoki ular o'rtasidagi nikoh tugatilgani ahamiyatli emas. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot bo'yicha ham ota-onaning kelishuvi asosida yoki sud tartibida belgilanadi.

Voyaga yetmagan bolani davlat yoki nodavlat muassasalari to'liq ta'minlashi ham mumkin. Ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish davlat tomonidan to'liq amalga oshiriladi. Mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj voyaga yetgan bolalar o'z ta'minoti uchun aliment talab qila oladi.

Ayrim hollarda voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga qaramay, e'tibordan chetda qoldiradilar. Bunda, birinchidan, farzandlar konstitutsiyaviy maj-





buriyatni bajarmagan hisoblanib, huquqbuzarlik sodir etgan bo'ladilar. Ikkinchidan, Oila kodeksidagi me'yorlarga rioya qilmay, qonunni buzadilar. Uchinchidan, farzand sifatida ota-onalariga mehr-oqibatni unutib, insoniy fazilatlarga befarq bo'ladilar. Oila kodeksining 109-moddasiga ko'ra, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar yordamga muhtoj o'z ota-onasiga moddiy ta'minot berishlari va ularga g'amxo'rlik qilishlari shart. Bu esa ota-ona uchun g'amxo'rlik qilish majburiyatining qonuniy asosi hisoblanadi va ota-onaning huquqlarini kafolatlaydi.

Farzandlar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovlasalar, ta'minot berish masalasini sud hal qiladi. Sudning ushbu qarorini bajarmagan shaxs javobgarlikka tortiladi.

Ota-ona aliment undirish bo'yicha talabni o'z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo'yganidan qat'i nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga oladi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan aliment undirish nizosi uzil-kesil hal bo'lgunga qadar vaqtincha to'lab turilishi lozim bo'lgan summa belgilanadi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasligi kerak.



Savol va topshiriqlar

1. Ota-ona o'z farzandi oldida qanday majburiyatlarni bajaradi?
2. Aliment majburiyati deganda nima tushunasiz?
3. Ota yoki onadan qanday tartibda aliment undiriladi?
4. Bolalarga beriladigan alimentning miqdori qancha?
5. Farzandlarga o'z ota-onasiga moddiy ta'minot berish majburiyati yuklatilganmi? Oila kodeksi asosida izoh bering.



Mustaqil ish uchun topshiriq

Fuqaro A. fuqaro B. bilan 2020-yil turmush qurdi. 2021-yilda ularning egizak farzandlari dunyoga keldi. Ammo oradan bir yil o'tgach, er-xotin o'rtasida kelishmovchilik yuzaga keldi va oila ajradi. Eri ikkala farzandini o'zida qoldirdi va farzandlari uchun barcha sharoitni yaratib berdi. Xotini farzandlari erida qolishiga e'tiroz bildirmadi. Bolalarning otasi farzandlarini boqib, ularga ta'lim-tarbiya berdi. Xotini bu davrgacha eri bilan yashamayotgani sababli bolalaridan xabar ham olmadi.

2023-yilda eri aliment undirish masalasi bo'yicha sudga da'vo arizasi bilan murojaat qildi. Sudda bolalarning onasi "Men aliment bermayman, erim o'zining xohishi bilan bolalarimni olib qolgan" deb aliment berishdan bo'yin tovladi.

Savol. Farzandlarning otasi onadan aliment undirishi mumkinmi? Aliment to'lamaslik uchun farzandlarning onasi keltirgan vajlar to'g'rimi? Oila kodeksi asosida fikrlaringizni asoslab bering.



16-DARS. IJODIY FAOLIYAT

*Muammolar aqlli insonlarni chora ko'rishga,
nodonlarni esa tushkunlikka tushishga undaydi.*
Yuliy Sezar

NAMUNA

1-topshiriq. Quyidagi vaziyatni o'rganing va savollarga javob bering.

Maktabni tugatish arafasida turgan 16 yoshli qizning uyiga sovchilar kela boshlagan. Qizning oilasidagi 80 yoshli buvisi har safar sovchi kelganida "Menga sening to'ying nasib qilarmikan?" deb ko'ziga yosh olib, qizning otasiga umidvor bo'lib qarab qo'yar edi. Bu holatni ko'rgan qizning otasi "Siqilmang, onajon, yozga chiqib to'y qilamiz", deb onasini yupatadi. Qizning onasi esa "Hali qizimiz yosh, oila qurishga tayyor emas", deb sovchilarga rad javobini berib yuboraveradi.

Savollarga javob bering.

1. Sizningcha, "Hali qizimiz yosh, oila qurishga tayyor emas" deganda qizning onasi nimani nazarda tutgan?
2. Mazkur vaziyatda otaning qaroriga sizning munosabatingiz qanday?
3. Nikoh va oila munosabatlarining huquqiy asoslarini yoritib bering.
4. Nikohni rasmiylashtirish tartibini bayon eting.

2-topshiriq. Oilaviy huquqiy munosabatlardagi ayrim muammolarni tahlil qiling va jadvalni to'ldiring.

Muammo	Sabab	Oqibat	Yechim
Erta nikoh			
Oiladagi mulkiy nizolar			
Farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi			
Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh			
Bolalarga aliment to'lamaslik			
Ota-onalarga g'amxo'rlik qilmaslik			



NAZORAT ISHI

*Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm,
eng katta meros bu – yaxshi tarbiya,
eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir!*
Shavkat Mirziyoyev

Bob yuzasidan test savollari

1. Nikoh bu – ...

- a) ikki yoshning FHDYda ixtiyoriy bitim rasmiylashtirishi
- b) erkak va ayolning bitimi
- c) erkak va ayolning birga yashashi, umumiy ro'zg'orga ega bo'lishi
- d) erkak va ayol FHDYda ixtiyoriy kelishuv rasmiylashtirishi

2. Er-xotinning huquq va majburiyatlari vujudga kelish vaqtini aniqlang.

- a) nikoh FHDYda qayd etilgan vaqtdan
- b) FHDYga ariza berilgan kundan
- c) to'y marosimlari o'tgan kundan
- d) unashtirilgan kundan

3. Er-xotinning familiyasi nikoh tuzishda o'zgaradimi?

- a) o'z familiyasida qolishi, er yoki xotinning familiyasiga o'tishi mumkin
- b) erining yoki xotining familiyasiga o'tishi mumkin
- c) faqat erining familiyasiga o'tishi kerak
- d) har biri o'z familiyasida qoladi

4. Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulkini aniqlang.

- a) nikohdan o'tgan kundan boshlab orttirilgan mulk
- b) ota-onadan meros bo'lib qolgan mulk
- c) er-xotinning nikohdan oldingi va keyingi mulklari
- d) turarjoy, mashina va shularga teng keladigan mulklar

5. Ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar farzandlariga ta'minot beradilarmi?

- a) bermaydi
- b) beradi
- c) berish-bermaslik ularning xohishi
- d) imkoniyati bo'lsa, beradi

6. Nikohni bekor qilish tartibini ko'rsating.

- a) FHDY yoki sud
- b) faqat FHDYda
- c) sud va hokimlikda
- d) faqat sud

7. FHDYga ariza bergandan keyin nikohni qayd etish muddati qancha?

- a) 1 oy
- b) 2 hafta
- c) 20 kun
- d) 10 kun



8. Nikoh tuzishga monelik qilmaydigan holatlarni aniqlang.

- a) loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda bo'lsa
- b) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida bo'lsa
- c) loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa
- d) ota-onalarining o'zaro kelishuvi bo'lmasa

9. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a) vasiylik
- b) homiylik
- c) qarindoshlar
- d) buvisi va bobosi

10. "Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" degan qoida qaysi huquqiy hujjatda belgilangan?

- a) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida
- b) Fuqarolik kodeksida
- c) Oila kodeksida
- d) Mehnat kodeksida

Topshiriq. Qanday hollarda ajrim holatlari FHDYda yoki sudda ko'riladi? 3–4-ustunga "+" belgisini qo'yish orqali qaysi organga tegishli ekanini aniqlang.

No	Holatlar	FHDY organlarida	Sudda
1	Er-xotin o'rtasida umumiy voyaga yetmagan farzandlar borligi		
2	Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi to'g'risida kelishuv bo'lmaganida		
3	Voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin o'zaro rozi bo'lsa		
4	Aliment majburiyatlari kelishuvi yo'q bo'lsa		
5	Er-xotin o'rtasida mulkiy nizo bo'lganida		
6	Umumiy voyaga yetmagan bolalari bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, er-xotindan birining roziligi bo'lmasa		

III BOB. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR



17-DARS. FUQAROLIK HUQUQI ASOSLARI

*Vijdoningga teskari yurma va haqiqatga zid narsani gapirma.
Shu muhim nasihatga rioya qilsang,
hayotingda o'z oldingga qo'ygan vazifalarni to'la ado etasan.*
Mark Avreliy



Siz bilib olasiz

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar.
Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi.
“Bitimlar” tushunchasi.

FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar konstitutsiyaviy, oilaviy, ma'muriy, mehnat, fuqarolik, ekologik, xalqaro kabi huquq sohalari bilan tartibga solinadi.

Fuqarolarning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, bilim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, saylash, saylanish, murojaat qilish, mulkdor bo'lish kabi shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari siz quyi sinfda tanishgan konstitutsiyaviy huquq bilan tartibga solinadi.

Kundalik hayotda har bir shaxs O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va erkinliklardan foydalanish bilan birga boshqa huquq sohaslariga tegishli huquqiy munosabatlarda (masalan, kundalik ehtiyojlaridan kelib chiqib, do'kondan mahsulot sotib olish, transportdan foydalanganlik uchun haq to'lash, mulkka egalik qilish kabi munosabatlarda) ham ishtirok etadi.

Ushbu huquqiy munosabatlar iqtisodiy, ya'ni mulkiy xarakterga ega. Chunki oldi-sotdi, yoki chipta olish jarayonida o'rtada pul bo'ladi. Pul esa mulkiy xarakterga ega.

Bu munosabatlarda bir taraf o'z ehtiyojidan kelib chiqib, o'ziga kerakli narsa yoki buyumni sotib olish uchun ikkinchi tarafga pul beradi, ikkinchi taraf esa berilgan pul evaziga birinchi tarafga u xohlagan narsa yoki buyumni berishga majbur bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, bu ikki taraf ishtirok etadigan munosabat mulkiy xarakterga ega. Mulkiy xarakterga ega bo'lgan munosabatlarni, ayrim hollarda nomulkiy munosabatlarni ham fuqarolik huquqi tartibga soladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etadigan taraflarda o'ziga xos bo'lgan majburiyat va huquq kelib chiqadi.

Ya'ni mahsulot sotib olgan taraf (xaridor) pul to'lash majburiyatini olsa, pulni olgan taraf (sotuvchi) xaridorga mahsulotni berish majburiyatini oladi. O'z navbatida, pul to'lagan taraf (xaridor) to'lagan puli evaziga mahsulotni olish huquqiga ega bo'lsa, (sotuvchi) mahsulotni xaridorga bergani uchun pul talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNING VUJUDGA KELISHI

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, fuqarolik huquqi tartibga soladigan munosabatlarning asosi mulkiy xarakterga ega ekan, ushbu fuqarolik-huquqiy munosabat taraflarning mulkiy xarakterga ega bo'lgan xatti-harakati (oldi-sotdi, qarz, bankka pul qo'yish, kredit olish kabilar) natijasida kelib chiqadi.



Fuqarolik-huquqiy munosabatlar inson sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, mualliflik huquqi kabi huquqiy munosabatlarni ham tartibga soladi. Bu munosabatlar “nomulkiy munosabatlar” deb ataladi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar mulkiy munosabatlardan farq qiladi, shaxsiy nomulkiy munosabatlar pul bilan ifodalanmaydi, balki shaxsning o'zi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, muallifning sha'ni, qadr-qimmati shular jumlasidandir.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar shu munosabatda ishtirok etuvchi shaxslarning erki (xohishi) asosida vujudga keladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirok etuvchilarga teng huquq beradi, ularga imkon boricha erkinlik, mustaqillik va tashabbuskorlik beradi. Demak, shunday xulosaga kelish mumkinki, fuqarolik huquqi sohasi shaxslar o'rtasidagi mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolik huquq va burchlar mulkiy va nomulkiy munosabatlarda ishtirok etayotgan shaxslarning harakatlari asosida vujudga keladi hamda ular shartnomalar va bitimlarda aks etadi.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Bunda fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutiladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda taraflarning xohish-irodasi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o'z xohishlari bilan yoki kelishuv asosida ishtirok etadilar. Shaxslar o'zlariga tegishli bo'lgan fuqarolik huquqlarini, jumladan, ularni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar. Shaxsning o'zi ham fuqarolik huquqini himoya qilishi mumkin.



“BITIMLAR” TUSHUNCHASI

Yuqorida ta'kidlanganidek, bitimlar fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlardir. Bitimlar shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini keltirib chiqaradigan kelishuvdir. Aynan bitim fuqarolik-huquqiy munosabatni vujudga keltiradi. Bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko'p taraflama (shartnomalar) bo'lishi mumkin.

Agar bitim bir tarafning xohishi bilan tuzilgan bo'lsa, bunday bitim “bir taraflama bitim” deb ataladi. Bir taraflama bitim tuzilganda uni tuzgan shaxs uchun burchlar paydo bo'ladi. Agar bitim ikki tarafning xohishi bilan tuzilgan bo'lsa, ikki taraflama bitim hisoblanadi. Agar bitim uch va undan ko'p taraf kelishgan holda xohish bildirib tuzilgan bo'lsa, “ko'p taraflama bitim” deyiladi. Bitimlar og'zaki va yozma shaklda tuziladi va u oddiy yo'l bilan yoki notarial tasdiqlanadi. Qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida yozma shakl belgilab qo'yilmagan, jumladan, u tuzilayotgan vaqtning o'zidayoq bajariladigan bo'lsa, bunday bitim og'zaki tuzilishi mumkin. Masalan, xaridor o'z ehtiyojiga kerak bo'lgan mahsulotni tanlaydi va uning haqini (pulini) sotuvchiga o'z xohishi bilan to'laydi. Bunda shaxsning xatti-harakatidan uning bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodasi aniq bo'ladi. Yozma shaklda

tuzilgan bitim taraflarning xohish-irodasi bilan imzolanadi.

Bitim vakil tomonidan ham tuzilishi mumkin. Vakillik vakilni vakolat beruvchi shaxs bilan bog'laydigan huquqiy munosabatdir. U bitimni amalga oshiradi. Chunki unga ma'lum bir vakolatlar beriladi.

O'n to'rt yoshga to'lmagan shaxs hamda o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs, shuningdek, muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan tuzilgan bitim haqiqiy hisoblanmaydi.



Yodda tuting

Notariat jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga da'vat etilgan huquqiy institutdir. Notarial harakatlar O'zbekiston Respublikasi-ning "Notariat to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi. Davlat notarial idoralari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Fuqarolarning huquqlari deganda nima tushuniladi?
2. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardan qanday farq qiladi?
3. Shaxslar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga misollar keltiring.
4. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar qanday vujudga keladi?
5. "Bitimlar" tushunchasiga izoh bering.
6. Fuqarolik kodeksi yordamida bitimlar, ularning turlari va shakllarini izohlang.



Mustaqil ish uchun topshiriq

1. Fuqarolarning huquqlariga, fuqarolik mulkiy munosabatlariga va fuqarolik nomulkiy munosabatlariga misollar keltirib, jadvalni to'ldiring.
2. Axloqiy munosabatlar va huquqiy munosabatlar qanday me'yorlar bilan tartibga solinishini og'zaki bayon eting.

Fuqarolarning huquqlari	Fuqarolik mulkiy munosabatlari	Fuqarolik nomulkiy munosabatlari



18–19-DARS. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT SUBYEKTLARI VA OBYEKTлари

*Bir soʻz sening fikringni oʻzgartirishi mumkin,
bir tuygʻu sening hayotingni oʻzgartirishi mumkin,
bir inson seni oʻzgartirishi mumkin.*

Konfutsiy



Siz bilib olasiz

Fuqarolik huquqida “shaxslar” tushunchasi.
Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari.
Fuqarolik-huquqiy munosabat obyektlari.

FUQAROLIK HUQUQIDA “SHAXSLAR” TUSHUNCHASI

“Odam”, “kishi”, “inson”, “fuqaro”, “shaxs” kabi soʻzlarga duch kelgansiz.

Bu tushunchalar bir maʼnoda tushunilsa-da, ularning oʻziga xos jihatlari mavjud. Odam barcha jonzoatlarning eng yuqori pogʻonasida turadigan mavjudot boʻlib, u ijtimoiy jarayonlar subyekti hisoblanadi, yaʼni odam tirik mavjudotning fiziologik, tibbiy, anatomik mazmuniga ega. Odam atrof-muhitga faol taʼsir koʻrsata olishi bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi.

Kishi – jins nuqtayi nazaridan odamning ayol kishi yoki erkak kishi ekanini bildiradi, bu tushuncha koʻproq ijtimoiy mazmunga ega.

“Inson”, “fuqaro”, “shaxs” tushunchalari huquqiy nuqtayi nazardan odamning huquqiy maqomini ochib beradi. Masalan, inson va fuqaroning huquq va erkinliklari, burchlari va hokazolar.

“Shaxs” tushunchasi falsafiy, ijtimoiy, axloqiy tushuncha boʻlib, u oʻzida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxsning hayot tarzi jamiyat hayotiga daxldor va “hayot” neʼmatlaridan toʻla foydalanishga haqli. “Shaxs” tushunchasi “inson” tushunchasining yuksak koʻrinishi, huquqiy maqomidir.

Huquqshunoslikda shaxs ikki turga boʻlinadi: jismoniy shaxs va yuridik shaxs. Jismoniy shaxs siz bilgan “inson” maʼnosiga mos keladi. Yuridik shaxs korxona yoki tashkilot boʻlishi mumkin. Yaʼni ular faqatgina yuridik jihatdan qonunchilikdagi baʼzi hujjatlardagina shaxs sifatida mavjud boʻlgani uchun “yuridik shaxs” degan atamadan foydalaniladi.

Baʼzilar yuridik shaxs deganda yuridik sohada ishlovchi sudya, prokuror yoki advokat kabilarni tushunadi. Ularni mutaxassisliklaridan kelib chiqqan holda umumiy tarzda “yuristlar” deb atash mumkin.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda aynan ushbu shaxslar ishtirok etadi.

Shuningdek, davlat ham fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan baravar asoslarda ishtirok etadi.

FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT SUBYEKTLARI

Fuqarolik munosabatlarida ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat “fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari” deb ataladi. Jismoniy shaxslar deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi. Jismoniy shaxslarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishlari ularning huquq layoqati va muomala layoqatiga bog‘liq bo‘ladi.

Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati “huquq layoqati” deb ataladi. Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Masalan, fuqarolarning mol-mulkka ega bo‘lishlari, mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari, bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari, bitimlar tuzishlari, yetkazilgan zararining to‘lanishini talab qilishlari, intellektual faoliyat yuritib, mualliflik huquqiga ega bo‘lishlari shular jumlasidandir.

Fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish layoqati “muomala layoqati” deb ataladi. Bunda muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxs, masalan, bitim yoki shartnoma tuzish, mahsulotlar xarid qilib olish, tadbirkorlik va mualliflik huquqini amalga oshirish kabi munosabatlarda ishtirok etadi. Fuqaro voyaga yetganida, ya‘ni o‘n sakkiz yoshga to‘lganida to‘la muomala layoqati vujudga keladi.

Qonunga ko‘ra, hech kimning huquq va muomala layoqati (qonunda ko‘zda tutilgan hollardan tashqari) cheklanishi mumkin emas.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalarining roziligisiz o‘zining ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini ishlatishi, mualliflik huquqini amalga oshirishi mumkin.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar o‘zlari tuzgan bitimlar bo‘yicha mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladilar va ular o‘zlari yetkazgan zarar uchun ham javobgar hisoblanadi. Chunki ular bitimda kelishilgan shartlarni bajaradilar.



Muomalaga layoqatsizlik – muomalaga layoqati sud qarori bilan cheklangan hamda 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar.



To‘liq bo‘lmagan muomala layoqati – 6–14 yosh va 14–18 yosh oraliq‘ida bo‘lgan voyaga yetmaganlar, muomalaga layoqati sud qarori bilan cheklanganlar



To‘liq muomala layoqati – 18 yoshga yetganlar, emansipatsiya holatidagi voyaga yetmaganlar



Voyaga yetmagan shaxsni to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilish emansipatsiya hisoblanadi. Ya'ni 18 yoshga to'lmagan ham emansipatsiya holatida shaxs to'liq muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Mulkiy munosabatlarda hatto o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar ham mayda maishiy bitimlarda ishtirok etishlari mumkin. Masalan, ota-ona pul bersa, bola do'kondan non, sut, qalam, ruchka kabi kundalik zaruriy mahsulotlarni mustaqil sotib olishi mumkin. Kichik yoshdagi bolaning bitimlari bo'yicha uning ota-onasi mulkiy javobgar bo'ladi. Ular yetkazgan zarar uchun ota-ona javobgardir.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan, ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonunchilikda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Vasiy muomalaga layoqatsiz fuqaro nomidan bitimlarni amalga oshiradi.

Vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'liq layoqatli bo'lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun hamda voyaga yetmaganlarni tarbiyalash maqsadida ham belgilanadi. Vasiylar va homiylar o'z himoyalardagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda jismoniy shaxslardan tashqari yuridik shaxslar ham ishtirok etadi. Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa ishtirokchilar kabi qatnashadi. Davlat nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ishtirok etadilar. Davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bo'lgan mablag'lari bilan javob beradi.


Yuridik shaxslar o'zining mulkiga va mustaqil balans yoki smetasiga ega bo'lgan, majburiyatlarni bajara oladigan tashkilotlardir. Yuridik shaxslar tashkilotlar o'rtasida oldi-sotdi, mahsulot yetkazish, kredit berish kabi munosabatlarda qatnashadi. Yuridik shaxslar tarkibiga xo'jalik birlashmalari, tashkilotlar, muassasa va idoralar kiradi. Ushbu tashkilotlarning huquq layoqati va muomala layoqati, tashkil etilishi kabi me'yorlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida berilgan.

FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT OBYEKTлари

Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining xatti-harakati nimaga qaratilgan bo'lsa, ana shu narsa fuqarolik-huquqiy munosabatning obyekti hisoblanadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyekti moddiy va nomoddiy ne'matlar shaklida bo'ladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarining obyekti ashyo hisoblanadi. Ashyo deganda insonning muayyan ehtiyojlarini ta'minlaydigan va uning egaligida bo'lishi mumkin bo'lgan barcha moddiy ne'matlar tushuniladi. Ashyolar muayyan moddiy qiymatga ega hamda iqtisodiy munosabatning predmeti bo'la oladigan narsalargina bo'lishi mumkin. Masalan, jonli ashyolarga uy hayvonlari, jonsiz ashyolarga uy-joylar, ishlab chiqarish qurollari, asbob-uskunalar, kiyim-kechaklar misol bo'la oladi. Ashyolar xususiy, bo'linadigan va bo'linmaydigan, iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan hamda murakkab ashyolar guruhiga bo'linadi. Mol-mulk deganda biror-bir shaxsga egalik huquqi bilan tegishli bo'lgan ashyolar tushuniladi. Mol-mulk fuqarolik huquqlari obyekti sifatida ko'chmas mulkka va ko'char mulkka bo'linadi. Shuningdek, moddiy ne'matlarga pul, valyuta qimmatliklari, qimmatli qog'ozlar kiradi. Pul (valyuta) deganda naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitob qilish asosidagi qonuniy to'lov vositasi tushuniladi. Qimmatli qog'ozlarga obligatsiya, chek, depozit va jamg'arma sertifikatlar, aksiya kabilar kiradi.

Nomoddiy ne'matlar deganda shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, shaxsiy daxlsizligi,

qadr-qimmati va pok nomi, kasb-kor nufuzi, hayot daxlsizligi, shaxsiy va ommaviy sirlari, erkin ko'chib yurish, turish va yashash joyini tanlash, mualliflik va boshqa shaxsiy mulkiy huquqlari tushuniladi.



Savol va topshiriqlar

1. Fuqarolik huquqida "shaxslar" qanday tushuniladi?
2. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyektlari deganda nima tushuniladi? Jismoniy shaxslarning turlarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
3. Yuridik shaxslarning huquqiy asoslarini sharhlab bering.
4. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning obyektlariga nimalar kiradi? Ularning mazmunini tushuntiring.



Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Xususiyatlar	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar
Ta'rif bering		
Huquq layoqati		
Muomala layoqati		
Huquqiy asoslari		



20-DARS. MULKIY VA NOMULKIY MUNOSABATLAR

*Har bir insonga ikkita katta sovg'a beriladi: miya va vaqt.
Ularni qanday maqsadda ishlatish esa o'z qo'lingizda!*
Robert Kiyosaki



Siz bilib olasiz

“Mulkiy munosabatlar” tushunchasi.

Mulk shakllari.

Nomulkiy munosabatlar va ularning huquqiy asoslari.


“MULKIY MUNOSABATLAR” TUSHUNCHASI

Fuqarolik huquqi tartibga soladigan mulkiy munosabatlar deganda muayyan moddiy-iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan munosabatlar tushuniladi. Masalan, sizga sovg'a qilingan velosipedga egalik qilishingiz, oldi-sotdi, tayyor mahsulotga buyurtma berish, kiyim-boshni tozalatish, poyabzalni ta'mirlash kabi munosabatlar shular jumlasidandir.

Mulk huquqining vujudga kelish asoslari sifatida quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin



Bunda bir shaxs ikkinchi shaxs bilan bog'liq huquqiy munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlar ma'lum bir xizmat natijasi bo'lishi ham mumkin. Masalan, uyga biror mahsulotni buyurtma sifatida olib kelib berish. Shuningdek, mulkiy huquqiy munosabatlar ashyolar yoki mol-mulklarni egallash, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga qaratiladi.



Natijada ular bilan bog'liq mulkiy huquqlar amalga oshiriladi. Mulkiy huquqlar mulk asosida vujudga keladi. Masalan, shaxsga tegishli bo'lgan, uning ixtiyoridagi uy-joy, zeb-u ziynat, kiyim-kechak, ehtiyojni qondiradigan buyumlar mulk huquqini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va



hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik hisoblanadi. Tashkilot, korxona va muassasalarga tegishli mulklar ham bo'ladi. Mehnat faoliyati, mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan, mol-mulkni yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish, davlat mol-mulkini xususiylashtirish, meros qilib olish, egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat kabilar mulk huquqining vujudga kelishi uchun asos hisoblanadi.

MULK SHAKLLARI

Inson narsa, buyum va ne'matlarni sotib olish yo'li bilan o'ziniki qilib olsagina, uni o'zlashtirishi mumkin. Birovga tegishli bo'lgan mulkni o'zlashtirib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining tenghuquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi. Fuqarolik kodeksiga ko'ra, mulk xususiy, ommaviy va umumiy shakllarga bo'linadi.



Xususiy mulk deganda shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulki tushuniladi va u mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'ladi. Xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi. Xususiy mulk daxlsizdir.

Ommaviy mulk deganda davlat mulki hisoblangan, respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk) tushuniladi.



Yer, yerosti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi kabi tabiiy boyliklar respublika mulki hisoblanadi. Shuningdek, moddiy madaniy meros obyektlari, respublika byudjetining mablag'lari, oltin



zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari ham respublika mulki sanaladi.

Respublika mulki obyektlari qonunchilikda belgilab qo'yilgan tartibda va shartlar asosida xususiy mulk qilib berilishi mumkin.

Mahalliy davlat organlarining mol-mulki, o'zining mahalliy byudjet mablag'lari, uy-joy munitsipal mulk hisoblanadi. Bundan tashqari, maktab, bog'cha, teatr, kutubxona, kasalxona, poliklinikalar ham munitsipal mulkdir.

Xususiy, ommaviy mulk shakllaridan tashqari umumiy mulklar ham mavjud. Umumiy mulk ikki va undan ortiq shaxslarning egaligida bo'lgan mol-mulk hisoblanadi. Umumiy mulk shaxslarning kelishuviga asoslanadi.

NOMULKIY MUNOSABATLAR VA ULARNING HUQUQIY ASOSLARI

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, fuqarolik huquqi mulkiy munosabatlar bilan bir qatorda nomulkiy munosabatlarni ham tartibga soladi. Nomulkiy munosabatlar mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Nomulkiy munosabatlarda qiymat moddiy (pul) xarakterda ifodalanmaydi. Ya'ni nomulkiy munosabatlar shaxsning o'zi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, obro'si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, mualliflik huquqi kabi shaxsiy manfaatlar va huquqlari shular jumlasidandir.

Fuqarolik kodeksiga ko'ra, o'zganing sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, bu hol sud yo'li bilan hal qilinadi. Manfaatdor shaxslarning talabiga ko'ra, fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini uning vafotidan keyin ham himoya qilishga yo'l qo'yiladi.

Agar fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar ommaviy-axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy-axborot vositalarida raddiya berilishi lozim.



Savol va topshiriqlar

1. Mulkiy munosabatlar deganda nima tushuniladi va mulkiy munosabatlarda kimlar ishtirok eta oladi?
2. Mulk shakllari qanday turlarga bo'linadi? Ularning mazmunini bayon eting.
3. Qanday tartibda respublika mulki obyektlari xususiy mulk qilib berilishi mumkin?
4. Nomulkiy va mulkiy munosabatlarning farqi nimada?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi tushunchalarga ta'rif bering. Misollar keltiring.

Mulk	Xususiy mulk	Ommaviy mulk	Umumiy mulk

21-DARS. MAJBURIYATLAR

*Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak:
diqqat, intizom va harakat. Yo'qligingda seni himoya qiladigan eng yaxshi
himoyaching axloqingdir.*
Jaloliddin Rumiy



Siz bilib olasiz

“Majburiyat” tushunchasi.

Majburiyatning taraflari.

Majburiyatning vujudga kelishi va bajarilishi.

“MAJBURIYAT” TUSHUNCHASI

“Majburiyat” tushunchasini turli ma'nolarda ishlatish mumkin. Ijtimoiy ma'noda majburiyat inson zimmasiga yuklangan vazifa, mas'uliyatni ifodalaydi. Majburiyat “burch” tushunchasi bilan bog'liqdir.

Huquqiy ma'noda majburiyat fuqarolik-huquqiy munosabat hisoblanadi. Fuqarolik huquqida majburiyatlar deganda bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'lishi tushuniladi. Masalan, bir shaxs ikkinchi shaxsdan qarz olgan bo'lsa, qarz olgan shaxs qarzga olgan pulni o'z vaqtida berish majburiyatini oladi. Kreditor, ya'ni qarz bergan shaxs o'z vaqtida qarz to'lanishini talab qilishga haqli bo'ladi.

Majburiyat kelib chiqish asoslariga ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Shartnomaga asoslangan majburiyat va shartnomaga asoslanmagan majburiyat. Shartnomaga asoslangan majburiyatda (oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, qarz, mulk ijarasi kabi) taraflar muayyan huquqlarga ega bo'ladilar va zimmalariga majburiyat oladilar. Shartnomaga asoslangan majburiyat taraflarning erki asosidagi kelishuv bilan vujudga keladi.

Shartnomaga asoslanmagan majburiyatda esa majburiyat zarar yetkazishdan kelib chiqadi. Bunda majburiyat taraflarning erki, xohishidan tashqari vujudga keladi, ya'ni taraflar zarar yetkazilgandan keyin majburiyatni g'ayriixtiyoriy bajaradi. Fuqarolik kodeksiga ko'ra, ma'naviy zarar pul bilan qoplanadi.



Yodda tuting

Qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi. Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni, unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi.

MAJBURIYATNING TARAFLARI

Majburiyatning taraflari deganda kreditor va qarzdor tushuniladi. Ushbu taraflar bir yoki bir necha shaxs bo'lishi mumkin. Majburiyatlar tuzilgan shartnomada belgilanganidek, majburiyat shartlariga muvofiq bajarilishi kerak. Ayrim hollarda majburiyat shartlari bajarilmay qolishi mumkin.



Majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

MAJBURIYATNING BAJARILISHI

Majburiyatlarni o'z vaqtida va talab darajasida bajarish taraflarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarida muhim ahamiyatga ega. Majburiyatlarni bajarish deganda majburiyatda ishtirok etadigan qarzdor tomonidan kreditor talabiga muvofiq ma'lum bir harakatning amalga oshirilishi yoki ma'lum bir harakattan saqlanish tushuniladi. Majburiyatning bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta'minlanishi mumkin. Shularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Neustoyka deganda qarzdor majburiyatni bajarmaganda kreditorga to'laydigan pul summasi tushuniladi. Neustoyka majburiyatni ta'minlashning eng ko'p tarqalgan usulidir. Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo'ladi.

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarini ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Zakalat, ipoteka kabi garov turlari mavjud. Mulkni garovga bergan shaxs garovga qo'yuvchi, mulkni olgan shaxs esa garovga oluvchi hisoblanadi.

Kafillik deganda qarzdor majburiyatlarining bajarilishi uchun uchinchi shaxs, ya'ni kafil javobgar bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabat tushuniladi. Bunda kafil majburiyatni bajarish uchun kreditor oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi. Bu kafillik shartnomasida ifodalanadi.

Qarzdor majburiyatni bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart.

Majburiyat, qoida tariqasida, uning lozim darajada bajarilishi bilan bekor bo'ladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar shartnomalar asosida ham vujudga keladi. Bugungi kunda shartnomalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Shartnomada taraflarning erk-irodasi to'la ifodalanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Majburiyat va burch deganda nima tushuniladi?
2. Majburiyat qanday vujudga keladi?
3. Neustoyka va garovning qanday ahamiyati bor?
4. Garov qanday vazifani o'taydi?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Burch deganda nima tushuniladi?

Majburiyat deganda nima tushuniladi?

--

--

22-DARS. MAJBURIYATLARNING TURLARI

*Agar keraksiz narsani sotib olsangiz,
tez orada kerakli narsani sotasiz.
Topganingizdan kamroq mablag' sarflang. Vaqt bu – pul.
Benjamin Franklin*




Siz bilib olasiz

Shartnomada majburiyatlarning ifodalanishi.
Shartnomalarning ayrim turlari.

SHARTNOMADA MAJBURIYATLARNING IFODALANISHI

Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi, o'zgartirilishi va bekor bo'lishi haqidagi kelishuv "shartnoma" deb ataladi. Shartnoma tuzayotgan shaxslar barcha holatlarni o'zlari mustaqil hal qiladilar. Shartnoma erkin tuziladi. Shartnoma tuzishga majburlash mumkin emas.

Majburiyatlar taraflar tomonidan tuzilgan shartnomalarda o'z aksini topadi. Shartnomada tomonlarga yuklatilgan majburiyatlar asosida hujjat tuziladi. Majburiyatlar shartnoma shartlariga ko'ra belgilangan talablarga muvofiq bajariladi. Bugun elektron shartnomalardan keng foydalanilmoqda va elektron oldi-sotdilar ham ommalashib bormoqda. Sizning hayotingizda ham bunday oldi-sotdi munosabatlari juda ko'p uchrab turishiga shubhamiz yo'q. Xususan, juda ko'pchiligingiz turli taomlarni olib kelishlari uchun restoran yoki kafelarga elektron tarzda buyurtma bergansiz. Bular ham elektron shartnomaning bir turidir.



Oferta (lot. *offero* – "taklif etaman") bir shaxsning boshqa shaxsga tovar yetkazib berish, biror-bir xizmat ko'rsatish va boshqa uchun shartnoma tuzish istagi va shartlari haqida yozma yoki og'zaki xabarnomasidir. Shunday xabar yuborgan jismoniy yoki yuridik shaxs "offerent", xabarnoma olgan shaxs "akseptant" deb ataladi.

Aksept (lot. *acceptus* – "qabul qilingan") fuqarolik huquqida taklifda (ofertada) ko'rsatilgan shartlarga ko'ra shartnoma tuzishga rozilik bildirishni anglatadi.

SHARTNOMALARNING AYRIM TURLARI

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyektlarining faoliyatida shartnoma munosabatlari alohida o'rin egallaydi. Shartnomalar taraflar o'rtasidagi fuqarolik huquqlari va burchlar vujudga kelishining asoslaridan biri hisoblanadi. Shartnomalar asosan mulkiy munosa-



batlarni rasmiylashtirish uchun tuziladi. Shartnomalarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Oldi-sotdi shartnomasida bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini oladi. Sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasini to'lash majburiyatini oladi. Ayirboshlash shartnomasida shaxs boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo'li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi. Masalan, bir shaxs mashinasini sotmoqchi, sotib oluvchi unga avtoulovini almashtiradi va o'rtadagi farqni pul shaklida to'laydi. Bunda tovar topshirish majburiyatini olgan shaxs sotuvchi, qabul qilish majburiyatini olgan shaxs esa sotib oluvchi hisoblanadi.

Hadya shartnomasida shaxs (hadya qiluvchi) boshqa shaxsga (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi. Masalan, buvisi o'z nevarasiga musiqa asbobi (royal)ni hadya qiladi.

Bundan tashqari, umumfoydali maqsadlarda xayr-ehson qilinadi. Xayr-ehson fuqarolarga, davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga, madaniyat muassasalariga, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarga, shuningdek, davlatga va boshqa fuqarolik huquqi subyektlariga qilinishi mumkin.

Xayr-ehsonni qabul qilishda biror kimsaning ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi. Mol-mulkni fuqaroga xayr-ehson qilish oddiy hadya deb hisoblanadi.

Kredit shartnomasida bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.





Uy-joyning ijaraga berish shartnomasida bir taraf – uy-joyning mulkdori (ijaraga beruvchi) boshqa taraf (ijaraga oluvchi)ga uy-joyda yashash uchun uni haq evaziga egalik qilish va foydalanishga topshirish majburiyatini oladi. Aniq maqsadga qaratilgan kommunal uy-joy fondidagi uy-joylar fuqarolarga uy-joyning ijaraga berish shartnomasiga binoan beriladi. Ijaraga oluvchi bilan birga yashaydigan uning oila aʼzolari uy-joyning ijaraga berish shartnomasiga asosan barcha huquqlardan teng foydalanadi va barcha majburiyatlarni bajaradi. Ijaraga oluvchi va uning oila aʼzolari talabiga binoan shartnoma oila aʼzolarining bittasi bilan tuzilishi mumkin.

Pudrat shartnomasida bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirigʻiga binoan maʼlum bir ishni bajarish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq toʻlash majburiyatini oladi. Bugungi tadbirkorlik rivojlanayotgan sharoitda bunday shartnomalarning ahamiyati oshmoqda.

Qarz shartnomasida bir shaxs (qarz beruvchi) ikkinchi shaxsga (qarz oluvchiga) ashyo yoki pul beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga biryoʻla yoki boʻlib-boʻlib pulni yoki qarzga olingan ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi.

Fuqarolar oʻrtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi bazaviy hisoblash miqdorining oʻn baravaridan ortiq boʻlsa, oddiy yozma shaklda tuziladi.

Bank omonati shartnomasida bank omonatchidan olingan pul summasini qabul qilib oladi va omonatchi murojaat qilganda unga omonat summasini qaytarish hamda unga foizlar toʻlash majburiyatini oladi.

Bank omonati shartnomasi omonat summasi bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Shartnoma va majburiyatlarning bir-biriga qanday bogʻliqligi bor?
2. Oldi-sotdi va ayirboshlash shartnomasi qanday majburiyatlarni keltirib chiqaradi?
3. Siz qanday shartnomalarda ishtirok etgansiz yoki qanday shartnomalarda ishtirok etishni xohlaysiz?
4. Kelajakda tadbirkorlik bilan shugʻullansangiz, qanday shartnomalarni tuza olasiz?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 30-iyulda "Oliy, oʻrta maxsus va professional taʼlim tashkilotlarida taʼlim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarorini imzoladi.

Ushbu hujjatga koʻra, 2021–2022-oʻquv yilidan boshlab respublikadagi barcha OTMLar bakalavriatining kunduzgi taʼlim shaklida va magistratura bosqichida toʻlov-kontrakt asosida tahsil olish uchun taʼlim krediti ajratishning qanday tizimi yoʻlga qoʻyildi?



23-DARS. ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARI

Dunyo har qanday insonning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarlicha katta, lekin insonning ochko'zligini qondirish uchun juda kichik.

Mahatma Gandi



Siz bilib olasiz

“Iste'molchilar” tushunchasi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish.

Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari.

“ISTE'MOLCHILAR” TUSHUNCHASI

Har bir inson kundalik ehtiyojidan kelib chiqib, do'kondan, bozordan mahsulotlar (kiyim-bosh, non, sut, ruchka, daftar va hk.) xarid qiladi, turli xil xizmatlardan (poyabzal, televizor, telefon, soyabon tuzatirish, kiyim-boshni kimyoviy tozalatish, atelyeda kiyim tikirish va hk.) foydalanadi. Bu fuqarolik-huquqiy munosabatda siz iste'molchi sifatida ishtirok etasiz, sizga xizmat qiluvchi esa ijrochi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi sifatida qatnashadi. Sotib olingan mahsulotni siz iste'mol qilasiz, tikib berilgan kiyimni kiyasiz.



Yodda tuting

Sotuvchi – oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha iste'molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor.

“Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonunga ko'ra, iste'molchi deganda foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi fuqaro tushuniladi. Iste'molchining huquqlari buzilgan taqdirda, u sudga murojaat qilish huquqiga ega. Iste'molchi ishlab chiqaruvchining korxonasi haqida xabardor bo'lishi shart.

Ushbu huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi qonun, Fuqarolik kodeksi va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining tenghuquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi iste'molchilarning



tovarlar (ishlar, xizmatlar), ularning ishlab chiqaruvchisi, ijrochisi va sotuvchisi to'g'risidagi haqqoniy va to'liq ma'lumotlarni olishni ta'minlaydi. Shuningdek, iste'molchilarga ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda yordam ko'rsatadi, iste'molchilar huquqi buzilishi sabablarini tahlil qiladi.

Tovar (ish, xizmat)lar uchun haq to'lash shakli hamda tartibi iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi. Oldi-sotdi amalga oshirilganda iste'molchiga kassa yoki tovar cheki beriladi. Tovarni kassa yoki tovar chekini bermasdan sotish taqiqlanadi.

Uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdagi tovarlar va xizmatlarga ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati belgilashi lozim. Kafolat muddati tovar iste'molchiga sotilgan yoki xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab hisoblanadi. Kafolat muddati tovar (xizmat)ning pasportida yoki tovarni sotish yoxud xizmat ko'rsatish paytida tovar bilan birgalikda iste'molchiga beriladigan hujjatda ko'rsatiladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarda, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida ularning ishlab chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati, saqlash shartlari ko'rsatilgan bo'ladi. Sotuvchilar ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan tovarlarni qabul qilishi taqiqlanadi.

ISTE'MOLCHIGA NUQSONLI TOVAR SOTILGANDA UNING HUQUQLARI

Iste'molchi o'zi sotib olgan tovar (ish, xizmat) sanitariya-gigiyena, shu jumladan,

radiologiya, epidemiyaga qarshi talablarga va amaldagi boshqa normalar hamda qoidalarga rioya etgan holda ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan bo'lishiga va uning hayoti, sog'lig'i, atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lishiga, shuningdek, uning mol-mulkiga zarar yetkazmasligiga kafolat berilishini talab qilish huquqiga ega.

Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda, tovarni ayni shunday markali sifatli tovarga almashtirib berish kerak.

Iste'molchi kassa yoki tovar chekini, rasmiylashtirilgan texnik pasportini taqdim etganda talablari ko'rib chiqiladi.

Iste'molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma'naviy zarar uchun

zarar yetkazgan shaxs haq to'laydi. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi.

Har bir shaxs hayotda ehtiyojini qondirish maqsadida o'ziga kerakli mahsulotni xarid qiladi, pul topadi, pulini ishlatadi, jamg'aradi va hk. So'nggi yillarda mamlakatimizda moli-





yaviy savodxonlik darajasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash orqali uy xo'jaliklari, oila va shaxsning o'ziga tegishli moliyaviy resurslarini boshqara olishi va ularni to'g'ri yo'naltirishdagi samarali qarorlarini baholash mumkin.

Moliyaviy savodxonlik shaxsiy moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga, pulni samarali boshqarishga, shaxsiy byudjet mablag'larini boshqarish haqidagi bilimlar va tushunchalarga asoslanadi.

Hamma pul nima ekanligini biladi. Ba'zan pul muomalasini bilmay qiynaladi. Ba'zilar pul bo'lsa bo'ldi, uni sarf qilish juda oson deb o'ylaydi. Natijada xaridlarni amalga oshirish qiyinlashadi yoki puli hech narsaga yetmaydi.

Moliyaviy savodxonlik nafaqat moliyaviy bilimlarni egallashga yordam beradi, balki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishini rivojlantiradi.

Moliyaviy savodxon shaxs o'zining shaxsiy moliyaviy holatini nazorat qilishni, 1 oyda qancha pul topishi-yu qanchasini xarajat qilishini rejalashtiradi, o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajaradi, firibgarining qo'lga tushmaydi, hech qachon kimdandir qarzdor bo'lib qolmaydi.

Siz ham kelajakda biznes bilan shug'ullanish, mablag'laringizni to'g'ri boshqarish uchun moliyaga oid bilim, ko'nikma va ma'lumotlarga ega bo'lishingiz zarur. Shunda tadbirkorlik faoliyatingiz rivojlanadi, moliyaviy holatingiz yaxshilanib boradi.



Mustaqil ish uchun topshiriq

1. Iste'molchi deganda kimni tushunasiz?
2. Iste'molchilarning huquqlari buzilganda qaysi idoralarga murojaat qilishlari mumkin?
3. Siz iste'molchi sifatida sotib olgan tovaringizning qaysi jihatlariga e'tibor bersiz?
4. Xarid qilgan qaysi tovarlaringizni qaytarib yoki almashtirib ololmaysiz?
5. Do'konga kirib, hech narsa xarid qilmagan taqdirda ham siz iste'molchi hisoblanasizmi?
6. Moliyaviy savodxonlikning ahamiyati nimada?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Tushunchalarga izoh bering.

T/r	Tushuncha	Izohi
1	Iste'molchi	
2	Ishlab chiqaruvchi	
3	Sotuvchi	
4	Tovar	
5	Tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi	
6	Tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni	
7	Kafolat muddati	
8	Xizmat muddati	
9	Yaroqlilik (saqlash) muddati	
10	Kassa cheki	
11	Tovar cheki	
12	Tovarni (ishni, xizmatni) iste'molchidan qaytarib olish	



24-DARS. INTELLEKTUAL MULK

*G'oyalar arzon mahsulotlardir.
G'oyalardan ko'ra ularni ro'yobga chiqarish qimmatliroqdir.
Maykl Dell*



Siz bilib olasiz

“Intellectual mulk” tushunchasi.
Intellectual mulk obyektlari.
Mualliflik huquqi.

“INTELLEKTUAL MULK” TUSHUNCHASI

Inson dunyoga kelgandan so'ng olamni bilishga, tushunishga, idrok qilishga harakat qiladi. Atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati shakllanadi.

Inson yaratadigan ijodiy aqliy faoliyat mahsuli intellektual mulk hisoblanadi. Masalan, bugun yoshlarimiz maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq asarlar, she'riy to'plamlar chop etmoqda, turli xil ixtirolar, foydali modellar yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, ilmiy, texnik va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellectual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Intellectual mulk har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. O'zbekistonda ham intellektual mulkni rivojlantirish, uni huquqiy himoya qilish sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 25-dekabrda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi, 1993-yildan Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasiga qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagi “Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2019-yil 1-iyuldagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2022-yil 26-apreldagi “Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari shular jumlasidandir. Bugun fuqarolik huquqi tarkibida ilmiy-texnika taraqqiyoti, inson ijodiy faoliyati va uning mahsullaridan foydalanish masalalarini tartibga soluvchi intellektual mulk huquqi sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Intellectual mulk huquqi deganda insonning ijodiy faoliyati natijalariga bo'lgan huquqi tushuniladi.

INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари

Intellectual mulk obyektlari fuqarolik huquqining o'ziga xos obyektidir. Ushbu intellektual mulk obyektlari ro'yxati Fuqarolik kodeksining 1031-moddasida berilgan.

Intellectual obyektни yaratgan muallif shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'ladi.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda, uning nomulkiy huquqlari o'zida saqlanib qoladi.




Misol uchun, muallif yaratgan she'rlar to'plami muallifga tegishli bo'ladi. Agar she'riy to'plam boshqa shaxsga o'tgan taqdirda (sotilganda) muallifning nomulkiy huquqlari saqlanib qoladi, lekin she'riy to'plamdan olingan daromadga da'vo qilolmaydi.

Intellectual mulk obyektlariga intellektual faoliyat natijalari bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, ixtirolar, foydali modellar kabilar kiradi. Intellectual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy huquqlar muddatsiz amal qiladi. Intellectual mulk sohasini rivojlantirish mamlakatimizning jahon integratsiyasidagi asosiy omili ekanidan kelib chiqib, intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida Fuqarolik kodeksi, 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun, "Patent vakillari to'g'risida"gi nizom kabi huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

MUALLIFLIK HUQUQI

Mualliflik huquqi shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnat bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi. Mualliflik huquqi boshqa shaxsga o'tkazilmaydi va berilmaydi.

Agar ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati bilan biror-bir narsa yaratilgan bo'lsa, ular hammuallif hisoblanadilar.



Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi.

Asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu fuqaro asar muallifi deb e'tirof etiladi.

Ayrim hollarda mualliflik huquqlari buzilishiga ham duch kelish mumkin. Bularga muallif nomi ko'rsatilmasdan nusxa olish (kitoblar, maqolalardan), asarni tarqatish, asarlarni konsert zallari, teatr sahnasida omma uchun namoyish qilish, radio, televideniye orqali efirga uzatish, asarni boshqa tillarga tarjima qilish kabilar kiradi.

Inson tafakkuri natijasi bo'lgan mulk obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, tafakkur mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar muallifning roziligisiz oshkor etish jinoiy javobgarlikka asos bo'ladi (Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 149-modda.)



Yodda tuting

Muallif deganda ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs tushuniladi.



Muallifning mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin. Bunda mualliflik shartnomasida asardan muayyan usulda va shartnomada belgilangan doirada foydalanishga ruxsat beriladi. Mualliflik shartnomasida asardan foydalanish usullari, asardan foydalanishning har bir usuli uchun to'lanadigan haq miqdori, to'lash tartibi, muddatlari nazarda tutiladi.



Yodda tuting

Mualliflik huquqi – fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik huquqi me'yorlari majmuasi.



Savol va topshiriqlar

1. Intellect deganda nima tushuniladi?
2. Intellektual faoliyatga nimalar kiradi?
3. Malliflik huquqining asoslarini bayon eting.
4. Mualliflik huquqi qanday himoya qilinadi?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi vaziyatni huquqiy tahlil qiling.

Maktabning 10-sinf o'quvchisi she'riy to'plam tayyorlab, nashriyotga topshirish uchun bordi. Nashriyot mutasaddilari uning mualliflik ishini "Sen hali voyaga yetmagan shaxssan", deb qabul qilmadi.

25-DARS. VORISLIK

*Farzandlar, qarindoshlar, oshna-og‘ayni, qo‘shnilar
va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni
davlat-u ne‘mat martabasiga erishganimda unutmadim, haqlarini ado etdim.*
Amir Temur



Siz bilib olasiz

“Vorislk” tushunchasi va vorislk huquqi.
“Meros” va “merosxo‘rlik” tushunchasi.
Vasiyatnomaning huquqiy asoslari.

“VORISLIK” TUSHUNCHASI VA VORISLIK HUQUQI



Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, fuqarolik huquqi mulkiy munosabatlarni tartibga solar ekan, vorislk, meros, merosxo‘rlik kabi mulkiy munosabatlar ham fuqarolik-huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Vorislk deganda vafot etgan shaxsning mulkini (masalan, ko‘chmas mulk, bank qo‘yilmalari kabi mulkni) olish tushuniladi. Mulkni oluvchi shaxslar esa “vorislar” deb ataladi. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy qoidalar yig‘indisi fuqarolik huquqining tarkibiy qismi bo‘lgan vorislk huquqi hisoblanadi. Vorislk huquqi vafot etgan shaxsning mulkiy huquq va majburiyatlari boshqa shaxslarga, merosxo‘rlarga o‘tishini qonun bilan

belgilangan tartibda ta‘minlaydi.

Vafot etgan shaxsning mulki uning avlodlariga vasiyatnoma asosida va qonuniy asosda o‘tadi. Vasiyat bo‘yicha vorislk meros qoldiruvchining erki bilan vujudga keladi. Masalan, ota vasiyatnoma asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mulkni o‘zining xohishiga ko‘ra merosxo‘rga yoki merosxo‘rlarga qoldiradi.

Qonuniy vorislk esa meros qoldiruvchining merosxo‘rlariga navbat tartibida taqsimlanadi.

Meros ochilgan paytda hayot bo‘lgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalari vasiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin.



Yodda tuting

Vorislk shaxsning vafotidan keyin unga xususiy mulk asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkning, shuningdek, meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ba’zi huquq va majburiyatlarning merosxo‘rlarga o‘tishidir.



“MEROS” VA “MEROSXO‘RLIK” TUSHUNCHASI

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 41-moddasiga ko‘ra, meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Meros fuqaroning o‘limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilinishi oqibatida vujudga keladi.

Meros deganda vafot etgan shaxsdan vorislarga qolgan mulk tushuniladi. Merosxo‘r esa vafot etgan shaxsdan qolgan mulkka huquqi mavjud bo‘lgan shaxsdir.

Fuqarolarning qonun bilan taqiqlanmagan barcha mulki va mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlari xususiy mulk sifatida meros tarkibiga kiradi. Meros olish huquqi mulk egasining vafot etishi bilan paydo bo‘ladi.

Qonun bo‘yicha vorislikda farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari farzandlikka oluvchi shaxs va uning qarindoshlari, tug‘ishgan qarindoshlar bilan tenglashtiriladi. Qonun bo‘yicha vorislar birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi navbatdagi tartibda taqsimlanadi. Vorislarning har bir navbati avvalgi navbatdagi merosxo‘rlar bo‘lmaganda, ular merosdan chetlashtirilganda, merosxo‘r merosni qabul qilmaganda vorislik huquqiga ega bo‘ladi.

Qonun bo‘yicha vorislik

Birinchi navbatdagi vorislar

Bolalar (shu jumladan, farzandlikka olingan bolalar), er (xotin) va ota-ona (farzandlikka oluvchilar)

Ikkinchi navbatdagi vorislar

Tug‘ishgan hamda ona (ota) bir, ota (ona) boshqa aka-ukalar va opa-singillar, shuningdek, uning ham ota, ham ona tarafdan bobosi va buvisi

Uchinchi navbatdagi vorislar

Tug‘ishgan amaki, tog‘a, amma va xola

To‘rtinchi navbatdagi vorislar

Boshqa qarindoshlar (yaqin qarindoshlar)

Beshinchi navbatdagi vorislar

Mehnatga qobiliyatsiz boqimlar (meros qoldiruvchining vafotiga qadar kamida bir yil uning qaramog‘ida bo‘lgan va u bilan birga yashagan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar)

Meros ochilgan kundan e'tiboran istalgan vaqtda merosxo'r merosdan voz kechishi mumkin. Merosdan voz kechish merosxo'r tomonidan notariusga ariza berish orqali amalga oshiriladi. Agar merosxo'r merosdan voz kechgan bo'lsa, unga qayta da'vogarlik qilolmaydi.

VASIYATNOMANING HUQUQIY ASOSLARI


Vasiyat fuqaroning vafot etgan taqdirda o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni tasarruf etish xususidagi xohish-irodasidir. Vasiyatnoma shaxsan tuziladi. Vakil orqali tuzilishi mumkin emas.

Meros qoldiruvchi tiriklik paytida mol-mulki to'g'risida vasiyatnoma tuza oladi. Vasiyatnoma tuzib bo'lganidan keyin meros qoldiruvchi vasiyatnomani istagan paytida bekor qilishi va o'zgartirishi mumkin.

Meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzgan bo'lsa, meros shu vasiyatnomaga asosan taqsimlanadi. Ammo meros qoldiruvchining voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shuningdek,

eri (xotini) va ota-onasi, shu jumladan, uni farzandlikka olganlar ulushi ko'rib chiqiladi.

Vasiyat qiluvchi qarindoshlik yoki oilaviy aloqalaridan qat'i nazar, merosni tayinlash huquqiga ega. Shuningdek, mulkni yuridik shaxslarga, davlat organlariga vasiyat qilish, merosxo'rni merosdan mahrum etish kabi huquqlarga ega.



Savol va topshiriqlar

1. "Vorisi", "vorislik", "vorislik huquqi", "meros", "merosxo'r" atamalarini qanday tushunasiz?
2. Nima uchun vorislik vasiyat va qonun bo'yicha amalga oshiriladi?
3. Meros qoldiruvchining yaqin qarindoshlari bo'lmaganda uning mol mulki kimga qoldiriladi?
4. Meros olish huquqi qachon vujudga keladi?
5. Merosdan majburiy ulush olishga kimlar haqli?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Quyidagi vaziyatni huquqiy tahlil qiling.

Ota uy-joyini ikki farzandidan kichigiga qoldirish haqida vasiyatnoma yozib, notariusdan guvohlantirib qoldirdi. Ammo hali hayotlik paytida vasiyatnomani qaytarib oldi. Kenja farzandi: "Bunga haqqingiz yo'q deb!" otaga e'tiroz bildirdi.



26-DARS. IJODIY FAOLIYAT

*Agar o'qisang-u o'ylamasang – chalkashib qolasan.
Agar o'ylasang-u o'qimasang – shubha-gumonlar tagida qolib ketasan.*

Konfutsiy

NAMUNA

1-topshiriq.

Quyidagi vaziyatni o'rganing va savollarga javob bering.

Avtobus O'zbekistonning qadimiy maskanlari bo'ylab uyushtirilgan sayohat payti Buxoroga kelganda buzilib qoldi. Natijada Xiva shahrini tomosha qilishga vaqt qolmadi. Safardan so'ng sayyohlar sayyohlik firmasiga e'tiroz bildirdi, ammo hech qanday natijaga erishilmadi.

Savollarga javob bering.

Bu vaziyatda sayyohlik firmasi to'g'ri harakat qilganmi?

Sayyohlarning talabi to'g'rimi?

Bu vaziyatni qanday huquqiy me'yorlar bilan hal etsa bo'ladi?

Sayyohlik munosabatlari qaysi davlat organiga tegishli? Ushbu savolga internetdan foydalangan holda javob tayyorlang.

2-topshiriq. Berilgan tushunchalarni tahlil qilib jadvalni to'ldiring!

TUSHUNCHALAR	TAHLILI
Emansipatsiya	
Yuridik shaxs	
Jismoniy shaxs	
Bitim	
Shartnoma	
Neustoyka	
Intellektual mulk	
Vorislik	
Vasiyatnoma	
Byudjet	
Munitsipal mulk	
Homiylik	
Vasiylik	




NAZORAT ISHI

*Hech qachon unutmang,
kelajakda sizni yanada ulkan va mas'uliyatli marralar kutmoqda.
Oldingizga aniq maqsad qo'yib, bor kuch-g'ayratingiz,
bilim va salohiyatingiz bilan harakat qilsangiz,
ko'zlangan cho'qqilarga albatta erishasiz.*
Shavkat Mirziyoyev

“**Madaniyatli iste'molchi**” mavzusida **ESSE** yozing.

Esse yozish jarayonida quyidagi talablarga rioya eting!

- Berilgan mavzuga nisbatan o'z nuqtayi nazaringizni bayon eting.
- Hayotiy misollar bilan asoslang.
- Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan o'z fikr va takliflaringizni xulosalang.



Yozish tartibi:

1. Kirish.
2. Asosiy qisim.
3. Xulosa.

Esse yozish jarayonida quyidagi tavsiyalardan foydalaning.


- ➔ “Iste'molchi” atamasiga oid nazariy ma'lumotlarni bayon eting.
- ➔ Mavzuga oid hayotiy voqea yoki hodisani eslang.
- ➔ Voqelikka munosabatingizni aniqlab oling.
- ➔ O'zbekiston Respublikasida iste'molchi huquqlarini himoyalash mavzusiga to'xtaling.
- ➔ Madaniyatli iste'molchi borasidagi tasavvurlaringizni ifodalang.
- ➔ Sifati past yoki nuqsoni bo'lgan tovar xarid qilgan iste'molchiga munosabatingizni bildiring.

Namuna

Mavzu: “Madaniyatli iste'molchi”

Kundalik ehtiyojlar sababli har kuni iste'molchiga aylanamiz. Biroq barchani ham madaniyatli iste'molchi deb bo'lmaydi. Mening fikrimcha, madaniyatli iste'molchi belgilangan qonun-qoidalarga amal qilishi, o'z huquq va majburiyatlarini anglashi...

IV BOB. O'ZBEKISTON VA XALQARO HAMJAMIYAT





27-DARS. XALQARO HAMJAMIYATNING VUJUDGA KELISHI

*Agar biz butun dunyoda tinchlik o'rnatishni istasak,
ishni bolalar tarbiyasidan boshlashimiz zarur.
Dunyoni o'zgartirish istagidagi inson avvalo o'zi o'zgarmog'i lozim.
Mahatma Gandi*



Siz bilib olasiz

Xalqaro hamjamiyatning o'ziga xosligi.
Xalqaro hamjamiyatning tuzilishi.
Xalqaro munosabatlarni vujudga keltiruvchi omillar.

Gellap (Gallup) Xalqaro tadqiqot markazining xavfsizlik bo'yicha 2017-yilgi reytingi (142 ta davlat ichida eng xavfsiz 5 ta davlat)

1

Singapur

2

Norvegiya

3

Islandiya

4

Finlandiya

5

O'zbekiston

XALQARO HAMJAMIYATNING O'ZIGA XOSLIGI

Bugun dunyoda 200 dan ortiq davlat mavjud bo'lib, ularda yetti milliarddan ziyod aholi yashaydi. Bir qarashda xalqaro hamjamiyatda ro'y berayotgan voqealar sizga aloqador emasdek ko'rinadi, biroq unday emas, chunki siz ham ushbu yetti milliardning birisiz.

Xalqaro hayotda ro'y berayotgan voqealar O'zbekistonga ham, bevosita sizga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Masalan, O'zbekistonga sitrus mevalar eksport qiladigan mamlakatda urush yuz bersa yoki ushbu mevalar olib kelinadigan yo'lda joylashgan davlatlarda to'polonlar boshlansa, bozorlardan o'zingiz yoqtirgan banan, mandarin, apelsin kabi mevalarni topa olmay qolishingiz mumkin. Albatta, siz yashab turgan O'zbekiston dunyodagi eng tinch davlatlardan biri bo'lgani uchun qolgan davlatlarda ham barcha tinch va osoyishta yashamoqda deb o'ylashingiz mumkin. Ammo hamma davlatlarda ham bu kabi tinchlik mavjud emas.

Xalqaro hamjamiyat tarkibidagi bir mamlakatda ro'y berayotgan voqealar ikkinchisiga ta'sir etsa-da, uni boshqarib turuvchi yagona tuzilma yo'q. Jarayon faqatgina davlatlar va xalqaro tashkilotlarning hamkorligi bilan izga solinishi mumkin xolos.



Yodda tuting

Xalqaro hamjamiyat – jahonda mavjud davlatlar va ularda yashovchi insonlarning insoniyat oldida turgan global muammolarni hamkorlikda hal qilishda, umumiy maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatish birligini anglatuvchi tushuncha. Xalqaro hamjamiyat barcha davlatlarning suveren tengligi, hududlarining daxlsizligi kabi xalqaro huquq tamoyillariga asoslanadi.

Unutmang, xalqaro hamjamiyat xalqaro tashkilot emas.



XALQARO HAMJAMIYATNING TUZILISHI

Xo'sh, asosan davlatlardan tashkil topuvchi va siz bilan biz yashayotgan bugungi xalqaro hamjamiyat qachon vujudga keldi? U qanday rivojlanib bormoqda? Barchasi Vestfaliya sulhidan boshlandi. O'ttiz yillik urush (1618–1648) dan so'ng, Yevropadagi har bir davlatning hududi va suverenitetini belgilab beruvchi Vestfaliya sulhi imzolandi. Ushbu sulhni imzolagan mamlakatlar bir-birlarining suveren huquqlarini tan oldilar. Shunday qilib, o'zining suverenitetiga va boshqa davlatlar tomonidan tan olingan hududiga ega bo'lgan xalqaro hamjamiyat vujudga keldi.



Vestfaliya sulhining imzolanish jarayoni

To'g'ri, "Bundan oldin ham davlatlar bo'lgan-kul!" degan savol tug'ilishi tabiiy. Ammo xalqaro huquqqa asosan, davlatlar suvereniteti hamda ularning hududlari tan olinadigan bugungi hamjamiyat aynan Vestfaliya sulhidan keyin vujudga kelgan. Shu sababli o'sha davrda xalqaro hamjamiyat faqatgina Yevropaning mutlaq suveren davlatlaridan tashkil topgan degan qarash mavjud bo'lgan. Ammo keyinchalik ro'y bergan inqiloblar

natijasida AQSH, Turkiya va Yaponiya kabi demokratik davlatlar vujudga keldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa Osiyo va Afrika qit'alarida o'zining suverenitetiga ega bo'lgan va hududlari boshqa davlatlar tomonidan tan olingan yangi davlatlar yuzaga keldi. Shunday qilib, yangi demokratik davlatlar hisobiga xalqaro hamjamiyat turfaxillik kasb eta boshladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi ham 1991-yilda suveren maqomdagi demokratik

davlat sifatida xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosiga aylandi. Konstitutsiyamizning 1-moddasida ham bu o'z aksini topgan.

Bugun xalqaro hamjamiyatning tuzilishi yuqorida biz ko'rib o'tgan, faqatgina suveren davlatlardan tashkil topgan hamjamiyatdan farq qiladi. Albatta, hozir ham xalqaro hamjamiyatni tashkil etuvchi asosiy subyektlar davlatlardir. Ammo Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Savdo Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar ham bugungi xalqaro hamjamiyatda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, nohukumat tashkilotlar va shaxslar ham zamonaviy xalqaro hamjamiyatga bevosita aloqador bo'lib qolmoqda. Demak, xalqaro hamjamiyat faqatgina davlatlardan emas, balki xalqaro tashkilotlar, nohukumat tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar hamda shaxslar kabi xalqaro munosabatlarning ishtirokchilaridan tashkil topgan ekan.



Yodda tuting

Suverenitet – davlatning ichki ishlarida va tashqi ishlarda mustaqil ekanini anglatuvchi tushuncha. Suverenitetga ega davlatlar qisqacha "suveren davlatlar" deb ataladi.



XALQARO MUNOSABATLARNI VUJUDGA KELITIRUVCHI OMILLAR

Davlatlar tinchlik va hamkorlik o'rnatish maqsadida boshqa davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa aloqalarni o'rnatgan holda xalqaro munosabatlarga kirishadi. Quyida xalqaro munosabatlarni vujudga keltiruvchi bir nechta omillarni ko'rib chiqamiz.

Xalqaro munosabatlarning siyosiy omili. Suveren davlatlar tenglik tamoyiliga asoslanib xalqaro munosabatlarga kirishadi. Ammo biron-bir davlat o'zining suvereniteti cheklanmagani va unga asoslanib xohlagan ishini qilishi mumkinligini aytib chiqsa, biz yashayotgan xalqaro hamjamiyat tartibsiz dunyoga aylanib qolishi mumkin. Shu sababli davlatlar xalqaro munosabatlarga kirishganda bir-birlarining suverenitetini hurmat qilib, boshqa davlatlarga bergan va'dalarini bajarishga intiladilar. Bu orqali milliy manfaatlar himoya qilinadi. Davlatlar tinchlikni saqlagan holda, o'zaro bir-birlarini tushunib hamkorlik qilish yo'li hisoblangan internatsionalizm tamoyiliga asoslanadi.

Suveren davlat belgilari



Yodda tuting

Internatsionalizm – xalqaro va ijtimoiy guruhlarining xalqlar, millatlar ozodligi, mustaqilligi, huquqiy tengligiga asoslangan birdamlik va o'zaro hamkorlik prinsipi.

Xalqaro munosabatlarning iqtisodiy omili. Davlatning asosiy maqsadlaridan biri o'z xalqining manfaatlarini xalqaro maydonda ham himoya qilish hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarga kirishilganda esa juda ko'p hollarda uning ortida iqtisodiy foyda ko'rish yotgan bo'ladi. Masalan, XX asrning o'rtalarigacha davlatlar o'z xalqlarini boyitish uchun boshqa davlatlar va qabilalarni bosib olgan. Bugungi kunda bir davlat boshqa davlatni

bosib olishi, ya'ni urush qilish taqiqlangan. Shu sababli hozir davlatlar o'z aholisi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportini ko'paytirish va dunyo bozorlarini egallash bo'yicha raqobatlashmoqda. O'zbekiston ham mamlakat ichidagi tadbirkorlarni himoyalash maqsadida o'z bozorlarini tashqi ta'sirdan himoya qilib kelayotgan edi. Endi esa jahon bozoriga chiqish va bu orqali aholini boyitishni ko'zlab, mamlakatlar o'rtasidagi savdo qoidalarini tartibga soluvchi yagona global tashkilot hisoblanmish Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lida.

Xalqaro munosabatlarning madaniy omili. Ko'p millatli davlatlarda aholi orasida o'zaro kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun davlat xalq birligi g'oyasiga tayanib bunday millatchilik yoki diniy qarashlarga asoslangan nizolarni bartaraf etib boradi. Bunday g'oya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida ham aks etgan bo'lib, muqaddima "Biz, O'zbekistonning yagona xalqi" deb boshlanadi. Bu – juda ham to'g'ri g'oya. Chunki u xalq tinchligini ta'minlab beradi.



Xalqaro munosabatlarda aynan mafkura va diniy qarashlardagi ziddiyatlar sababli katta nizolar kelib chiqishi mumkin. Masalan, arab davlatlari va Isroil o'rtasidagi, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi nizolar ortida aynan diniy qarashlar yotadi. Shuningdek, mafkuradagi ziddiyatlar ham katta mojarolarni yuzaga keltirishi mumkin. Xususan, Sovet Ittifoqi va AQSH o'rtasidagi ziddiyatlar avvalo sotsializm va kapitalizm mafkuralari o'rtasidagi ziddiyatga borib taqalar edi. Shunday qilib, ma'lum bir davlatlarda yuz berayotgan urushlarni bartaraf etish, dunyoda inson huquqlariga amal qilinishini ta'minlash uchun davlatlar o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Shuningdek, davlatlar siz va biz yashab turgan dunyoda barcha davlatlar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalarni yaratadi va bu qoidalarga amal qilishni bir-birlaridan talab qiladi. Agar bunday qilinmasa, yana Ikkinchi jahon urushi kabi achchiq tarix qaytalanishi mumkin.

Xalqaro hamjamiyat deganda davlatlar insonlar tinch va farovon yashashlari uchun bir-birlarini qo'llab-quvvatlashi hamda o'zaro hamkorlik qilishi tushunilishini yodda tuting.



Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi ekanligi nimani anglatadi?
2. Xalqaro hamjamiyatda ro'y berayotgan voqealar O'zbekistonga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
3. Suveren davlatlar tenglik tamoyiliga amal qilmasa, qanday salbiy oqibatlar yuz berishi mumkin?
4. Nima uchun davlatlar o'z hududlarini himoya qilishlari kerak?



Mustaqil ish uchun topshiriq

O'zbekistondan tashqarida, ya'ni boshqa davlatlarda ro'y berayotgan voqealar mamlakatimiz bozoriga qanday ta'sir etishi haqida mulohaza yuritamiz!

Vazifa. Istalgan 10 ta davlatni tanlab oling va ushbu davlatlarda iqtisodiy inqiroz, urush, ichki kelishmovchiliklar yoki boshqa voqealar ro'y bersa, bu mamlakatimiz bozorlariga qanday ta'sir qilishi mumkinligini bayon eting. Ushbu vazifani bajarishni uddalay olsangiz, O'zbekiston xalqaro hamjamiyat bilan uzviy bog'langanini tasavvur qila olasiz.

Masalan, Venesuela yoki Ekvadorda ichki kelishmovchiliklar ro'y bersa, mamlakatimizga bananning kirib kelishi kamayishi mumkin. Buning natijasida banan narxi keskin oshib ketadi.



28-DARS. XALQARO HUQUQ

*Buyuklik yo'lida mashaqqatlarni yengishda donolikdan foydalaning.
Jamiki buyuk narsalar oddiy.*

*Ularni yaxlit so'zlar bilan ham ifodalash mumkin:
ozodlik, adolat, g'urur, burch, saxovat, umid.*

Uinston Cherchill



Siz bilib olasiz

Xalqaro huquqning vujudga kelishi va o'ziga xos jihatlari.

Xalqaro huquqning maqsadi.

Xalqaro huquqning manbalari.

Xalqaro huquq va milliy huquq.

XALQARO HUQUQNING VUJUDGA KELISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI



Hyugo Grotiyus (1583–1645)
Niderlandiyalik huquqshunos
olim. "Urush va tinchlik huquqi"
asari muallifi.

Davlat o'zining ichki va tashqi siyosatida to'la mustaqil bo'lsa-da, u ham bo'ysunishi lozim bo'lgan huquq mavjud. Bu xalqaro huquqdir. Xalqaro huquq XVII asrda Yevropada vujudga keldi. Xalqaro hamjamiyatda insonning mantig'iga asoslangan huquqiy tartibot bo'lishi lozim degan qarash yuzaga kela boshladi. Bunday qarashni ilk bor Xalqaro huquq otasi nomi bilan mashhur bo'lgan Hyugo Grotiyus ilgari surdi. U xalqaro huquqiy tartibot suveren davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal etadi va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi deb hisoblagan. Ushbu qarashlar natijasida asta-sekinlik bilan dastlab davlatlar o'rtasidagi munosabatlarnigina tartibga solgan xalqaro huquqiy qoidalar rivojlandi. Bugungi xalqaro huquq esa urush va kuch ishlatishni taqiqlovchi, xalqaro tashkilotlarni tuzish uchun zamin yaratuvchi, jismoniy shaxslarning huquqlarini

himoya qiluvchi hamda xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlarini himoya qilish uchun davlatlardan faol hamkorlikni talab qiluvchi qoidalarni o'z ichida jamladi. Natijada siz va biz yashab turgan xalqaro hamjamiyatni tartibga solib turgan zamonaviy xalqaro huquq paydo bo'ldi.



Yodda tuting

Xalqaro huquq – tinchlik va hamkorlikni ta'minlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar, odat normalari hamda umum tan olingan tamoyillar yig'indisi.



XALQARO HUQUQNING MAQSADI

Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarining dahshatlaridan keyin davlatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik va tinchlikka bo'lgan intilish yanada kuchaydi. Buning natijasida davlatlar butun insoniyatning umumiy manfaatlarini yuqori o'ringa qo'yuvchi, tenglik va adolatni ta'minlovchi xalqaro huquq qoidalarini yarata boshladi. Zamonaviy xalqaro huquq faqatgina kuchlilar manfaatini himoya qilgan eski "an'anaviy xalqaro huquq"dan farqli ravishda insoniyatning umumiy manfaatlarini himoya qilishni, urushlarning oldini olish va tinchlikni saqlashni maqsad qiladi. Bundan tashqari, xalqaro huquq davlatlar o'rtasidagi nizolarni urushsiz, tinch yo'l bilan hal etishni ko'zlaydi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro sudi faoliyat ko'rsatmoqda.



BMT tinchlikparvar qo'shinlari Afrikada

XALQARO HUQUQNING MANBALARI


Xalqaro huquq sohasi asosan yuridik kuchi teng bo'lgan ikki manba – xalqaro shartnomalar (yozma xalqaro huquq) va xalqaro odat huquqi (odatga aylangan xalqaro huquq) qoidalaridan tashkil topadi. Xalqaro shartnomalar davlatlarning ma'lum bir masala bo'yicha bildirgan roziliklarini shartnoma ko'rinishiga keltirish bilan vujudga keladi. Ushbu rozilik davlatning vakolatli vakili imzolashi yoki vakolatli organi ratifikatsiya qilishi kabi usullar orqali ifoda etiladi.





O'zbekistonning xalqaro shartnomalar tuzishi, ularga qo'shilishi yoki bajarishi kabi munosabatlar "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Xalqaro odat huquqi ko'plab davlatlar tomonidan bir qancha muddat davomida amal qilib kelingan qoidalar odatga aylanishi natijasida vujudga keladi. Masalan, elchilar o'zlari elchi sifatida tashrif buyurgan mamlakatda daxlsizlik huquqiga ega bo'lishi xalqaro odat huquqiga yorqin misoldir.

Mazkur daxlsizlik huquqiga ko'ra, elchilarning turgan uylari, ular ishlaydigan elchixona hududiga ularning ruxsatisiz hech kim kirishi mumkin emas. Shuningdek, ularning avtomobillari yoki xat-hujjatlari ham o'zboshimchalik bilan tekshirilishi taqiqlanadi.



XALQARO HUQUQ VA MILLIY HUQUQ

Xalqaro hamjamiyatda davlatdan-da yuqorida turuvchi tashkilot yoki qandaydir hukumat mavjud emas. Shuningdek, "Xalqaro huquq qoidalari mana shu va unga hamma bo'ysunishga majbur!" deb davlatlarni unga bo'sundiradigan tashkilot ham yo'q. Davlatlar o'zlari rozi bo'lib xalqaro huquq qoidalariga amal qiladi. Masalan, davlatlarning suveren tengligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi tamoyillarni ham davlatlar o'zlari tan oladi va hurmat qiladi.

Xalqaro huquq tizimi siz bilgan milliy huquq tizimidan birmuncha farq qiladi. Masalan, xalqaro huquq qoidalarini tashkil etuvchi xalqaro shartnomalar yoki xalqaro odat huquqi milliy huquqdagi kabi parlament (qonun chiqaruvchi organ) tomonidan yaratilmaydi. Aksincha, davlatlar amaliyoti yoki davlatlar o'rtasidagi hamkorlik natijasida vujudga keladi.



Shuningdek, milliy huquqdan farq qilib, xalqaro huquq qoidalarini majburiy tarzda ijro ettirish biroz murakkab.

Masalan, O'zbekistonda Oliy Majlis tomonidan chiqarilgan qonunlar yoki sud tomonidan chiqarilgan qarorlar Ichki ishlar vazirligi, Majburiy ijro byurosi kabi ijro organlari tomonidan og'ishmasdan ijro etiladi. Xalqaro huquqda esa bunday ijro organlari mavjud emas. Shu sababli davlatlar ko'pchilik bo'lib xalqaro huquq qoidalarini buzayotgan davlatga nisbatan sanksiyalar qo'llashi mumkin. "Xalqaro huquq milliy huquqdan umuman boshqa narsa va ularning o'zaro aloqasi yo'q" degan fikr umuman noto'g'ri. Xalqaro huquq har doim milliy huquq bilan aloqadorlikda bo'ladi. Masalan, mamlakatimizda xalqaro huquq normalari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ichki huquq bilan birgalikda milliy huquq tizimimizni tashkil etadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida ham aks etgan. Shuningdek, xalqaro shartnoma ichki normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan ustunlikka ega.

Milliy huquq tizimida xalqaro huquqning ahamiyati

"O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi qonunda

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umum-e'tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida

Agar xalqaro shartnomada yoki bitimda fuqarolik qonunchiligidagiga qaraganda boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llanadi.



Yodda tuting

Ratifikatsiya – xalqaro shartnomaning vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanishi. Odatda ko'plab demokratik mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda ham xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish qonun chiqaruvchi organ tomonidan qonun chiqarish orqali amalga oshiriladi. Bu o'sha xalqaro shartnoma davlat uchun majburiy ekanini anglatadi.



Savol va topshiriqlar

1. Davlatlar o'zining ichki va tashqi faoliyatida to'la mustaqil bo'lsa-da, u ham bo'ysunishi lozim bo'lgan huquq qanday ataladi?
2. Xalqaro huquq davlatlar o'rtasidagi nizolarni qanday yo'l bilan hal etishni ko'zlashi kerak?
3. Davlatlar xalqaro huquq qoidalarini buzayotgan davlatga nisbatan ko'pchilik bo'lib sanksiyalar qo'llashi qanchalik o'rinli deb o'ylaysiz?
4. Sizningcha, xalqaro shartnomalar nima uchun kerak?



Mustaqil ish uchun topshiriq

A. ismli yo'l-patrul xizmati xodimi soatiga 60 km tezlikda harakatlanish lozim bo'lgan yo'lda soatiga 75 km tezlikda harakatlanib kelayotgan B. davlati elchixonasiga tegishli avtomobilni to'xtatdi. Uni elchining o'zi boshqarib kelayotganini aniqlagach, elchidan avtomobilning yukxonasini ochishni talab qildi. Elchi buni rad etdi va tekshiruv o'tkazishining asosini so'radi. Shunda yo'l-patrul xizmati xodimi elchiga u belgilanganidan ko'ra katta tezlikda harakatlangani va avtomobilda shubhali narsalar bo'lishi mumkin degan taxmini borligi uchun tekshiruv o'tkazishini aytdi.

Ushbu vaziyat bo'yicha o'z fikrlaringizni bildiring.



O'zbekistonda diplomatik avtomobillarga quyidagi indeksdagi raqamlar taqdim etiladi.



Chet davlatlar diplomatik vakolatxonalari, elchixonalar rahbarlarining transportlariga beriladigan davlat raqamlari (namuna).



Xorijiy davlatlar elchixonalari, konsullik idoralari xodimlarining transport vositalariga beriladigan davlat raqamlari (namuna).



BMT va uning tuzilmalarining O'zbekistondagi vakolatxonasi xodimlariga tegishli transport vositalariga beriladigan davlat raqamlari (namuna).



29-DARS. BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BILAN HAMKORLIK

*Qushlar kabi havoda uchishni o'rgandik. Baliqlar kabi dengizlarda suzishni o'rgandik.
Lekin hozirgacha yer yuzida aka-ukadek yashashni o'rganmadik.*
Martin Lyuter King



Siz bilib olasiz

Birlashgan Millatlar Tashkilotining paydo bo'lishi.
Xalqaro hamjamiyatda tinchlik va xavfsizlikni saqlash.
O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING PAYDO BO'LISHI

Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin dunyodagi barcha insonlar tinchlikning naqadar buyuk ne'mat ekanini tushunib yetdilar. Shu sababli urush yakunlanishi bilanoq dunyoda tinchlikni saqlab turishga xizmat qiladigan tashkilot tuzish g'oyasi o'rtaga tashlandi. Shunda 51 ta davlat San Fransiskoda yig'ilib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomi qabul qilindi. Ushbu Nizomga asosan, 1945-yilning 24-oktyabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) deb atalmish xalqaro tashkilot dunyoga keldi.

BMT bayrog'i. Bayroqda dunyo xaritasi va uni o'rab turgan ikki zaytun novdasi aks etgan. Zaytun novdasi tinchlik ramzidir. Jahon xaritasi esa tashkilot dunyoda tinchlik o'rnatish yo'lida ekanini ifodalaydi.



Ushbu tashkilot o'zining oldiga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash; davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlarni targ'ib qilish; iqtisodiy, madaniy va inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni hal etish; inson huquqlari va erkinliklari dunyo bo'ylab ta'minlanishi uchun davlatlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish; mazkur ishlarni amalga oshirish uchun davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtirish kabi bir qancha muhim maqsadlarni qo'ydi. Xususan, BMT nizomi davlatlarga nizolarni tinchlik yo'li bilan hal etish majburiyatini yuklab, o'zini himoya qilish kabi istisno holatlarni hisobga olmaganda, kuch ishlatishni taqiqladi.



Yodda tuting

Kuch ishlatmaslik tamoyili. Ushbu tamoyildagi "kuch" so'zi faqatgina qurolli kuchlar, ya'ni armiyani ishga solishni nazarda tutadi. Masalan, bir davlatga nisbatan iqtisodiy sanksiya qo'llash yoki siyosiy bosim o'tkazish kuch ishlatish hisoblanmaydi. Siyosiy bosim o'tkazish boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyiliga zid kelishi mumkin.

BMT nizomining 51-moddasiga ko'ra, davlat o'zini himoya qilish uchun kuch ishlatishi mumkin. Bu kuch ishlatmaslik tamoyiliga istisno hisoblanadi.

Aynan mana shunday ezgu maqsadlarni o'z oldiga qo'ygani uchun ham ko'plab davlatlar bu tashkilotga qo'shildi. Natijada a'zolar soni keskin darajada oshdi. Bugun ularning



soni 193 tani tashkil etadi va bu dastlabki a'zolar sonidan to'rt barobar ko'p deganidir. Bugun ba'zilar BMTni turli masalalarda tanqid qilsa-da, tan olish kerak, davlatlarni bu darajada keng miqyosda va keng ko'lamda birlashtira oladigan hamda ularning hukumatlarini bir joyga yig'a oladigan boshqa tashkilot mavjud emas.

XALQARO HAMJAMIYATDA TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI SAQLASH

BMTning yuqorida keltirilgan maqsadlari ichida eng oliysi xalqaro hamjamiyatning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash hamda xalqaro hamjamiyatda yuzaga keladigan ixtiloflarni yumshatish hisoblanadi. Tashkilot tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda **jamoaviy xavfsizlik** qoidasiga amal qiladi. Ushbu qoidaga ko'ra, manfaatlari turli xil bo'lgan davlatlar ham bir jamoaga birlashadi. Masalan, A. davlat F. davlatga hujum qilsa, boshqa davlatlar barchasi birgalikda BMT orqali A. davlatga nisbatan sanksiyalar joriy etadi. Ya'ni boshqa davlat hududiga xalqaro huquq qoidalarini buzib, hujum qilgan davlat yakalab qo'yiladi. Bu esa kelib chiqishi mumkin bo'lgan urushlarning oldini olishda yuqori samara beradi. Mazkur qoidaning mavjudligi davlatlarning turli guruhlariga ajralib olib, kuchlar taqsimotini muvozanatda saqlash orqali tinchlikni ta'minlashga urinishidan ko'ra ancha samaraliroq.



Mazkur chizmada A davlat BMT a'zosi bo'lgan B davlatga qurolli hujum qilmoqda. BMT a'zosi bo'lgan C, D, E, F davlatlar jamoaviy xavfsizlik tamoyiliga asoslangan holda BMT orqali A davlatga sanksiyalar qo'llamoqda.

O'ZBEKISTONNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BILAN HAMKORLIGI

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgach, 1992-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qo'shildi. Bugun BMTning 25 ta tuzilmasi (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMT Taraqqiyot dasturi kabilar) vakolatxonalari O'zbekistonda o'z faoliyatini olib bormoqda. Hozirga qadar mamlakatimiz va BMT ko'plab masalalar, xususan, O'rta Osiyoni yadroviy qurollardan xoli hududga aylantirish, Afg'onistonda tinchlik



o'rnatish, inson huquqlarini himoya qilish kabi masalalarda hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston va BMT hamkorligiga oid muhim sanalar va voqealar

- 1992-yil 2-martda O'zbekiston BMTga a'zo bo'ldi.
- 1993-yilda BMT Toshkentda o'z vakolatxonasini ochdi.
- 1993-yil sentyabr oyida birinchi prezident Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasida mustaqil O'zbekiston nomidan nutq so'zladi.
- O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli bo'lgan hudud yaratildi.
- 1999-yilda O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan "Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markazni tashkil etish g'oyasi" BMT tomonidan qabul qilindi va 2001-yildan mana shunday qo'mita BMT tarkibida faoliyatini boshladi.
- BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun 2010- va 2015-yillarda O'zbekistonga tashrif buyurdi.
- 2017-yili Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston prezidenti sifatida ilk bor nutq so'zladi.



BMT Bosh assambleyasining 76-sessiyasida nutq so'zlayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev (21.09.2021)



Savol va topshiriqlar

1. BMT tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qanday qoidalarga amal qiladi?
2. BMTning asosiy vazifalarini sanab o'ting.
3. Sizningcha, davlatlar o'rtasida doim katta va kichik urushlar bo'lishiga sabab nima?
4. O'zbekiston Respublikasi yana qanday masalalarda BMT bilan hamkorlik qilishi kerak deb o'ylaysiz?



Mustaqil ish uchun topshiriq

B. davlat A. davlatga hujum qildi. Boshqa davlatlar barchasi birgalikda BMT orqali B. davlatga nisbatan sanksiyalar joriy etdi. Ya'ni xalqaro huquq qoidalarini buzib boshqa davlat hududiga hujum qilgan B. davlat yakkalab qo'yildi.

B. davlatga nisbatan sanksiyalar qo'llanishi asoslimi? Berilgan vaziyat haqida mavzu doirasida olgan bilimlaringizga asoslanib o'z fikringizni bildiring.

Sizningcha, bu kabi sanksiyalarni qo'llash kelib chiqishi mumkin bo'lgan urushlarning oldini olishda yuqori samara beradimi?



30-DARS. BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING ORGANLARI

Biz qat'iy ishonamiz, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Shavkat Mirziyoyev



Siz bilib olasiz

Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari.
Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan tashkilotlari.
Bola huquqlarini himoya qilishda BMTning faoliyati.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING ORGANLARI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z maqsadlarini amalga oshirishida uning asosiy organlari katta ahamiyat kasb etadi. BMTning Bosh assambleya, Xavfsizlik kengashi, Ijtimoiy va iqtisodiy kengash, Vasiylik kengashi, Xalqaro adolat sudi hamda Kotibiyat deb nomlanadigan 6 ta asosiy organi mavjud. BMT ushbu asosiy organlari va ularning qoshidagi boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar orqali faoliyatini tashkil etadi.

Bosh assambleya. BMTga a'zo bo'lgan barcha davlatlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Unda davlatlar turli masalalar yuzasidan muzokaralar va muhokamalar o'tkazadi. Qaysidir masalada qaror chiqarish lozim bo'lsa, ovozga qo'yiladi. Ovoz berishda barcha davlatlarning vakillari teng huquqqa ega. Ya'ni har biri bir ovozga ega bo'ladi. Ushbu qarorlar BMTning Xavfsizlik kengashi hamda a'zo davlatlarga bajarish uchun tavsiya etiladi. Bundan tashqari, u BMTning boshqa organlari faoliyatini ham kuzatib boradi.

Xavfsizlik kengashi. BMTning eng asosiy maqsadi bo'lgan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashda eng muhim vazifani bajaradi. U o'n beshta a'zodan tashkil topadi. Shulardan beshtasi doimiy a'zolaridir. Ushbu doimiy a'zolar o'zgarmas bo'lib, ular AQSH, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya hamda Fransiya davlatlaridir. Qolgan o'nta davlat Bosh assambleya tomonidan ikki yilga adolatli geografik taqsimot tamoyiliga rioya etilgan holda saylanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash. BMTning 54 ta a'zosidan tashkil topadi va ular Bosh assambleya tomonidan uch yilga saylanadi. Ushbu organ iqtisodiy, ijtimoiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va madaniyat bilan aloqador xalqaro masalalarni o'rganish, ular bo'yicha hisobot va tavsiyalar tayyorlash kabilarni amalga oshiradi. Shuningdek, BMTning ko'plab muhim ixtisoslashtirilgan organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Vasiylik kengashi. Vasiylikdagi hududlarning mustaqillikka erishishi, ushbu hududlarda o'z-o'zini boshqarishga doir choralar ko'rish uchun tashkil etilgan. Hozir ushbu organning faoliyati to'xtatilgan.



Yodda tuting

Veto huquqi. Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolaridan birining ma'lum masala yuzasidan chiqarilishi mumkin bo'lgan qarorga qarshi ovoz berishi "veto huquqi" hisoblanadi. Aynan mana shu veto huquqi mavjud bo'lgani bois butun dunyo uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tinchlik va xavfsizlikka oid masalalar ushbu beshta davlatning umumiy rozilgisiz hal etilmay qoladi.




Xalqaro adolat sudi. BMTning sud organi hisoblanadi. U Bosh assambleya hamda Xavfsizlik kengashi tomonidan saylanadigan 15 nafar sudyadan tashkil topadi va doimiy faoliyat olib boradi. Ushbu sudga jismoniy hamda yuridik shaxslar murojaat qila olmaydilar. Faqatgina xalqaro huquq subyekti bo'lgan davlatlar va xalqaro tashkilotlar murojaat qilishlari mumkin. Biroq, masalan, A. degan davlat boshqa B. degan davlatni xalqaro huquq qoidalarini buzayotgani uchun BMTning Xalqaro adolat sudiga bermoqchi bo'lsa ham, B. davlatning roziligi bo'lmasa, Xalqaro adolat sudi ushbu nizoni ko'rib chiqa olmaydi.

Kotibiyat. Birlashgan Millatlar Tashkilotning ma'muriy va hujjatlar bilan bog'liq ishlarida Kotibiyatning o'rne juda ham yuqori. Kotibiyatga Bosh kotib boshchilik qiladi. U BMTga aloqador tezkor hamda ma'muriy ishlarni bajaradigan organdir. Masalan, deyarli barcha xalqaro shartnomalar BMT kotibiyati tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.



Tarixga nazar

Janubiy Koreya va Yaponiya o'rtasida bir orol (yaponcha: Takeshima, koreyscha: Dokdo) muammo bo'lib keladi. Hozir uni Janubiy Koreya boshqarib kelsa-da, Yaponiya bunga rozi emas. Shu sababli Xalqaro adolat sudida ushbu masalani ko'rib chiqishni istaydi. Biroq Janubiy Koreya ishni sudda ko'rib chiqish bo'yicha rozilik bildirmagani bois Xalqaro adolat sudi ishni hal eta olmaydi.



BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING IXTISOSLASHGAN TASHKILOTLARI

BMT iqtisodiy va madaniy, inson huquqlari, sog'liqni saqlash, ekologiya kabi turli sohalarda o'zining ixtisoslashgan tashkilotlari orqali davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirmoqda. Shuningdek, davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar va urushlarning yuzaga kelish sabablarini bartaraf etish bilan ham shug'ullanmoqda. Bu yo'lda Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Xalqaro fuqarolik aviatsiyasi tashkiloti (ICAO), Fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkilot (UNESCO), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) kabi ixtisoslashgan tashkilotlarning o'rne kattadir. Bugungi kunda BMTning jami 17 ta ixtisoslashgan tashkiloti faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning har biri muayyan bir sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ixtisoslashgan.



BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) logotipi. Unda bug'doy boshog'i va lotin tilidagi shiori "Fiat panis" aks etgan. "Fiat panis" jumlasini "Non bo'lsin" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni yer yuzidagi barcha xalqlar uchun tinchlik, ozodlik, to'kinchilik va farovonlik bo'lsin, deganidir.

BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA BMTNING FAOLIYATI



Bola huquqlarini himoya qilishda ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining hissasi ulkandir. Bolalar huquqlarini himoya qilish BMTning eng oliy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bolalar huquqlarini himoya qilishda BMT dunyodagi barcha davlatlarga ko'mak berib kelmoqda. Bu o'rinda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining o'rni beqiyosdir. Ushbu xalqaro shartnoma 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 44-sessiyasida qabul qilingan bo'lib, uni O'zbekiston 1992-yilda ratifikatsiya qilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridanoq bola huquqlarini himoyalashni asosiy o'ringa qo'ygan va bu yo'lda BMT bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Mazkur Konvensiyada bolalarning huquqlari bilan bog'liq juda muhim jihatlar o'z aksini topgan. Xususan, ushbu hujjat 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarni bolalar deb belgilaydi va dunyodagi barcha bolalar o'z huquqlarining subyekti ekanini ta'kidlaydi. Ushbu xalqaro shartnoma qabul qilingandan keyin dunyo bo'ylab bolalarning ahvoli yaxshilandi. Ko'plab mamlakatlar bolalarning huquqlariga oid o'zlarining ichki qonunlari va amalga oshirayotgan siyosatini qayta ko'rib chiqdi. Ularning himoyasi uchun davlat byudjeti ko'paytirildi va ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan bolalar huquqlarini amalga ta'minlash hamda bolalar duch keladigan muammolarni hal qilishga e'tibor qaratila boshladi. Aynan BMT tomonidan ushbu Konvensiya qoidalariga asoslanib yo'lga qo'yilgan keng qamrovli mexanizm tufayli ko'plab bolalar maktabga borish imkoniyatini qo'lga kiritdi va ularning ko'plari bolalar mehnatidan ozod bo'ldi. Shu sababli ular boshqa bolalar kabi yashash, o'z imkoniyatlari

va qobiliyatlarini yuqori darajada namoyon etish huquqiga ega bo'ldi. Shuningdek, bu Konvensiya bolalar savdosiga qarshi kurashishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har to'rt boladan bittasi mojarolar tus olgan va favqu-lodda holatlar tez-tez ro'y beradigan hudud-larda yashaydi. Ularning huquqlari yetarli darajada ta'minlangan deb aytish qiyin. Sizlar esa maktabga erkin bora olishingiz, tengdoshlaringiz bilan birgalikda qobili-yatlaringizni namoyon etish imkoniyatiga



Yodda tuting

Bolalar mehnati deganda bolalarni bolalikdan mahrum qiladigan, ularning maktabga borishiga to'sqinlik qiladigan hamda ular uchun aqliy, jismoniy, ijti-moiy va axloqiy jihatdan zararli bo'lgan har qanday mehnat shakllari orqali bo-lalarni ekspluatatsiya qilish tushuniladi. Hozir bolalar mehnati butun dunyoda taqiqlangan.



egasiz. Bunda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning hissasi katta. Chunki davlatimiz ham ushbu Konvensiya qoidalarini ichki qonunchilikka kiritish orqali sizlarning huquqlaringizni himoya qilib keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonunida ushbu Konvensiyadagi barcha bola huquqlari o'z aksini topgan.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada belgilab berilgan bolalarning asosiy huquqlarini quyidagi sodda turkumlarga ajratishimiz mumkin




Yashash huquqi

Yashash huquqi har bir bolaning ajralmas huquqi ekani va bolalarning eson-omon yashashi hamda sog'lom rivojlanishi uchun tibbiy xizmatning taqdim etilishi.



O'sib-ulg'ayish huquqi

Ta'lim olish, o'ynash, tug'ma qobiliyatlarini yetarli darajada namoyon qilish.



Himoya qilinish huquqi

Ota-onasi yoki davlat parvarishida bo'lish, do'pposlanish, qiynoqqa solish yoki kamsitilishlardan himoya qilinish, majburiy mehnatga jalb qilinmaslik.



Ishtirok etish huquqi

O'zining fikrlarini erkin tarzda ifodalash, din va vijdon erkinligi, assotsiatsiya va tinch yig'ilish erkinligi kabilar.

UNICEF TASHKILOTI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining yana bir muhim ixtisoslashgan tashkiloti UNICEF hisoblanadi. UNICEF Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining rezolyutsiyasiga asosan Ikkinchi jahon urushidan keyin bolalarga moddiy yordam va ko'mak ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan. U dunyodagi deyarli barcha davlatlarda bolalar hayotini saqlab qolish, ularning huquqlarini himoya qilish va bolalar kichik yoshdan boshlab to o'smirlik davrlarigacha o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishiga ko'mak berishni maqsad qiladi. UNICEF o'z faoliyati jarayonida barcha bolalar teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga intiladi. Shu sababli davlatlar hukumatlari bilan olib boriladigan hamkorlikda ham ushbu tashkilot asosiy e'tiborni har bir bolaning xavfsiz va yaxshi muhitda o'sish huquqini ta'minlashga qaratadi.

Mana shu tarzda sizlarning huquqlaringiz himoya qilinadi. Biroq texnologiyalar va internetning keng ko'lamda rivojlanishi natijasida bola huquqlarini himoya qilishga doir yangi muammolar ham paydo bo'lmoqda. Xususan, internetdagi bezoriliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi kamsitishlardan bolalarni qanday qilib himoya qilish bugunning dolzarb muammolaridan bo'lib turibdi.



Tarixga nazar

UNICEF o'z faoliyatini amalga oshirishda ustuvorlik beradigan yo'nalishlariga qarab o'z belgisini va undagi shiorni o'zgartirib turadi. Quyida ulardan bir nechta misollar keltiramiz.

1953-yil. "Sut ichayotgan bola" ramzi	1960-yil. "Farzandini ko'tarib turgan ona" ramzi	2001-yil. Ramz biz bilgan moviy tusga kirgan	2016-yil. "Barcha bolalar uchun"
Bu davrda tashkilotning asosiy faoliyati bolalarga sut yetkazib berish bo'lgan.	Bu davrga kelib tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishi otalar va farzandlariga umid hamda quvonch ulashish, bolalar xavfsizligi va huquqlari himoyasi bo'lgan.	Bu davrdagi asosiy yo'nalish ramz tagiga yozib qo'yilgan. U barcha bolalarga sog'liq, ta'lim, tenglik, himoyani taqdim etishni anglatgan.	Ushbu davrdan boshlab tashkilot faoliyatining ustuvor yo'nalishi qayerda yashashidan qat'i nazar, barcha bolalarning huquqlarini himoya qilishdir.



Savol va topshiriqlar

1. BMTning asosiy organlari va ular bajaradigan vazifalarning bir-biridan farqi nimada?
2. BMTning asosiy organlarini sanab o'ting.
3. Sizningcha, veto huquqi faqatgina beshta davlatga berib qo'yilishi to'g'rimi?
4. BMTning Xavfsizlik kengashiga yana qaysi davlatlarni doimiy a'zo sifatida kiritgan bo'lar edingiz?
5. BMTning Xalqaro adolat sudiga yuridik va jismoniy shaxslar murojaat qila olmasligining sababi nimada deb o'ylaysiz?



Mustaqil ish uchun topshiriq

BMTning 17 ta ixtisoslashgan tashkiloti ro'yxati keltirilgan jadval yarating. Jadvalning chap tomoniga ularning nomlarini, o'ng tomoniga esa bajaradigan vazifalarini yozing. Shundan so'ng o'zingiz yana qanday ixtisoslashgan tashkilotlarni qo'shishni istashingizni va buning sabablarini jadvalning quyi qismida keltiring.



31-DARS. O'ZBEKISTONNING XALQARO HAMJAMIYATDAGI O'RNI

*Agar temir ishlatilmasa, zanglaydi.
Agar suv harakatlanib turmasa, ayniydi.
Agar kishi fikrlamasa, aqlda ham shunday holat yuz beradi.
Leonardo da Vinci*



Siz bilib olasiz

O'zbekistonning tashqi siyosati.
O'zbekistonning xalqaro hamkorligi.

O'ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati dunyodagi tinchlik va osoyishtalikni saqlashga, boshqa davlatlarning suvereniteti hamda siyosatini hurmat qilishga qaratilgan. O'zbekistonning tashqi siyosati avvalo mamlakatimiz Konstitutsiyasida o'zining asosini topgan. Xususan, IV bob "Tashqi siyosat" deb nomlanib, 17-moddada mamlakatimiz olib boradigan tashqi siyosatning asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Ular quyidagilar hisoblanadi:

- **Davlatlarning suveren tengligi:** barcha davlatlarning teng ekani va hech bir davlat boshqa davlatlardan ustun yoki past ko'rilmasligini nazarda tutadi.
- **Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik:** bir davlat boshqa davlatga nisbatan o'z qurolli kuchlarini ishga solgan holda hujum qilishi yoki shu kabi harakatni amalga oshirishini aytib tahdid qilishini taqiqlaydi.
- **Chegaralarning daxlsizligi:** davlatning asosiy belgisi bo'lgan hududini buzmaslikni nazarda tutadi.
- **Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyili:** davlatlar o'rtasida nizolar yuzaga kelganda harbiy kuchlarni ishga solmasdan, xalqaro huquq qoidalariga amal qilgan holda sud, muzokara yoki boshqa vositalar orqali muammoni hal etishni targ'ib qiladi.
- **Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik:** har bir davlat o'zining ichki ishlarini mustaqil hal etishini hurmat qilishni talab etadi. Bundan tashqari, xalqaro huquqda nazarda tutilgan boshqa tamoyillar ham tashqi siyosatning asosini tashkil etishi mumkin.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyili amalda

O'zbekiston o'z qo'shnisi Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaraga doir bir qancha muammolarni Sh. Mirziyoyevning yaxshi qo'shnichilik siyosati va tinch yo'l, xususan, muzokaralar orqali hal etib kelmoqda.

Ushbu rasmda Qirg'iziston Respublikasi tomonidan ma'lum muddatga yopib qo'yilgan "So'x-Rishton" yo'lida joylashgan postlardan biri aks etgan.





O'zbekiston tashqi siyosatida amal qiluvchi tamoyillar BMT Nizomida

Davlatlarning suveren tengligi	Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik	Chegaralar-ning daxlsizligi	Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish	Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik
2-modda 1-band	2-modda 4-band	2-modda 4-band	33-modda	2-modda 7-band

O'ZBEKISTONNING XALQARO HAMKORLIGI

Mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega davlatdir. Shu sababli xalqaro hamjamiyat a'zosi bo'lgan deyarli barcha davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa sohalarida xalqaro hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Buning asosi Konstitutsiyaning 18-moddasida aks etgan. Mamlakatimiz bir qator mintaqaviy xalqaro tashkilotlar doirasida ko'plab davlatlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekiston xavfsizlikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilish yo'lida Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti qatnashchisi. Bundan tashqari, mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik yo'lida 2001-yildan buyon O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotining muhim a'zolaridan hisoblanadi. Islom davlatlari va aholisining katta qismini musulmonlar tashkil etadigan davlatlar bilan hamkorlikni esa Islom hamkorlik tashkiloti doirasida amalga oshirmoqda. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz dunyoning barcha davlatlari bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'ygan.

O'zbekiston xavfsizlikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa bir qancha sohalarida xalqaro hamjamiyat rivoji uchun o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Masalan, atrof-muhitni himoya qilish sohasida hozir dunyoning eng katta global-ekologik halokatlaridan biri bo'lgan Orol dengizi muammosini hal etish maqsadida xalqaro hamjamiyat e'tiborini Orolga qaratish va uni qutqarish bo'yicha jamg'armalar tuzishda tashabbus ko'rsatmoqda. Bu nafaqat O'zbekiston va Qoraqalpog'istonga, balki Orol qurishi natijasida boshqa davlatlarga yetkaziladigan zararining oldini oladi. Shuningdek, qo'shni Afg'onistonda bo'layotgan voqealarga ham befarq qaramasdan, u yerda tinchlik o'rnatilishi uchun 2018-yilda O'zbekiston tashabbusi bilan "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sherik-



Tarixga nazar

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi – 1991-yil 8-dekabrda tuzilgan mintaqaviy tashkilot. 1991-yil 21-dekabrda O'zbekiston bir qancha davlatlar bilan birgalikda unga a'zo bo'ldi. Tashkilotning maqsad va vazifalari Olmaota deklaratsiyasida belgilab qo'yilgan. 1993-yilda qabul qilingan MDH nizomi esa a'zo davlatlar inson huquqlari, transport, aloqa, iqtisod, sog'liqni saqlash, chegara, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, atrof-muhit kabi bir qancha masalalarda hamkorlik qilishini belgilab beradi.



lik” mavzusida Toshkent xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston bu orqali xalqaro hamjamiyatning xavfsizligiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Shu bilan birgalikda, inson huquqlari, xususan, yoshlar huquqlarini himoya qilish maqsadida 2017-yil sentyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida “Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya”ni qabul qilish g‘oyasi ilgari surildi. Bu mamlakatimiz xalqaro huquq normalarining yaratilishiga ham o‘z hissasini qo‘shayotganini anglatadi.

SHHTga a‘zo davlatlar xaritasi



- To‘laqonli a‘zolar
- Kuzatuvchilar
- Muloqot sheriklari



Orol dengizidagi kemalar qabristoni.



O‘zbekistondan Afg‘onistonga yuborilgan insonparvarlik yordami yo‘lda (2023-yil).



Savol va topshiriqlar

1. Tashqi siyosatni yuritish nima uchun davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi?
2. Nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?
3. BMT nizomida belgilab qo‘yilgan tashqi siyosat tamoyillari davlatlar rivojlanishiga qanday ta‘sir ko‘rsatmoqda?
4. Davlatimiz tashqi siyosiy faoliyatini qaysi sohalarda ko‘proq yo‘lga qo‘yishi lozim deb hisoblaysiz?



Mustaqil ish uchun topshiriq

Shartli davlat tuzing va uni nomlang. Davlatingizning tashqi siyosat tamoyillarini ishlab chiqing. O‘zbekistonning tashqi siyosat tamoyillaridan qaysilarini o‘z davlatingiz tashqi siyosatiga kiritgan bo‘lardingiz va yana qanday tamoyillarni qo‘shardingiz? Shuningdek, davlatingizni qanday xalqaro tashkilotlarga a‘zo qilgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?



32-DARS. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGI

*Hech kim hech qachon unutmasligi kerak:
qanchalik qiyin bo'lmasin, qancha mablag' va imkoniyat talab etilmasin,
O'zbekistonning birorta fuqarosi o'z holiga tashlab qo'yilmaydi.
Shavkat Mirziyoyev*



Siz bilib olasiz

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish.
Fuqarolikni yo'qotishning huquqiy asoslari.
Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGIGA EGA BO'LISH

Xalqaro hamjamiyatda fuqarolik masalasi juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bir davlat aholisi va chet elliklar o'rtasidagi farq aynan ularning qaysi davlat fuqarosi ekaniga bog'liq. Jismoniy shaxslar qayerda bo'lmasin, deyarli har doim o'z fuqaroligi mansub bo'lgan davlat bilan uzviy aloqadordir.



Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 15-modda.

1. Har bir insonning fuqaro bo'lish huquqi bor.
2. Hech kim o'zboshimchalik bilan o'z fuqaroligidan yoki o'z fuqaroligini o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Albatta, biror davlatning fuqaroligiga ega bo'lish shu davlatda yashash hamda bu yerdagi siyosiy huquqlardan foydalanish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Shuning uchun biror shaxsga fuqarolikni taqdim etish yoki taqdim etmaslik to'liq davlatning vakolatiga kiradi. Davlat o'z ichki normativ-huquqiy hujjatlariga asosan shaxslarga fuqarolik taqdim etish yoki taqdim etmaslik masalasini hal qiladi. Davlat shaxslar qanday holatlarda uning fuqaroligiga ega bo'lishi borasidagi talablarni ham o'rnatadi. Turli davlatlar o'zlarining ichki holatidan kelib chiqib, turli xil qoidalarni belgilaydi.

**Fuqaroning pasporti
(16 yoshga to'lganlar
uchun)**



**Identifikatsiyalovchi
karta (16 yoshga
to'lganlar uchun)**




**Tug'ilganlik haqidagi
guvohnoma (16 yoshga
to'lganlar uchun)**





Mamlakatimizda O'zbekiston fuqaroligini olish va tugatishga doir munosabatlar "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunga asosan tartibga solinadi. Masalan, ushbu qonunga ko'ra, tug'ilganlik bo'yicha, bola farzandlikka olinganda hamda fuqarolikka qabul qilish bilan shaxslar mamlakatimiz fuqaroligini olishlari mumkin bo'ladi. Albatta, bunda ixtiyoriylik tamoyiliga amal qilinadi. Ya'ni hech kim majburan fuqarolikka qabul qilinmaydi. Ya'ni kim mamlakatimiz fuqaroligini olmoqchi bo'lsa, o'zi buni ixtiyor qilishi kerak. Masalan, Tojikiston fuqarosi O'zbekiston fuqaroligiga o'tmoqchi bo'lsa, o'z ixtiyoriga ko'ra, ariza bilan vakolatli idoralarga murojaat qiladi va yakunda uni O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilish yoki qabul qilmaslik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan hal etiladi.

Ammo bu yerda yana bir muhim masala mavjud bo'lib, bu chet el fuqarosining o'z fuqaroligidan chiqishi lozimligidir. Chunki O'zbekiston faqat yagona fuqarolikni tan oladi. Ikki yoki ko'p fuqarolik bizning mamlakatimizda tan olinmaydi. Biror shaxs O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilinsa, u O'zbekistonda tug'ilganmi yoki boshqa mamlakatda – buning ahamiyati yo'q. Mazkur fuqaro ham barcha O'zbekiston fuqarolari bilan bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.



Yagona fuqarolik faqatgina bir davlatning fuqaroligiga ega bo'lish hisoblanib, bugun ko'plab davlatlar aynan yagona fuqarolik tamoyiliga amal qiladi.

Ikki yoki ko'p fuqarolik bir shaxs bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ko'p davlatlarning fuqarosi bo'lishidir. Masalan, Ispaniya va Portugaliya kabi davlatlar ikki fuqarolikka ruxsat beradi. Malta va bir qancha Karib dengizi mamlakatlari uch fuqarolikka ham ruxsat beradi. So'nggi yillarda ikki fuqarolikka ruxsat beruvchi mamlakatlar soni oshib bormoqda.



Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa xususiyatlariga qarab farqlanmaydi. Ya'ni



O'zbekiston hududida doimiy yashab kelayotgan va tegishli qonunlarga ko'ra O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lgan kishilarni rus, qozoq, o'zbek, qirg'iz, tojik yoki boshqa millatga mansubligiga qarab ajratmasligimiz lozim. Ular qaysi dinda ekanliklari ham ahamiyatli emas. Ushbu mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar bir-birlarini hurmat qilishi zarur.

FUQAROLIKNI YO'QOTISHNING HUQUQIY ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasida fuqarolikni tugatish, ya'ni O'zbekiston fuqarosi bo'lgan biror shaxsni endi mamlakatimiz fuqarosi deb hisoblamaslikning ikki asosi mavjud. Birinchisi fuqarolikdan chiqish bo'lsa, ikkinchisi fuqarolikni yo'qotish hisoblanadi. Fuqarolikdan chiqish shaxsning o'z ixtiyori bilan tegishli davlat organlariga murojaat etishi orqali amalga oshiriladi va murakkab jarayon emas. Shu sababli darsimizning mazkur qismida asosan fuqarolikni yo'qotish bilan bog'liq masalalarga to'xtalamiz.

Fuqarolikni yo'qotish borasidagi qonun mamlakatimiz xavfsizligi ta'minlash hamda yagona fuqarolik tamoyilidan kelib chiqib, bir qancha shartlarni qo'yadi. Masalan, O'zbekiston fuqarolaridan biri chet davlatning qurolli kuchlariga harbiy bo'lib ishga kirdi, deb faraz qilaylik. Bunday holatda mazkur shaxsning mamlakatimiz fuqarosi sifatida maqomini saqlab qolishi davlat tomonidan taqdim etiladigan barcha huquqlar ushbu shaxsga ham taqdim etilishini anglatadi. Natijada bu shaxs ushbu huquqlardan foydalanib O'zbekiston qurolli kuchlari tarkibiga kirib olishi va mamlakatimiz sirlarini boshqa davlatlarga xufiyona yetkazib turishi uchun imkoniyat paydo bo'lib qoladi. Shu sababli davlat va jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan sohalar, xususan, chet davlatning harbiy xizmatiga, xavfsizlik organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlariga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga xizmatga kirganligi oqibatida shaxs O'zbekiston fuqaroligini yo'qotadi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz fuqarosi xorijda doimiy yashashiga qaramasdan, yetti yil mobaynida uzrli sabablarsiz doimiy konsullik hisobida turmasa ham fuqaroligini yo'qotishi mumkin. Shuningdek, biror shaxs soxta hujjatlar taqdim etish bilan O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilingan bo'lsa yoki shaxs boshqa davlat fuqaroligini ixtiyoriy qabul qilgan hollarda O'zbekiston fuqaroligini yo'qotadi. Qisqa qilib aytganda, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda fuqarolikni yo'qotish bilan bog'liq holatlar aniq belgilab berilgan. Yana bir muhim qoidani unutmaslik lozim, biror fuqaro O'zbekiston fuqaroligini yo'qotganda bu uning turmush o'rtog'i yoki farzandlarining fuqaroligiga ta'sir etmaydi.

FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLARNING HUQUQLARI

Mamlakatimizda O'zbekiston fuqarolaridan tashqari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ham uchratamiz. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari mamlakatimiz tomonidan xalqaro huquq qoidalariga binoan himoya qilinadi. Bu qoida Konstitutsiyamizning 24-moddasida



Fuqaroligi bo'lmagan shaxs – O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan va o'zining chet davlat fuqaroligiga mansubligiga doir dalilga ega bo'lmagan shaxs.



mustahkamlab qo'yilgan (chet elliklarning huquqlari haqida 4-bobda batafsil ma'lumot beriladi).

O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, ba'zi huquqlarni hisobga olmaganda, O'zbekiston fuqarolari bilan teng huquq va majburiyatlarga ega. Masalan, ijtimoiy ta'minot, ta'lim olish, sog'liqni saqlash, mulkiy, mamlakatimiz hududida erkin harakatlanish kabi masalalarda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston fuqarolari bilan deyarli bir xil teng huquqlarga ega.

Ammo ba'zi bir sohalarda bunday emas. Xo'sh, ularga nisbatan qanday cheklovlar mavjud? Masalan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga siyosiy huquqlar bilan bog'liq jiddiy cheklovlar o'rnatilgan. Xususan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati vakillik organlari saylovlarida saylovchilar sifatida ishtirok eta olmaydilar. Shuningdek, ular davlat hokimiyati organlariga saylanishi (tayinlanishi) mumkin emas. Mamlakatimizda o'tkaziladigan referendumlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bo'ladigan saylovlarda ham qatnasha olmaydilar. Yuqoridagilardan tashqari, mehnat faoliyatida ham ba'zi huquqlari cheklanishi mumkin. Xususan, ma'lum bir lavozimlarga tayinlanish yoki muayyan mehnat faoliyati turi bilan shug'ullanish O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik bilan bog'liq bo'lsa, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ushbu lavozimlarga tayinlanishi, saylanishi yoki muayyan mehnat faoliyati turi bilan shug'ullanishi mumkin emas. Masalan, O'zbekistonda respublikamiz fuqarolarigina advokat yoki sudya bo'la oladi.

Albatta, huquqlardan tashqari majburiyatlar masalasida ham bir qancha farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, umumiy harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga tegishli, mamlakatimizda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Ya'ni O'zbekistonda yashovchi 18 yoshga to'lgan fuqaroligi bo'lmagan yigit armiyaga borib harbiy xizmatni o'tash majburiyatiga ega emas.

Yuqoridagilar kabi bir qancha huquqlarning fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga taqdim etilmasligi ularga o'z orzu-istaklarini amalga oshirishda to'sqinlik qilishi tabiiy hol. Shu sababli so'nggi yillarda yurtimizda fuqarosizlikka barham berishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'p yillardan buyon O'zbekistonda yashab kelayotganlar va ularning oilalariga O'zbekiston fuqaroligi taqdim etilmoqda. Ushbu siyosat nafaqat O'zbekiston Respublikasining insonparvar, ichki normativ-huquqiy hujjatlarining maqsadlariga, balki Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961-yilgi Fuqarosizlikni qisqartirish to'g'risidagi konvensiyasi maqsadlariga ham to'la mos keladi.



Savol va topshiriqlar

1. Nima deb o'ylaysiz, insonga fuqarolik nima uchun kerak?
2. Sizningcha, fuqarolar huquqlarini ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni kim ta'minlashi lozim?
3. Fuqaro va davlat o'rtasida qanday o'zaro bog'liqlik vujudga keladi?
4. O'zbekistonda fuqarolikka doir qanday tamoyillar amal qiladi?
5. O'zbekistonda fuqarolikka ega bo'lish uchun qanday qonuniy asoslar nazarda tutilgan?
6. Qanday holatlarda O'zbekiston fuqarolari o'z fuqaroligini yo'qotishlari mumkin?



33-DARS. O'ZBEKISTONDA MAHALLIY AHOLI VA CHET ELLIKLAR

*Insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash
odamiylikning eng oliy mezonidir.
Shavkat Mirziyoyev*



Siz bilib olasiz


O'zbekiston o'z fuqarolarini chet elda himoya qilishi.
Chet el fuqarolarining huquqlari.
Xalqaro huquqda jismoniy shaxslarning himoyalaniishi.

O'ZBEKISTON O'Z FUQAROLARINI CHET ELDA HIMOYA QILISHI



Birinchi bobda asosan O'zbekiston fuqarolari va mamlakatimizda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar haqida ma'lumot berib o'tgan edik. Ushbu darsda esa chet elliklar va O'zbekiston fuqarolarining chet elda himoya qilinishi haqida so'z yuritamiz. Xalqaro hamjamiyatda fuqarolik masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bir davlat aholisi va chet elliklar o'rtasidagi farq aynan ularning qaysi davlat fuqarosi ekaniga bog'liq. Jismoniy shaxslar qayerda bo'lmasin, deyarli har doim o'z fuqaroliklari mansub bo'lgan davlat bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladilar. O'zbekiston o'z fuqarolarini nafaqat O'zbekiston hududida, balki undan tashqarida ham himoya qiladi. Mazkur qoida

Konstitutsiyaning 23-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur moddada O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi ham belgilab qo'yilgan. Albatta, bu qoida davlatning o'z fuqarolariga nisbatan yuqori darajada qayg'urishini namoyon etadi. Bundan tashqari, globallashib borayotgan va bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakatga turli yumushlar bilan chiqish muammo bo'lmagan bugungi davr talabini hisobga olgan holda, xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirishga konstitutsiya darajasida e'tibor qaratilgan. Chunki kim qayerda bo'lmasin, asli o'zbekistonlik ekan, vatandagilar ular bilan, ular esa vatandagilar bilan uzilmas aloqada bo'ladi va barcha birgalikda O'zbekiston hamda uning rivoji yo'lida qayg'uradi. Demak, mamlakatimiz siz va bizning huquqlarimizni xorijiy mamlakatlarda ham himoya qilar ekan. Bu qoida fuqarolarimizning pasportlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, xorijga chiqish pasportlarining eng oxirgi betida "Pasport O'zbekiston Respublikasi mulkidir. Ushbu pasport egasi O'zbekiston Respublikasi himoyasidadir" deb yozib qo'yilgan. Davlat sizni xorijiy





mamlakatlarda ham himoya qilishni kafolatlamogda. Demak, xorijda bo'lganingizda sizning huquq va manfaatlariniz buzilsa, o'sha davlatda joylashgan O'zbekistonning elchixonasi yoki konsullik idoralariga murojaat qilishingiz kerak. Ammo zamonaviy xalqaro hamjamiyatda globallashuv jarayoni shu darajada tezlik bilan davom etmoqdaki, bir davlatdan boshqa davlatga ko'chib o'tayotganlar, ishga yoki sayohatga kelayotganlarning son-sanog'i yo'q. Mana shunday paytda "Davlat meni nima bo'lsa ham himoya qilib olar ekan" degan qarashda bo'lmaslik kerak. Aksincha, siz borayotgan davlatda qanday qonun-qoidalar mavjudligini o'rganish va o'zingizga shubhali tuyulgan xatti-harakatlardan tiyilish maqsadga muvofiq.

Xorijga chiqqaningizda o'zingiz borgan davlat uchun chet ellikka aylanasis. O'zbekistonda chet elliklar mamlakatimizdagi qoidalarni hurmat qilishlari talab etilganidek, siz ham u yerdagi qoidalarga bo'ysunishingiz o'sha davlat tomonidan talab etiladi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarga chiqqaningizda o'sha davlatlardagi urf-odatlar bilan birgalikda ularning ichki huquqdagi asosiy qoidalarini ham bilib oling. Bu sizni ko'plab ko'ngilsizliklardan saqlaydi. Bundan tashqari, sizning har qanday harakatingiz o'sha davlat fuqarolarida yurtimiz imijini shakllantiradi.

Yuqoridagilardan tashqari, davlat o'z fuqarolarini chet davlatning xalqaro huquqqa zid bo'lgan xatti-harakatlaridan ham himoya qiladi. Bunday himoya "Diplomatik himoya" deb ataladi va xalqaro odat huquqi sifatida juda ham mashhur. Bunda davlat chet elda huquqlari buzilayotgan fuqarosining huquqlarini o'zining elchi yoki konsul kabi vakillari, umuman diplomatik yo'llar orqali o'sha davlatdan himoya qilishga urinadi. Ammo bu qoidani diplomatlarning daxlsizligiga oid qoidalar bilan adashtirib yubormang.



Yodda tuting

Diplomatik himoya davlat o'z fuqarolarining huquqlarini buzgan davlatga nisbatan diplomatik yoki boshqa choralarni qo'llagan holda o'z fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishidir.



Tarixga nazar

2017-yilda **A.** va **B.** ismli ikki ayol Pokistonga boradi. Ammo ularning pasportlarini olib qo'yib, o'sha yerlik bir shaxsga sotib yuborishadi. Yaxshiyamki, ushbu ikki O'zbekiston fuqarosi Pokiston poytaxti Islomobodagi elchixonamizga borishning uddasidan chiqadi. Elchixona ularga yordam beradi va O'zbekistonga yuboradi. Albatta, mazkur vaziyatda ular Pokistonga kirish va chiqish yoki u yerda bo'lish qoidalarini buzganliklari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin edi, lekin elchixonaning yordami sababli muqarrar jazodan qutulib qolgan.

Xorijiy mamlakatlarga sayohatga borish yoki u yerda o'qish va ishlashning o'ziga xos ma'suliyati bor. Biroq xorijda o'zingiz tanimagan va bilmagan insonlarga ishonish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli pasportingizni hech qachon o'z-galarga berib qo'ymang.



CHET EL FUQAROLARINING HUQUQLARI

Mamlakatimizda O'zbekiston fuqarolaridan tashqari chet elliklar ham yashaydi. Chet elliklarning huquqlari mamlakatimiz tomonidan xalqaro huquq qoidalariga binoan himoya qilinadi. Bu qoida Konstitutsiyamizning 24-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi qonunda ham chet el fuqarolarining huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanishi belgilangan. Shuningdek, ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi o'rnatilgan. Shuning uchun chet elliklar mamlakatimizda immigrant, turist, tadbirkor yoki boshqa kasb egasi sifatida bo'lib turgan vaqtda ular bilan yaxshi munosabatda bo'lish lozim. O'z navbatida, ular ham O'zbekistondagi qonun-qoidalarni hurmat qilishlari talab etiladi.

Huquqshunoslikda yana shunday bir soha borki, unga ko'ra, chet ellik jismoniy va yuridik shaxslar bilan bog'liq ba'zi xususiy masalalarda O'zbekistonda chet el qonunchilik normalari qo'llanishi yoki xorijiy mamlakatda O'zbekiston qonunchilik normalari qo'llanishi ham mumkin. Bu soha "Xalqaro xususiy huquq" deb ataladi. Sudlar ham huquqiy xatti-harakatlar chet elda yoki O'zbekistonda yuz berganiga qarab ishni ko'rib chiqish yoki ko'rib chiqmaslik masalasini hal etishi, chet elda chiqarilgan qarorlarni tan olishi yoki olmasligi ham aynan shu soha yordamida tartibga solinadi. Unutmang, bu soha "Xalqaro xususiy huquq" deb nomlansa-da, u xalqaro huquqning emas, balki davlatning ichki huquq tarmog'i hisoblanadi.

XALQARO HUQUQDA JISMONIY SHAXSLARNING HIMOYALANISHI

Insonlarning huquqlari va manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Xo'sh, agar shaxsning huquqi o'z davlati tomonidan buzilsa yoki davlati uni himoya qilmasa, kim shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi? Bunday paytda xalqaro huquq himoyaga keladi. Ya'ni inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar va inson huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar orqali shaxslarning huquqlari himoya qilinadi.

Lekin bu shaxsning huquqlari buzilganda u darhol xalqaro inson huquqlarini himoya qiladigan tashkilotlarga murojaat qilishi zarur degani emas. Avvalo, shaxsning huquqlari buzilgan davlatdagi sud kabi vakolatli davlat organlariga murojaat qilinishi kerak.



Yodda tuting

BMT Inson huquqlari qo'mitasi – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalari o'z ishtirokchi davlatlari tomonidan bajarilishini nazorat qiluvchi mustaqil ekspertlar guruhidan tashkil topuvchi tuzilma. U davlatlarning davriy hisoboti yuzasidan o'zining tavsiya va yakuniy xulosalarini taqdim etib boradi. Buning natijasida davlatlarning ichki qonunchiliklari, siyosat va amaliyotlarida ko'plab ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi va bu insonlarga o'zlarining fuqarolik va siyosiy huquqlaridan foydalanishga yordam beradi.



U barcha bosqichlarda chiqarilgan qarorlardan qoniqmasa, undan keyin xalqaro darajada inson huquqlarini himoya qiladigan institutlarga murojaat qiladi. Bunday institutlarga misol qilib global miqyosda fuqarolik va siyosiy huquqlarni himoya qiluvchi va jismoniy shaxslar ham shikoyat bilan murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan BMTning Inson huquqlari qo'mitasi yoki mintaqaviy doirada inson huquqlari himoyasini ta'minlovchi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi kabilarni keltirishimiz mumkin.



Tarixga nazar

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari ham xorijiy mamlakatlar tomonidan huquqlari buzilganda xalqaro huquqdan najot izlaganlar. Xususan, Turkiya, Rossiya hamda boshqa Yevropa davlatlari ustidan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga murojaat qilgan fuqarolari-mizning soni talaygina.



Fransiyaning Strasburg shahrida joylashgan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi binosi



Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, fuqarolar huquqlaridan erkin foydalana olishi uchun zarur shart-sharoitlarni kim ta'minlashi lozim?
2. Xorijiy davlatda sizning huquq va manfaatlaringizga putur yetkazilgan taqdirda, siz qayerga murojaat etasiz?
3. Nima uchun davlatlar o'z fuqarolarini xalqaro maydonlarda ham himoya qilishi zarur?



Mustaqil ish uchun topshiriq

A. ismli shaxs B. davlatining fuqarosi. U hozir D. davlatida istiqomat qiladi. Uning inson huquqlari, xususan, mulk huquqi D. davlati tomonidan qo'pol tarzda buzildi. Ya'ni D. davlati hukumati A. ismli shaxsning D. davlatida joylashgan barcha mulklarini huquqiy asoslarsiz tortib oldi. Ushbu vaziyatda A. ismli shaxs o'zi fuqarosi bo'lgan B. davlatdan uning huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishini so'rab murojaat qilishi mumkinmi?

Egallagan bilimlaringiz asosida fikringizni bayon eting.



34-DARS. IJODIY FAOLIYAT

*Ish meni charchatgan vaqtni eslolmayman.
Lekin bekorchilik meni charchatadi.
Artur Konan Doyl*

XORIJGA CHIQISH PASPORTINI OLAMIZ

S. va A. 11-sinfni bitirdi. Ikkisi ham 18 yoshga to'lgani uchun kelgusidagi ishlarini rejalashtira boshladi. Xususan, S. oilasiga moddiy jihatdan yordam bermoqchi. Shuning uchun 10-sinfdan boshlab koreys tilini o'rgandi va endi Koreya Respublikasidagi bir firmaga ishga kirish niyatida. Bir oy oldin imtihon ham topshirdi va sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi. Endi Koreya Respublikasiga borib, o'sha yerda ish boshlaydi. Lekin S. viza olishi uchun firma S. ga xat yuborishi kerak. Ushbu xatda S.ning xorijga chiqish pasporti seriyasi va raqami aniq ko'rsatilishi zarur. S. xorijga chiqish pasportini qanday olishni bilmaydi. Unga yordam bering.

A. – S.ning sinfdoshi. U 18 yoshga to'lishiga yana 5 oy bor. A. juda ham zehni o'tkir qizlardan va nemis tilini yuqori darajada o'zlashtirgan. U 11-sinfni bitirgach, Germaniyaning Bonn universitetiga bakalavr bosqichiga o'qishga qabul qilindi. Universitetdan zarur hujjatlarni topshirishi kerakligi haqida unga elektron pochta orqali xabar keldi. Talablar ichida xorijga chiqish pasportini skaner qilib jo'natish ham bor. U 2 oydan keyin Germaniyaga uchib ketishi kerak. A. ham xorijga chiqish pasportini qanday qilib olaman deb o'ygabotgan. Siz unga maslahat bera olasiz degan umiddamiz.

Vazifa. Demak, sizning vazifangiz avvalo xorijga chiqish pasporti hamda viza nima ekanligini S. va A.ga birma-bir tushuntirishdir. Bunda quyida taqdim etilgan tushunchalardan foydalanishingiz mumkin. Bir narsaga e'tibor qaratishingizni so'raymiz. Odamlarga bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladigan jarayonlarni tushuntirganda ma'lumotlarni aralash-quralash qilib aytish kutilgan natijani bermaydi. Ularni ketma-ketlikda va ma'lum bir chizma asosida tushuntirish juda samarali bo'ladi. Bu xuddi manzilni xarita orqali tushuntirishga o'xshaydi. Siz ham unumli usuldan foydalaning. Chizma chizing va dastlab bu ikki bitiruvchiga xorijga chiqish pasportini qanday olishni, undan keyin viza olish uchun qayerga murojaat qilishlari kerakligini ko'rsatib bering.

Viza – turli davlatlar fuqarolarining boshqa biron-bir davlatga kirishi, undan chiqishi, qisqa muddat yashashi yoki davlat hududidan o'tishi uchun hukumat mas'ul organlari tomonidan fuqaro pasportiga qo'yiladigan maxsus rasmiy ruxsat belgisi.

Yuqoridagi masalalarga javob topishda lex.uz saytidan foydalanishingiz mumkin.



Yodda tuting

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish biometrik pasporti – xorijga chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish, shuningdek, xorijda turish vaqtida egasining shaxsini va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlaydigan, pasport egasining shaxsiy biografik ma'lumotlari va biometrik parametrlari saqlangan elektron axborot tashuvchiga (chipga) ega bo'lgan hujjat.



NAZORAT ISHI

*Vaqtni “essiz”, “qaniydi”, “koshkiydi”lar bilan
o‘tkazgan kishining umri eng qisqa umr ekan.
Najmiddin Kubro*

ATAMALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MATNNI TO‘LDIRING

Jahonda mavjud davlatlar va ularda yashovchi insonlar dunyo oldida turgan global muammolarni hamkorlikda hal qilishda umumiy maqsad yo‘lida faoliyat ko‘rsatish birligini anglatuvchi tushunchasi tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugun u faqatgina suveren davlatlardangina emas, balki ning hisobiga ham boyigan.

Suveren davlatlar o‘zining ichki va tashqi siyosatida to‘la mustaqil bo‘lsa-da, ular ham bo‘ysunishi lozim bo‘lgan huquq mavjud bo‘lib, mazkur huquq sohasi deb ataladi. U faqatgina kuchlilar manfaatini himoya qilmaydi, balki insoniyatning umumiy manfaatlarini himoya qilishni, urushlarning oldini olish va tinchlikni saqlashni maqsad qiladi. Shu maqsad yo‘lida asosan yuridik kuchi teng bo‘lgan ikki manba va qoidalariga tayanib ish ko‘rishni talab etadi. Davlatlar o‘zlari rozi bo‘lib xalqaro huquq qoidalariga amal qiladi. Yana shuni ham unutmaslik lozimki, mazkur qoidalar faqatgina xalqaro munosabatlarni tartibga solmasdan, milliy huquq bilan ham uzviy aloqadorlikda bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistonda xalqaro huquq normalari hamda mamlakatimizning xalqaro shartnomalari ichki huquq bilan birgalikda ni tashkil etadi.

Ammo xalqaro aloqalarda davlatlar bilan birgalikda xalqaro tashkilotlar ham muhim rol o‘ynashini unutmaslik lozim. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyin dunyodagi barcha insonlar tinchlikning naqadar buyuk ne‘mat ekanini tushunib yetdi. Shu sababli urush yakunlanishi bilanoq dunyoda tinchlikni saqlab turishga xizmat qiladigan tashkil etildi. 1992-yil 2-martda O‘zbekiston ham mazkur tashkilotga qo‘shildi va ko‘plab masalalarda, xususan, O‘rta Osiyoni dan xoli hududga aylantirish, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish, inson huquqlarini himoya qilish kabilarda u bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Mamlakatimiz nafaqat bu kabi universal xalqaro tashkilotlar, balki mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan ham xavfsizlik va iqtisodiy masalalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Xususan, 2001-yildan buyon O‘zbekiston ning muhim a‘zolaridan hisoblanadi. 2021–2022-yillarda ushbu tashkilotga O‘zbekiston Respublikasi raislik qildi.

Bundan tashqari, yuqoridagi davlat hamda xalqaro tashkilotlar kabi xalqaro huquqning subyekti hisoblanmasa-da, uning ishtirokchisi bo‘lgani uchun ularni xalqaro maydonda himoya qilish dolzarb masala hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston o‘z fuqarolarini xorijiy mamlakatlarda ham himoya qilishni kafolatlaydi. Shuningdek, davlatlar o‘z fuqarolarini chet davlatning xalqaro huquqqa zid bo‘lgan xatti-harakatlaridan ham himoya qiladi. Bunday himoya deb ataladi va xalqaro odat huquqi sifatida juda ham mashhur.



AYRIM YURIDIK ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

Ayb – shaxsning sodir etgan jinoyatiga o'zining munosabati. Masalan, siz o'rtog'ingizning ruchkasini unga bildirmasdan olib qo'ydingiz va sizda shu ishni qilganingizdan so'ng "Bekor qildim-da" degan tuyg'u paydo bo'ldi. Mana shu "ayb" deyiladi.

Advokat – sizning huquqlaringizni himoya qiladigan shaxs. Masalan, kimdir uyingizni noqonuniy olib qo'ygan bo'lsa, siz advokatga murojaat qilib, uning yordami bilan uyingizni qaytarib olishingiz mumkin.

Bezorilik – jamiyatdagi yurish-turish qoidalarini buzish va mensimaslik. Bunday bezori shaxslar taqiqlangan joylarda alkogol ichimliklar ichadi, boshqa insonlarni haqoratli gaplar bilan so'kadi. Ya'ni jamoat joylarida nomaqbul ishlarni qiladi.

Bitim – fuqaro va yuridik shaxslarning o'zaro kelishuvga olib keladigan harakatlari. Masalan, sizning do'konga borib, muzqaymoq sotib olishingiz bitim bo'ladi.

Blog inglizcha "web log" so'zidan qisqartirib yasalgan bo'lib, "internet kundalik", "internet qaydnoma", "onlayn bitik" kabi ma'nolarni anglatadi.

Blogger – o'z sayti yoki ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasi orqali fikr-mulohazalarini, munosabatlarini beruvchi, blog yurituvchi kishi.

Burch – bajarishimiz kerak bo'lgan ishlar. Masalan, vatanimizni himoya qilishimiz, harbiy xizmatga borishimiz, Konstitutsiya va qonunlarga itoat etishimiz, ota-bobolarimizdan qolgan tarixiy, madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylashimiz hamda bizni o'rab turgan tabiatni ehtiyot qilishimiz bizning burchimiz hisoblanadi.

Buyruq – bajarilishi majburiy bo'lgan, bir kishi tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjat. Masalan, maktab direktori tomonidan maktab hududini obodonlashtirish uchun chiqariladigan hujjat buyruq bo'ladi va bu buyruqni maktab jamoasi va o'quvchilar bajarishi shart.

Davlat mulki – davlat ixtiyorida bo'lgan va davlat hokimiyati organlari tomonidan tasarruf etiladigan mulk.

Davlat tili – davlat yoki xalqaro tashkilotda ustuvor mavqega ega bo'lgan tildir. O'zbekiston Respublikasida davlat tili o'zbek tili hisoblanadi.

Firibgarlik – birovning ishonchiga kirib, aldab mol-mulkini o'zlashtirib olish.

Fuqarolarning tenghuquqliligini buzish – odamlarni tili, dini, millati, irqi va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab ajratish. Ba'zilarga huquqlarni ko'proq berib, boshqalarning huquqlarini cheklab qo'yish.

Guvohnoma – yuridik faktlarni tasdiqlovchi hujjat. Masalan A. qachon tug'ilganini uning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasiga qarab bilib olishimiz mumkin. Yoki dadangizning haydovchilik guvohnomasi bunday hujjatga misol bo'ladi.

Hadya – o'ziga tegishli mol-mulkni birovga tekinga berish, sovg'a qilish.

Ijtimoiy munosabatlar – turmushning turli sohalarida ishlatiladigan munosabatlar.

Imtiyoz – turli xil afzalliklar, yengilliklar berish. Masalan, sinfda eng yaxshi o'qiydigan o'quvchilarning imtihonlarni topshirmasdan turib sinfdan sinfga o'tishi.

Islohot – yangilanish, o'zgarish, tuzatish. Masalan, bolalarni o'qitishni yaxshilash uchun maktabga zamonaviy asbob-uskunalar, yangi darsliklar, katta tajribaga ega o'qituvchilar olib kelinadi. Shu yangilanish islohot hisoblanadi.

Jahon hamjamiyati – jahonda mavjud davlatlarning hozir insoniyat oldida turgan global muammolarni hamkorlikda hal qilishda, umumiy maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishda birligini anglatuvchi tushuncha.

Jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Kodeks – bir soha bo'yicha bir tizimga solingan huquqiy qoidalar yig'indisi. Masalan, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqalar.

Konferensiya – biron-bir masalani hal etish uchun tashkil etiladigan majlis, yig'ilish.

Korrupsiya – shaxsning shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Memorandum – diplomatik yozishmalar hujjati. Ya'ni ikki yoki undan ortiq davlatning biror masalani hal etish bo'yicha imzolagan diplomatik hujjati.

Migratsiya – ko'chish. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi.

Nafaqa – aholini moddiy ta'minlash shakllaridan biri. Nafaqa kasal bo'lganda, jarohat olganda, homiladorlik va bola tug'ilganda, ishsiz bo'lib qolganda va boshqa holatlarda tayinlanadi.

Nikoh – erkak va ayolning o'zaro ixtiyoriy roziligi bilan tuzilgan ittifoq. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga ko'ra, erkak yoki ayoldan biri rozi bo'lmasa, nikoh tuzilmaydi.

Nikoh yoshi – oila qurish mumkin bo'lgan yosh. O'zbekistonda nikoh yoshi 18 yosh.

Oila – nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Ota-ona, farzandlar va boshqa yaqin qarindoshlarning birlashmasi "oila" deyiladi.

Oldi-sotdi – biror mol-mulkni kimgadir sotish yoki sotib olish.

Oliy Majlis – davlatning oliy vakillik organi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. Qonunchilik palatasi va Senatning vakolat muddati besh yil.

Pasport – shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanini belgilaydigan hujjat.

Pensiya – fuqarolar ma'lum bir yoshga yetganida davlat tomonidan tayinlanadigan doimiy to'lov. Pensiya bir umrga tayinlanadi.

Pora berish – mansabdor shaxsga biror xizmati evaziga noqonuniy pul mablag'i berish.

Prokuror – prokuratura organlarining mas'ul mansabdor shaxsi. Bu so'z fransuzchada "qoralovchi" degan ma'noni bildirsa, lotinchada "g'amxo'rlik qilish" degan ma'noni anglatadi.

Qonun – davlat oliy vakillik organining yuqori kuchga ega bo'lgan hujjati.

Ratifikatsiya – (lot. *ratu* – "hal qilingan", "tasdiqlangan" va *facere* – "qilmoq") – xalqaro shartnomaning davlat hokimiyati oliy organi tomonidan tasdiqlanishi. Masalan, O'zbekistonda xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish to'g'risida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati birgalikda qaror qabul qiladi.

Soliq – davlat tomonidan undiriladigan va byudjetga o'tkaziladigan majburiy to'lov. Soliqlarni to'lashdan bosh tortish ma'muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sud – odil sudlovni amalga oshiruvchi mustaqil organ.

Suverenitet – davlatning boshqa davlatlardan ichki va tashqi siyosatda mustaqilligi.

Valyuta – muayyan mamlakatning pul birligi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida – so'm, Rossiya Federatsiyasida – rubl, AQSHda – dollar va boshqalar.

Vasiyat – fuqaroning vafot etgan taqdirda o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkni tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi.

Vasiylik – 14 yoshga to'lmagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadigan huquqiy shakl.

Voyaga yetmaganlar – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, 18 yoshga yetmagan fuqarolar.

Xalqaro huquq – xalqaro muloqotdagi davlatlararo va boshqa qatnashuvchilar (subyektlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ommaviy yuridik prinsiplar va normalar majmui.

Xususiy mulk – mulkni o'zlashtirishning xususiy usuliga asoslangan shakli.

Davlat va huquq asoslari [Matn]: 10-sinf uchun darslik / H. Tuychieva, A. Hakimov,
O. Abdugʻaniyev, O. Shernayev, M. Ahmedova
Toshkent: Respublika taʼlim markazi, 2023. – 128 b.

ISBN 978-9943-8453-0-5

UOʻK 341.23(075.3)
KBK 67.400ya72

Oʻquv nashri

H. Tuychieva, A. Hakimov,
O. Abdugʻaniyev, O. Shernayev, M. Ahmedova

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining
10-sinfi uchun darslik

Yangi nashr

Muharrir Orifjon Madvaliyev
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Rassom Mirkomil Jurayev
Dizayner Ashurov Mirjalol
Sahifalovchi Yuldoshev Farrux
Musahhih Xurshid Ibrohimov

Bosishga 00.00.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60X84%.
Arial garniturası. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabogʻi 0,00. Nashriyot-hisob tabogʻi 0,00.
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ____.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

No	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						
7						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.